

# Ezgulik

Asling kabi ko'rin yoki  
ko'ringaning kabi bo'l

Adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va ommabop gazeta

Gazeta 2023 yil 1 fevraldan chiqa boshladi.

2025-yil 15-mart №5-son (53)

## Sevib qolsayding

*Osmondag'i oyga boqqanda,  
Tanho meni esga solsayding.  
Chaqmoq bilan chaqnashib qalbing,  
Faqat meni sevib qolsayding.*

*Nelar bisyor, ikkimiz yiroq,  
Sog'inganim tushuna qolsayding.  
Qiy nab, hatto seni ham firoq,  
Faqat meni sevib qolsayding.*

*Ishqingda o't bo`ldi bu yurak,  
Senga bundan ortiq ne kerak?  
Tushun, umr misli bir ertak,  
Faqat meni sevib qolsayding.*

*Muhabbatim Luqmondek halol,  
Senga sevgim kelmasin malol.  
Yonginamga kelgin bemalol,  
Faqat meni sevib qolsayding.*

*Goh tushingdan topsaydim makon,  
Xayollarda birga bo`lsayding.  
Layli, Shirin ko`ksi to`la qon,  
Faqat meni sevib qolsayding.*

*Seni deya urib yuragim,  
Qalb to`ringda malika boëlsam.  
Allohimdan yolg'iz tilagim:  
Faqat meni sevib qolsayding...*

*Mahfuza MADAMINOVA,  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
filologiya va san'at fakulteti  
2-bosqich talabasi*



**\* Хотин-қизлар ҳукуки**

**"ХОТИН-ҚИЗЛАРГА ҲУҚУҚИЙ КҮМАК" АКЦИЯСИ ЎТКАЗИЛАДИ**

Акция доирасида қуйидагилар режалаштирилган:

- бирламчи белул юридик ёрдам кўрсатиш;
- ҳукуқий муаммоларни бартараф қилиш;
- "Адлия куни", "Ҳуқуқий тарғибот куни" лойиҳалари;
- хотин-қизлар ҳуқуқлари бўйича маълумотларни ОАВ ва ижтимоий тармоқлар орқали кенг ёритиш;
- [kurslar.huquqiyportal.uz](http://kurslar.huquqiyportal.uz) электрон тизимида аёллар ҳукуқига оид белул онлайн ўқув курсларини ташкил этиш;
- "Ҳуқуқий ахборот минбари" рукни остида аудио подкастлар ташкил қилиш;
- сайёр қабуллар ва бошқа тадбирлар ташкил этиш.

**Дилфузा МУҲАММАДИЕВА,  
Когон шаҳар ФХДЁ бўлими  
инспектори**

## 1-MARTDAN QONUNCHILIKDA NIMALAR O'ZGARADI?

Joriy yilning 1-martidan qonunchilikda quyidagilar o'zgaradi:

- ayrim bog'chalarning pedagog kadrlari uchun mobil' malaka oshirish xizmatlari yo'lga qo'yiladi;
- yer qa'ridan foydalanish monitoringi "Geomonitoring" AT orqali amalga oshiriladi;
- musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining malakasi yangicha tizim orqali oshiriladi;
- ayrim ota-onalarga farzandi uchun moddiy yordam beriladi;
- sudda ish yuritish taraflar kelishuv sababli tugatilganda davlat boji qaytarib beriladi;
- ayrim traktor va kombaynlarga GPS qurilmasi o'rnatilmasa davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

**Mahbuba МАНКАМОВА,  
Kogon shahar FХДY bo'lumi mudirasi**

## I VA II GURUH NOGIRONLIK PENSIYASI TAYINLANGANIDAN KEYINGI ISHLANGAN VAQT ISH STAJIGA QO'SHILADI

Pensiya tayinlash tartibini takomillashtirishga qaratilgan Qonun (O'RQ-795-son, 26.10.2022 y.) Prezident tomonidan imzolandi.

Unga ko'ra, ixtisoslashgan tibbiy muassasalarining shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlari – maxsus ish staji shaharchalar, qishloqlar hamda ovullarda kamida 25 yil bo'lgan taqdirda oxirgi ish joyidan qat'i nazar, belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladi.

Qonunga muvofiq, o'gay ota va o'gay onaning vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) tarbiyalaganligi yoki boqqanligini aniqlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlar O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga – pensiyani hisoblash bazavisi miqdorining 100 foizidan 150 foizigacha belgilanadi. Bunda ularning pensiyasiga ustama to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

I va II guruh nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin kamida 1 yil ish stajiga ega bo'lsa, fuqaroning arizasi asosida ish staji va ish haqi inobatga olingan holda pensiya har ikki yilda bir marotaba qayta hisoblab chiqiladi. Bunda pensiyani qayta hisoblash fuqaro pensiya miqdorini qayta hisoblash uchun murojaat qilgan sanadagi yoshga nisbatan talab qilingan ish stajidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

**O'.J.Akmamedov,  
Buxoro tumani adliya bo'lumi yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
Bosh yuriskonsulti**

## \* Qonunchilik yangiligi

## MILLIY STATISTIKA QO'MITASI TASHKIL ETILADI

**"Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-27-son, 24.02.2025 y.) qabul qilindi.**

Farmonga ko'ra, Prezident huzuridagi Statistika agentligi Milliy statistika qo'mitasi sifatida qayta tashkil etiladi. Statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning quyidagi ustuvor yo'naliishlari belgilandi, jumladan:

- makroiqtisodiyot va tarmoqlar darajasida statistik kuzatuv o'tkazish tizimini hamda ularning metodologiyasini xalqaro standart va tavsiyalarga muvofiq takomillashtirib borish;
- integratsiya jarayonlarini kengaytirish orqali statistik hisobotlarni qisqartirish va biznesga hisobot topshirish yukini kamaytirib borish;
- "mahalladan – respublikagacha" tamoyil bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish tizimini yaratish orqali ma'lumotlarning ishonchiligini ta'minlash.

2025 yil yakunigacha "Hududlar statistikasi" axborot tizimi ishga tushiriladi.

2025 yil yakuni bo'yicha hisobot davridan boshlab xodimlar soni yillik o'rtacha 5 kishidan kam bo'lgan va yillik tushumi BHMning 2 000 barobarigacha bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun yillik statistika hisobotini topshirish majburiyatini bekor qilib, har uch yilda bir marotaba statistik hisobot topshirilishi belgilandi.

**Vazira SEVAROVA,  
Jondor tuman FXDY bo'lumi inspektori**

## KONTRAFAKT MAHSULOTLARDAN EHTIYOT BO'LING

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi 4965-son qaroriga  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va tegishli vazirlik va idoralar tomonidan joriy yilning  
15-fevralidan 15-martiga qadar respublika bo'ylab "Kontrafaktsiz oy" oyligi o'tkazilmoqda.**

Mazkur oylik davomida Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan vakolatlari organlar bilan hamkorlikda aholi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'rtasida bozorlar va yirik savdo majmularida kontrafakt mahsulotlarning realizatsiyasini oldini olish bo'yicha targ'ibot tadbirlari hamda oliy va professional ta'lif muassasalarida "Intellektual mulk himoyasi va kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish" mavzularida seminar va davra suhbatlari tashkil qilinadi.

Kontrafakt deganda, tovar belgisidan yoki adashtirib yuborish darajasida u bilan o'xshash bo'lgan belgidan tovarlarda, tovarlarning etiketkalarida, o'rovlarida qonunga zid ravishda foydalanishi tushuniladi.

Hurmatli fuqarolar, agarida Siz kontrafakt mahsulotlarga duch kelsangiz, Buxoro viloyat adliya boshqarmasining (65)223-21-20 telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.

**Sherali JO'RAYEV,**

**Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo'yicha bosh maslahatchi**



# **MEHNATGA HAQ TO'LASHNING UMUMIY SHARTLARI**

## Mehnatga haq to'lash va ish haqi tushunchalari

**Mehnatga haq to'lash ish beruvchi tomonidan xodimga uning mehnati uchun to'lovlar belgilash va ularni amalga oshirish yuzasidan mehnat shartnomasi taraflari o'rtaсидаги mehnat to'g'risидаги qonunchilik, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar va mehnat shartnomasi bilan tartibga solingan munosabatlар tizimидир.**

Ish beruvchi tomonidan xodimning malakasiga, bajaradigan ishining murakkabligiga, miqdoriga, sifati va sharoitlariga qarab to'lanadigan mehnat uchun mukofot summasi, shuningdek kompensatsiya xususiyatiga ega to'lovlar (kompensatsiya xususiyatiga ega qo'shimcha to'lovlar va ustamalar, shu jumladan normal ish sharoitlaridan chetga chiqadigan sharoitlarda ishlaganlik, noqlay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun shunday qo'shimcha to'lovlar va ustamalar hamda kompensatsiya xususiyatiga ega boshqa to'lovlar) va rag'batlantiruvchi to'lovlar (rag'batlantiruvchi xususiyatga ega qo'shimcha to'lovlar hamda ustamalar, mukofotlar va taqdirlovchi to'lovlar) ish haqidir.

Normal ish sharoitlarida oddiy ishlarni bajarish chog'ida ish vaqtining normasini to'liq ishlab bergen xodimning malaka talab etmaydigan mehnati uchun qonunchilikda kafolatlangan, Yagona tarif setkasining birinchi razryadiga muvofiq bo'lgan oylik ish haqi miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridir.

# Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilash

**Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan takliflar hisobga olingan holda O'zbekiston Respublikasining butun hududida bir vaqtning o'zida belgilanadi hamda tashkiliy-huquqiy shakllaridan, mulkchilik shakllaridan va idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, barcha ish beruvchilar uchun maiburivdir.**

Ish vaqtining oylik normasini ishlab bergen va mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasini bajargan xodimning mehnatiga haq to'lashning oylik miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas.

O'z mehnat majburiyatlarini bajargan xodimning mehnatiga soatbay haq to'lashning eng kam miqdori tegishli kalendar yilda olti kunlik ish haftasidagi ish soatlarining o'rtacha oylik miqdoriga bo'lingan, bir oyda mehnatga haq to'lashning qonunchilikda belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas.

Mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan mukofotlar, ish haqiga ustamalar, boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlar, shuningdek ish vaqtidan tashqari ish, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish, tungi vaqtdagi ish uchun to'lovlar, tuman koefitsiyentlariga doir to'lovlar hamda boshqa kompensatsiyaga oid va ijtimoiy to'lovlar mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga kiritilmaydi.

## Ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash

**Ish vaqtidan tashqari ish uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi.**

Jamoa shartnomasida, kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra ish beruvchi tomonidan qabul qilingan ichki hujjatda, mehnat shartnomasida ish vaqtidan tashqari ish uchun qo'shimcha to'lov larning yugoriroq mijddorlari nazarda tutilishi mumkin.

Xodimning xohishiga ko'ra ish vaqtidan tashqari ish uchun oshirilgan haq to'lash o'rniга ish vaqtidan tashqari ishlab berilgan vaqtning davomiyligiga muvofiq keladigan qo'shimcha dam olish vaqtini berish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Bunday holda ish vaqtidan tashqari ish uchun bir hissa miqdorida haq to'lanadi, dam olish vaqtini uchun esa haq to'lanmaydi.

Jamol KARIMOV,  
Buxoro tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
Bosh yuriskonsulti



#### \* Qonunchilikdagи yangilik

# QADRIYATLARING BOQIY BO'L SIN, NAVRO'Z!

**“2025 yilgi Navro’z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko’rish va uni  
o’tkazish to’g’risida”gi Prezident qarori (PQ-68-son, 21.02.2025 y.)  
qabul qilindi.**

**Qabul qilinadi.** Qarorga ko'ra, 2025 yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda "Qadriyatlarin boqiy bo'lzin, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq savillari shaklida yugori saviyada keng nishonlanadi.

2025 yilgi Navro'z umumxalq bayramining g'oyaviy-badiiy kontseptsiysi ma'qullandi hamda bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tasdiqlandi. Bu yilgi Navro'z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriyalarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariiga kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish maqsadida, ular uchun bayram dasturxonasi voziladi hamda turli xavriya tadabirlari o'tkaziladi.

"Yashil makon" umummimilli yoyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hududlarda, ko'cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish aktsiyalarini, umumxalq hasharlarini o'tkazishqa alohida e'tibor qaratiladi.

Toshkent shahridagi "Yangi O'zbekiston" majmuasida alohida dastur asosida xalq savillari tashkil etiladi.

Ergashoy QO'LDOSHOVA,  
Kogon tuman FHDY bo'limi mudirasi

# GENDER TENGLIGI

**Gender tenglik erkaklar va xotin-qizlar tengligi –  
insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.  
Shuningdek, gender tenglik, iqtisodiy va ijtimoiy  
taraqqiyotning ham negizi hisoblanadi. Milliy  
qonunchiligidan qo'shilishga «gender» tushunchasi 2019-yil 3-  
sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va  
erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari  
to'g'risida»gi qonuni bilan kiritilgan bo'lib, unga ko'ra  
gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtaqidagi  
munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha  
sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq,  
mafcura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida  
namoyon bo'ladigan ijtimoiy iihatni hisoblanadi.**

Shuningdek, ushbu qonun bilan gender statistikasi – davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdag'i shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi, gender-huquqiy ekspertiza – normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihibarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash printsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish kabi tushunchalar ham qonunchiliqimizga kiritildi.

Mazkur qonunning 1-moddasida, ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi ta'kidlangan bo'lib, qonunda davlat organlaridagi vakolatlari shaxsning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vakolatlari, davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, davlat xizmatidagi lavozimlarni egallash uchun tanlovlardacha xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishi, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, mehnat munosabatlari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, uy mehnatini bajarishda teng munosabatlar kafolatlari belgilangan.

**V. QILICHEV,  
Jondor tuman FXYD bo'limi mudiri**



## JADIDLARGA MUNOSIB IZDOSH BO'LAYLIK

**Z**alvorli tariximizga nazar solar ekanman, men shu millat farzandi o'laroq xalqim uchun, millatim ertasi uchun nima qila olyapman? "Jadid bobolarim" – deb barmoqlarim bilan sanashni qoyillataman, biroq ularga nechog'liq munosib avlod bo'lishni uddalayapman? Shavkatli tariximiz, buyuk allomalarimiz haqida soatlab gapiraman, ammo ular avlodni bo'lib neni epladim? deya so'roqli savollarga javob topa olmay mum tishlayman. Ozgina harakat qilib, katta natijalar kutuvchi ham, maqsadlarim yo'lida qiyinchiliklarga, to'siglarga uchrasam,adolat yo'q ekan, biror muvaffaqiyatga erishish uchun yo zaring, yo zo'ring bo'lsin ekan, deguvchi ham o'zim. Zamondan nolib, atrofdagilardan shikoyat qilib yuruvchi ham o'zim bo'lsam, o'zimdan xafa bo'lmay, kimdan xafa bo'lay?!

Millat oydinlarining eng katta orzusi taraqqiy etgan, madaniyatli, ma'rifatli, har tomonlama hurriyatga erishgan xalq bo'lmoq edi. Bu yo'lida ular jonlarini ham ayamadilar. Biroq hozirgi kunda bizning orzularimiz hashamatli uy solmoq, eng so'nggi rusumdag'i mashinalarni minmoq,

dabdabali to'ylar qilmoqdan iborat bo'lib qolganligidan dilim ranjiydi. Shunda buyuk millatimiz uchun jadidlar, millat umidlari yetishmayotganligini yana bir karra his etaman.

Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy harakatdir. Markaziy Osiyo jadidchilik harakatining namoyondalari o'z islohot g'oyalari bilan o'sha davr rivojida o'chmas iz qoldirgan. Xususan, ular yangi usul mакtablarini ochib, yoshlarning dunyoviy fanlarni va xorijiy tillarni o'rganishlari uchun imkon yaratganlar. O'z moddiy ko'maklari asosida ko'plab yoshlarni xorijida sifatli ta'lim olishlarini ta'minlagan. Shuningdek, ular ayollar huquqlarini himoya qilib, ularni ta'lim olishga da'vat etgan. Jadidlar o'sha davr matbuot va maorifining ravnaq topishida ham beqiyos hissa qo'shgan. "Oyina" jurnali, "Turkiston" va "Sadoi Turkiston" gazetalari bunga yorqin misol bo'la oladi. Negaki, ular aytar so'zlarini matbuot va nashriyotlar orqali xalqqa etkazishga harakat qilganlar. Ular uchun teatr xalq dardini, muammolarini ommaga yetkazishda eng samarali yechimga aylangan. Turkiston jadidlarining otasi bo'lmissi Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining Turkistonda yanada keng yoyilishida juda katta jonbozlik ko'rsatgan. U "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnalini ta'sis etgan va "Kutubxonai Behbudiy" kutubxonasi va "Nashriyoti Behbudiya" nashriyotini

ochgan. U har doim xalqni ilm olishga, rivojlanishga chorlagan. "Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning bosini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'y mangiz! Har ish qilsangiz, jamiyat ila qilingiz! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingiz! kabi jumlalari fikrimiz isbotidir.

Cho'lpion esa vatan va millat manfaati uchun yashagan shoir va yozuvchi edi. U o'z asarlari bilan xalqni mustamlakachilik siyosatining mohiyatini fosh etishga, zulm va zo'ravonlikka qarshi kurashishga da'vat etgan.

*Tiriksan, o'Imagansan  
Sen-da odam, sen-da insonen,  
Kishan kiyma,  
Bo'yin egma,  
Ki, sen ham hur tug'ilg'ansan!*

kabi yurak qoni birla yozgan mislari ila vatandoshlarida erk va hurriyat tuyg'ulariga sadoqatni tarbiyalashga intilgan. Abdurauf Fitrat tarixchi, filolog, yozuvchi bo'lib zamonaviy o'zbek tili va adabiyotining asoschilaridan biri bo'lgan. U Buxoroning turli tumanlarida o'qituvchilik qilgan va darsliklar yaratgan. Shu bilan bir qatorda, 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning turli oliy ta'lif muassasalariga o'qishga yuborgan fidoyi inson edi.

Bir so'z bilan aytganda, jadidlar o'zbek xalqining ma'rifat nurin taratuvchi quyoshi edilar. Bugungi kunda ular o'zlarining har bir qilgan ishlari, aytgan gaplari bilan yosh avlodga o'rnak bo'la olishadi. Ammo biz shunday buyuk zotlarga munosib bo'lish uchun ne qilmoqdamizki, kelar avlod bizdan ibrat olsa?! Shunday ekan, millatning har bir dilbandi faqat o'z manfaati uchun yoki chegaralangan orzulari uchun emas, balki xalq ertasi uchun harakat qilishga, yangi-yangi taraqqiyot g'oyalari bilan yurt farovonligini ta'minlashda kamrabasta bo'lmoqliklari lozim.

**Ozoda SUYUNOVA,  
Qarshi davlat universiteti  
4-bosqich talabasi**

## O'QUV-SEMINAR

**Oqqa'rg'on tumanidagi 1-son politexnikumida viloyatdagi kasbiy ta'lif muassasalarining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinosarlari va katta ustalar uchun dual ta'lif tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan o'quv-seminar bo'lib o'tdi.**

Seminarda dual ta'lif tizimining afzalliklari, uni amaliyotga joriy etishning samarali usullari, ishlab chiqarish ta'limi sifatini oshirish va ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Tadbir davomida ishtirokchilar dual ta'lif modelining kasbiy ta'lidiagi ahamiyati, uning samaradorligi va ta'lif jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash bo'yicha fikr almashdilar. Seminar so'ngida ishtirokchilarga tegishli tavsiyalar berildi.

I.YUSUPOV






## JANNATIMSIZ - DUOLARDA YASHAYOTGAN

(Bobojonimning xotirasiga bag'ishlayman)

Pir-u badavlatim, mehri qaymog'im,  
Qaydan izlay endi dono so'zingizni.  
Ilmingizdan o'z yo'limni topgan chog'im,  
Qoldim giryon topolmayin o'zingizni.  
Avaylab, ko'z qorasidek bag'ringizda,  
Zoriqtirmay o'stirdingiz bekam-u ko'st.  
Hech tashvishsiz ilm oldik davringizda,  
Bormi endi sizdek joni kuyguvchi do'st?  
Kammidi yo farzandlar deb chopganingiz ?  
Nabiralar g'amiga ham kuyganimsiz.  
Davlat emas, obro' edi topganingiz ,  
Aytolmadim, hammadan ko'p suyganimsiz.  
Til kurslarga hech erinmay eltilib yana  
Eshigida intiq kutgan qaysi bobo?  
Bir qarichlik nabirasin o'qisin deb,  
Tunda qo'lga kitob tutgan qaysi bobo?  
Gar testlardan yechsam bexos bir dona kam,  
O'shal kecha uxlamasdan o'ylaganim,  
Eh, talaba bo'larmikin nabiram ham,  
Deya orom topolmasdan bo'ylaganim.  
Talabalik gashtin sursak biz bearmon,  
Yana biz deb ming xayolda yurganimsiz.  
Hayiqmasin, deya uyg'a kelsin omon,  
Sovuqlarda yo'l bo'yida turganimsiz.  
Bolaligim qaytsa edi bir on yana,  
To'yib-to'yib hidlar edim iforingiz.  
Yoningizdan jilmasmidim qilmay ta'na,  
Qo'ymasdim, qaytsa umr bahoringiz.  
To'yim kuni ko'z yoshingiz bo'ldi daryo,  
Shuncha sevar edingizmi meni ayting?  
Qayg'umidi, bilolmadim sevinchmi yo,  
Yana bir bor ta'zim qilay, ortga qayting.  
Baxt to'yida yetkazganda E'zozamni,  
Sandiq, sarpo mendan, degan edingiz-ku.  
Umr bo'yi qaytarmasdan hech sazamni,  
Va'dangizda ilk bor turmay ketdingiz-ku.  
Xotiralar qoldi mangu o'ylarimda,  
Dilga sig'mas endi o'tinch-nolalarim.  
Borligingiz yetar edi, to'ylarimda,  
Sizga sarpo qilsin edi, bolalarim.  
Qayga bormay, topiladi shogirdingiz,  
Ta'liminingiz sabab, shon-u shuhurat topgan.  
Millionlab qalbda qoldi xotirangiz,  
Jannatimsiz - duolarda yashayotgan.  
Qayga ko'may, sog'inchimni, bobojonim?  
Alam o'rtar endi ko'ngil dog'larida.  
Balki eslab yig'lab she'rilar yozgan onim,  
Termilyapsiz, shodon, jannat bog'larida...

**Shaxribonu MUHIDDINOVA,**  
**BuxDPI magistranti**



## VATAN UCHUN

Sen uchun jon bergan o'g'lonlaringni  
Jannatga kuzatib qo'ydingmi, Vatan?  
Himoyangda turgan marding – xalqingini  
O'zi kabi jondan suydingmi, Vatan?

Sen uchun ko'zi o't, ko'ksi qalqonlar,  
Shirin jondan kechgan aziz insonlar,  
Bag'ringda yotarlar botir o'g'lonlar,  
Bir kaft tuproq bilan ko'mdingmi, Vatan?

Vatan! Noming ulug', ne'mating buyuk,  
Har yering – daryo, ko'l, qir, cho'ling suyuk.  
Sensiz holim xarob, vujudim kuyik,  
Sening-la ko'ksim tog', ko'rdingmi, Vatan?

Yurtim, jaqlar o'tdi, urushlar o'tdi,  
Ochlilik u sarsonlik, gadolik bitdi,  
Momolar duoda, omonlik yetdi,  
Yosh avlod qanoting bo'lsinlar, Vatan  
Buyuk kelajaging qursinlar, Vatan!



## QAYDASIZ, ONA?

Dunyoning tashvishi tugamaydi hech,  
Bandaning hayoti misoli darvesh.  
Ko'rgim kelib, izladim bo'lgandi-da  
kech,  
Izlab bormoqchiman, qaydasiz, Ona?

Boshim silamaydi kimsa botinib,  
Hech kim yo'llarimni kutmas sog'inib,  
Sizni izlayabman, yig'lab, o'kinib,  
Izlab bormoqchiman, qaydasiz, Ona?

Mehringiz bog'laydi o'ziga ipsiz,  
Qalbim o'rtanadi yolg'izdir sizsiz,  
Sizsiz kecham oysiz, kunduzim nursiz  
Izlab bormoqchiman, qaydasiz, Ona?

Qollaringiz kelib, koz-yoshim artsa,  
Sog'inchim, she'rlarim, dardimni aytsam,  
Bag'ringizda biroz oromim olsam,  
Izlab bormoqchiman, qaydasiz, Ona?

Sizsiz uyimizda yo'qdir halovat,  
Qalbimiz yig'laydi bo'lib betoqat.  
Yonimizda borsiz, shaksiz, toabad,  
Izlasam, tushimda bir keling, Ona!

**Dilnura SHAMSIYEVA,**  
**Buxoro tuman 2-maktabning**  
**9-“A” sinf oquvchisi**



## ORZULAR OSMONI

Ochiq osmon qo'ynida,  
Yurar edi bir qizcha.  
Kiri yo'qdir ko'nglida,  
Misoli bir gulg'uncha.

Orzulari dunyoday,  
Qalbleri daryoday,  
Hech o'ksimas ko'ngilchasi,  
Chiroylida yanoqchasi.  
G'am neligin bilmay u,  
Qanot yozar qush kabi.  
Kulfat-g'amin bilmay u,  
O'ynab-kulib yurgan kabi.

## JANNAT

Yo'limdan chiqsa gar jannat eshigi,  
Ohista borardim samoga uchib.  
Shodlikni, qayg'uni tashlab ketardim,  
Jannatning oldiga borib yitardi.

Ko'nglimning g'amlari eridi shu on,  
Har zamon yo'limni to'sib o'tadi.  
Bu dunyo yolg'onligin bilib o'tsam,  
Jannatga borishni orzu qilaman.

**Shabbona ERKINOVA,**  
**Samarqand viloyati,**  
**Ishtixon tuman 10-maktab**  
**7-sinf o'quvchisi**




\* \* \*

Yurtim tog'laringni sevaman,  
Yurtim, men shaydoman gul bog'laringga,  
Bepoyon dala-yu irmoqlaringga,  
Lek yana mehrimning ardog'i cheksiz,  
Betakror Hisor-u alp tog'laringga.

Qoyalari ortida ko'klam – hayot bor,  
Cho'qqilarga boqsam, zardek oppoq qor.  
Bir tomon zimiston, bir tomon bahor,  
Tog'laring sevaman, ular betakror.

Qay birin math etay, Nurota, Hisor,  
Yo Hazrati sultonmi, Bo'ysun xusnkor.  
Chimyon tog'laringmi sevgimga izhor,  
Barini sevaman, bari fidokor.

**Munisa HAMROYEVA,**  
**Buxoro viloyati, Romitan tuman**  
**“Barkamol avlod bolalar maktabi”**  
**“Rejissorlik jurnalistika va notiqlik”**  
**tarmoq to'garagi a'zosi**



**VATANPARVARLIK – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo`lida fidoyilik ko`rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-q`ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushuncha. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo`lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma`nomazmun bilan boyib, rivojlanib boradi.**

tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jahhada Vatanimiz erishayotgan muvafiqiyatlardan quvonish, og'ir kunlarida uning uchun qayg'urish, o'z yurti bilan g'ururlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g'ishti va giyohiga, qadimiylar bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo`lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati bularning barchasi vatanparvarlikdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg`usini kamol toptirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o'z yurtini qanday bo`lsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim. Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon bo`ladi: **1) bilish** – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash; **2) e'tiqod** – mazkur qadriyatlar to'g'risida olgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish; **3) harakat** – bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish.

Laziz NURULLOYEV,

**Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta`lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**



**Buxoro tuman tibbiyot birlashmasida hamshiralar o'rtaсида "Zakovat" intellektual o'yini bo`lib o'tdi**

## MA'RIFATLI AYOL – FAROVON JAMIYAT TAYANCHI

Ayol zakovati jamiyatning eng murakkab muammolaridan tortib, oilaviy tashvishlarni ham hal eta olishga qodir. Tanlovida zukko hamshiralar beshta shart asosida bellashishlari jarayonida ayollarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni, nufuzini oshirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, farzandlarimizni milliy, umuminsoniy qadriyat-larga hurmat ruhida tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasidagi chiqishlari va kasbiy bilimlari bilan barchani lol qoldirishdi.

Tanlov ishtirokchilari va g'oliblar munosib taqdirlanishdi.

F.AKIYEVA,  
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi  
Buxoro tuman bo'linmasi rahbari**



**Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati bo`lib, shu jarayonda shaxsnинг taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiysi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sindan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.**

## BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI



Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shaklidanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsn ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilar mustaqil fikrlesh, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashdirish imkon paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashq'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsn tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlesh, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Babs-munozara», «Rilli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishslash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Nargiza ISMATOVA,  
**Romitan tumanidagi 14-maktabning  
oliy toifali boshlang'ich (3-“A”) sinf o'qituvchisi**

## ENDI YANGI HAYDOVCHILIK GUVOHNOMALARINI ONLAYN OLİSH MUMKIN

**O'zbekistonda endi yangi haydovchilik guvochnomalarini onlayn tarzda olish mumkin (ilgari faqat almashtirish mumkin edi). Hujjatni eng yaqin Davlat xizmatlari markazidan olish yoki pochta orqali uyga buyurtma qilish imkonı mavjud.**

Milliy haydovchilik guvochnomalarini berish, almashtirish va yo'qolgani o'rniغا yangisini berish YalDXP orqali DYHXX organlari yoki Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladi.

Endilikda viloyatimizning Buxoro shahar, G'ijduvon, Kogon, Shofirkon, Peshku, Romitan, Jondor hamda Qorako'l tumanlari orqali berish ham yo'lna qo'yildi.

Ismi, familiyasi va otasining ismi o'zgarganda, shuningdek, milliy haydovchilik guvochnomasini almashtirish hamda yo'qolgani o'rniغا yangisini olish uchun yuqorida nomlari qayd etilgan Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qiladi yoki mustaqil tarzda YalDXPda ro'yxatdan o'tadi.

2023 yilning aprel oyidan hozirgacha faqat haydovchilik guvochnomasini masofadan almashtirish mavjud bo'lgan bo'lsa, endilikda YalDXP orqali yangi guvochnomi ham rasmiylashtirish mumkin.

Guvochnomani olish uchun hech qanday hujjat talab qilinmaydi, chunki barcha ma'lumotlar tizimida mavjud.

Hujjatni istalgan yaqin Davlat xizmatlari markazidan 1 ish kuni ichida olish yoki pochta orqali 2 ish kuni ichida uygacha buyurtma qilish mumkin (25 ming so'm) bo'lib, xizmat narxi - bazaviy hisoblash miqdorinig 0,7 barobarini tashkil etadi.

**J.KAMALOV**  
**Kogon shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi direktori**

## KICHIK HAJMLI KEMALARDAN XAVFSIZ FOYDALANISH SOHASIDA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH TARTIBI

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagagi «Kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalananishi ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2021-yil 2-avgustdaggi 484-sون qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi (89-sonli) qaroriga ko'ra, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanshda davlat xizmatlarini ko'rsatishni raqamlashtirish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga qulayliklar yaratish, shuningdek, kichik hajmli kemalar va ular turadigan bazalardan (inshootlardan) xavfsiz foydalansh qoidalarini yanada takomillashtirish maqsadida yuqoridagi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.**

Ular quydagilardan iborat:

- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalananish sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilash;

- kichik hajmli kemalar va ular turadigan bazalardan (inshootlardan) xavfsiz foydalansh qoidalarini takomillashtirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu qarorning mohiyati tadbirkorlar va aholi o'rtasida keng tushuntirilishini ta'minlashi ko'zda utilgan.Ushbu qarorga ilovaning 4-bandii 2025 yil 1 maydan kuchga kiradi.

**Mirshod IBRAGIMOV,**  
**Kogon shahar Davlat xizmatlari markazi  
bosh mutaxassis**

## YOLG'IZ ONADAN TUG`ILGAN BOLANING TUG`ILISHINI QAYD ETISH TARTIBI QANDAY?

**Ota ona o'rtaida qonuniy nikoh bo'lmagan, otalik belgilash to'g'risidagi ariza mavjud bo'lmagan hollarda bolaga nisbatan tug'ilganlik haqidagi dalolatnomalarini yozuvini yolg'iz ona sifatida qayd etiladi.**

Bolaning tug'ilishini qayd etish uchun FHDY bo'limiga onaning shaxsni tasdiqlovchi hujjati, yolg'iz ona to'g'risidagi yozma ariza topshiriladi. Bunda agar ona tug'ilishni qayd etishda shaxsan ishtiroy etolmagan taqdirda onaning arizadagi imzosi tibbiy muassasa yoki jazoni ijro etish muassasasi mansabdor shaxsining imzosi va ushbu muassasaning gerblisi muhri bilan yohud notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi shart.

Tug'ilganlik haqidagi dalolatnomalarini yozuvida bolaning ismi va ota ismi onaning ko'rsatmasi bo'yicha bolaning familiyasi esa onaning familiyasi yoki milliy an'analarga ko'ra ona tomonidan boboning ismi bo'yicha berilishi mumkin. Ota haqidagi ma'lumotlar onaning arizasiga asosan to'ldiriladi. Bunda bola otasining familiyasi tug'ilganligi to'g'risidagi dalolatnomalarini yozuvida onasining familiyasi bo'yiccha, bola otasining ismi, ota ismi va millati onaning ko'rsatmasi bo'yicha qayd etiladi.

Kelgusida ota ona birgalikda otalik belgilash haqidagi ariza bilan murojaat qilganda yoki sudning otalik belgilash to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lganda tug'ilganlik haqidagi dalolatnomalarini yozuvida ota haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va bolaga tug'ilganlik to'g'risida yangi guvochnoma taqdim qilinadi.

**Gulruxsor TURG'UNOVA,**  
**Buxoro tuman FHDY bo'limi 2 toifali inspektori**

## PORTLOVCHI MATERIALLAR BILAN BOG'LIQ RUXSATNNOMA BERISH TARTIBI

**Vazirlar Mahkamsining 2025-yil 7-fevraldagagi 67-son qaroriga muvofiq "Portlovchi materiallarni olib kirish, sotib olish, saqlash, shuningdek, avtomobil va temir yo'l transportida tashishga doir ruxsatnomalarini jarayoni soddashtirildi. Endilikda arizalar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal (my.gov.uz) va "Litsenziya" AT tizimi (License.gov.uz) orqlari ko'rib chiqiladi.**

Ruxsatnomalar olish uchun quydagi bosqichlarni bajarish lozim:

1. Ro'yxatdan o'tish: Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (my.gov.uz) axborot tizimida ro'yxatdan o'ting.

2. Ariza topshirish: Tegishli shaklda to'ldirib, kerakli hujjatlarni ilova qiling va arizani elektron shaklda yuboring.

3. Ko'rib chiqish jarayoni: Vakolatlari organlar belgilangan muddatlarda arizani ko'rib chiqib, natijasi haqida xabar berishadi.

Ushbu toifadagi arizalarni Portlovchi moddalarni, ularni qo'llagan holda materiallarni va mahsulotlarni, shuningdek, portlatish vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish faoliyati uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslargina bera oladi.

Ariza beruvchi yuridik shaxs arizada quydagi ma'lumotlarni ko'rsatishi kerak:

a)yuridik shaxsning nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR), pochta manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa), xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi va hisobvaragi;

b)ariza beruvchining amalga oshirmoqchi bo'lgan aniq harakatlari va (yoki) muayyan faoliyati uchun ruxsatnomalarini olishidan maqsadi;

c)harakatlar va (yoki) faoliyat amalga oshiriladigan joy;

d)harakatlar va (yoki) faoliyat amalga oshiriladigan taxminiy muddat (zarur bo'lganda).

Shuningdek, so'ralayotgan ruxsatnomalariga qarab arizada yana bir qancha qo'shimcha ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin.

Portlovchi materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish uchun ariza - 30 kunlik muddat ichida

portlovchi materiallarni sotib olish uchun;

portlovchi materiallarni saqlash uchun; portlovchi materiallarni tashish uchun arizalar - 10 kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Arizani ko'rib chiqish va Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Ruxsatnomalar:

portlovchi materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish uchun - 30 kungacha

portlovchi materiallarni olish uchun - 6 oygacha

portlovchi materiallarni saqlash uchun - 3 yilgacha

portlovchi materiallarni tashish uchun - 1 yilgacha amal qiladi

**Yorqin MURODOV,**  
**Buxoro tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi direktori**

## MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Juvozqog'oz ko'chasi, 122-uyda yashab, 2023-yil 4-dekabrda vafot etgan Xojiyev Djalol Jobborovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvochnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro shahridagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

\* \* \*

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, G'ofshun MFY, Namadgaron qishlog'ida yashab, 2018-yil 1-fevralda vafot etgan Tursunoy Tilovning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvochnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

**Manzil:** G'ijduvon tumani, XXI asr ko'chasi 8-uy.



Navro'z – yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uyg'onishi bilan bog`liq yangi kunning boshlanishidir. 21-mart kecha va kunduz tenglashgan kun – Yangi yil, yani Navro'z bayrami sifatida Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. U dehqon uchun ekin-tikin ishlarining boshlanish pallasi hisoblanadi. Ota-bobolarimiz, buvi-momolarimiz bu bayramni nishonlab, turli-tuman, rang-barang udum va marosimlar o'tkazishgan. Qadimda ajodolarimiz Navro'z kunlari qishki manzillari – qishloqlardan yozgi mehnat va hordiq maskanlariga ko`chib o'tishgan. Dalalarda bahorgi ekin-tikin ishlari boshlanib ketgan. Dehqonlar yerga qo'sh solishgan. Jamoa-jamoa bo`lib, hasharlar uyushtirishgan. O'tgan ajodolar ruhi yod qilingan. Ommaviy ravishda mevali, manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Dalalarda, yozloqlarda Navro'z – yangi yil, yangi hayot qaynagan. Ajodolarimiz Navro'z bayramiga atab maxsus kiyimlar tikishgan va ularni kiyib, bayram qilishgan. Navro'z taomlari ham o`ziga xos bo`lgan. Ular orasida, ayniqsa, sumalak, halim tayyorlash ananaviy tusga kirgan. Bu bayramda bolalarning ishtiroti juda faol bo`lgan. Ular Navro'z bayramida turli ommaviy bayram o`yinlari o`ynaganlar. Ot o`yin, chillak, qo`g`irchoq, tosho`yin, lapar aytish va hokazolar shular jumlasidandir. Bolalar, o`smirlar, o`sirinlar, bo`y qizlar sumalak pishirish marosimida faol ishtirot etish uchun ancha ilgariroq tayyorgarlik ko`rishgan.

Ayni kunlarda butun mamlakatimizda Navro'ziy kayfiyat hukmron, bayram shukuhi kezib yuribdi. Bayramga bag'ishlangan kechalar, milliy an'analarimiz, Navro'z bayrami qadriyatlarimizni aks ettiruvchi tadbirlar o'tkazilmoqda.

Angelina ISMOLOVA,  
Jondor tuman 22-o'rta ta'lim maktabi 7- "B"sinf o'quvchisi  
Mustaqillik MFY



## MUNOSIBLAR TAQDIRLANDI


Buxoro tuman 15-maktab o'quvchilarini o'rtasida shaxmat sport turi bo'yicha musobaka tashkil qildik. Unda Buxoro tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabi "Shaxmat-shashka" to'garagi a'zolari ham faol qatnashishdi.

Musobaqa qizg'in babs-munozalaraga boy kechdi. O'g'il bolalar o'rtasida 1-o'rin Sarvar Sattorovga, 2-o'rin Miraziz Hasanovga, 3-o'rin esa Azizjon Choriyev va Mirfayz Maximudovlarga nasib etdi.

Qizlar o'rtasida 1-o'ringa Hulkar Hojimurodova munosib ko'rildi. 2-o'rinni Firuza Aslonova, 3-o'rinni esa Dilso'z Boboqulova egallashdi.

Musobaqa g'olib va sovrindorlariga esdalik sovg'alari ulashdik.

Umriya NAZAROVA,  
Buxoro tuman "Barkamol avlod"  
bolalar maktabi "Shaxmat-shashka" to'garagi rahbari



## BAHOR

Bahor keldi,  
Gullar ochildi.  
Gullarga nuru  
Suvlar sochildi.

Mayin shabboda  
Tebratar hamon,  
Sho'x bulbullar  
Sayrashar shodon.  
Quyosh chiqar  
Tog'lar ortidan.  
Xo'roz qichqirar  
Quyoshdan aval.  
To'rt faslning eng zo'ri –  
Bu bahoroy mavsumi.

## ONAJONIM

Onajonim – mehribonimsiz,  
Men gul bo'lsam, siz yaprog'imsiz.  
Boshimdag'i soyabonsiz,  
Siz omadim, siz baxtimsiz.  
Duo qiling bizlarni,  
Go'zal o'g'il-qizlarni.  
Olib beray sizlarga  
Rahmat-u olqishlarni.

## BAHOR DARAKCHILARI

Bahorda kelishar laylak, turnalar,  
Samoni to'ldirar olam turlanar.  
Bahor iforidan bahramand bo'lib,  
Qo'shiqlar kuylashar laylak, turnalar.  
Yuksaklarda qilarlar parvoz,  
Bahor kuyi ajib, xushovoz.

Charosxon NORMUHAMMEDOVA,  
Quva tumani 32-maktab  
5- "A" sind o'quvchisi



## BAHOR

Kunlar isib ketdi biram,  
Ko'chamizni bezar ko'klam.  
CHiroj ochar maysalar ham,  
Bahor keldi bildingizmi?

Ariqlarda suvlar oqar,  
Kamalak ham ko'kdan boqar.  
Bahor menga juda yoqar,  
Bahor keldi bildingizmi?

Dilyorbek MAHAMATQOSIMOV,  
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi  
7- "D"sinf o'quvchisi

Ўзбекистон Республикаси  
АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ

“Хотин-қизларга ҳуқуқий кўмак” акцияси

**Зулфия мукофоти кимларга,  
қандай имтиёз беради?**

@huquqiyaxberot

**Конунчиликка кўра, Зулфия номидаги давлат мукофоти таълим, фан, адабиёт, маданият, санъат, спорт, ахборот технологиялари соҳалари ва жамоатчилик фаолиятида алоҳида ютукларга эришган 14 ёшга тўлган ва 30 ёшдан ошмаган иктидорли хотин-қизларга берилиши белгиланган.**

Мукофот ҳар йили Қорақалпогистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳридан 2 нафардан талабгорларга берилади.

Мукофотни олиш учун талабгор сўнгги 3 йил мобайнидаги ибратли фаолияти, ўз соҳасидаги ва жамоатчилик фаолиятидаги алоҳида ютукларига оид хужжатларни тақдим этиши лозим.

Мукофот совриндорлари агар умумий ўрта, ўрта маҳсус, професионал таълим муассасаларининг ўқувчилари бўлса, бакалавриатга, бакалавриат талабалари бўлса, магистратурага тегишли йўналиш ва ихтинослик бўйича кириш синовларисиз давлат грантлари асосида қабул қилинади.

Шунингдек, Мукофот совриндорларига БХМнинг 50 баравари (18 миллион 750 минг сўм) миқдорида пул маблаглари берилади.

**Нодира РАШИДОВА,  
Бухоро шаҳар 2-сон ФХДЁ бўлими 2-тоифали инспектори**

## QR NIMA UCHUN KERAK?



**Bugungi kunda QR kodlari ko'pchilik uchun allaqachon oddiy narsaga aylangan, lekin ko'pchilik aslida u haqida tushunchaga ega emas, lekin kunda oq fonda sirli qora kvadratchalar bilan tasvirlar reklama afishasi yoki plakatining burchagida, paketlarda, jurnal sahifalarida va hatto**

**biznes kartalarida, tovarlar etiketkalarida, kommunal to'lovlar kvitansiyalarida yoki saytlar sahifalarida ham ko'radir. Xo'sh, bu belgi nima va u nima uchun kerak? QR kod mazmun mohiyatiga asosan ingliz tilidan olingan bo'lib "Quick response" so'zlarining qisqartimasidir. Uning mazmuni "tezkor javob" ma'nosini beradi.**

QR kod juda ko'p ma'lumotni yetkazishda yoki undan foydalanish uchun ayniqsa qulay hisoblanadi. Bu kodning bosh afzalligi shundaki, u skanerlovchi uskuna (mobil telefon, fotoapparat yoki qo'l skaneri) yordamida oson va tez o'qish hamda kodlash imkonini beradi. QR kod qo'llanishining asosiy tamoyili shundaki, u giperhavola tarzida ishlay oladi. Bu birdaniga ko'p ma'lumot haqida xabar berish zarur bo'lgan holatlarda yoki uni soddalashtirish kerak bo'lganda juda qulay vosita sanaladi. QR kod elektron ma'lumotlar uzatish prinsi piga asoslanadi. Bu, ayniqsa, ko'p miqdordagi axborotni uzatish yoki undan foydalanishni soddalashtirishda qo'l keladi. QR kod surati mahsulot yoki xizmatni tanlash jarayonini yengillashtirishga yordam beradi, axir qadoq yoki reklama plakatidagi mana shu kichik kvadratchada 4296 tagacha belgi sig'diriladi. U aloqa jarayonini optimallashtirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, QR kodlar yordamida havoladan o'tish, elektron xat, SMS yuborish, manzil joylashuvini bilish va boshqa ko'plab amallarni bajarish mumkin. Bugungi kunda butun dunyoda elektron to'lovlarini amalga oshirishda ham mazkur texnologiyadan faol ravishda foydalaniylmoqda. QR kodlar reklama kitoblari va ma'lumotnomalarga joylashtirilgan. Ish faoliyatiningizda printerdan bosib chiqarilayotgan guvohnoma blankalarining pastki o'ng burchagidagi QR kod ostida gerbli blankada aks etgan barcha ma'lumotlar yashiringan. Bu kodni bunday kodni tekshirishga vakolatli organlar maxsus qurilmalar yordamida tekshirishlari mumkin.

**I.NURULLAYEVA,  
Buxoro shahar 3-son FHDY bo'limi  
I- toifali inspektorি**



## XOTIN-QIZLAR PILLACHILIK SOHASIDA QISQA MUDDATLI O'QUV KURSLARIADA O'QITILADI

**“Xotin-qizlarning pillachilik sohasidagi bandligini bosqichma-bosqich ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Hukumat qarori (46-son, 29.01.2025 y.) qabul qilindi.**

Qarorga ko'ra, xotin-qizlarni pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitish va ularni sohaga jalb qilishning asosiy parametrлari hamda uni bosqichma-bosqich ta'minlash tizimini tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Asosiy parametrлarga muvofiq qisqa muddatli o'quv kurslarini tamomlagan xotin-qizlarning bandligi Prezidenti Farmoniga muvofiq ustuvor ravishda pillachilik klasterlari, ipak qurti urug'chiligi korxonalari, pillachilik va tutchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklariga mavsumiy hamda doimiy ishlarga qabul qilish orqali ta'minlanadi.

Bir oy muddatda Xitoy, V'etnam, Hindiston va Yaponiya davlatlaridan iпakchilik sohasidagi mutaxassislarini xotin-qizlarning pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslariga jalb qilish choralar ko'rildi. Pillachilik sohasida band bo'lgan fuqarolarning ma'lumotlari "yangiish.mehnat.uz" platformasiga kiritib borilishi ta'minlanadi. Asosiy parametrлarga muvofiq pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarini tamomlagan xotin-qizlarning doimiy va mavsumiy ishlarga qabul qilinganligi hisobi yuritiladi.

**Zarnigor YUNUSOVA,  
Buxoro shahar 2-son FXDY bo'limi  
1-toifali inspektorি**

**YUKLARNI TASHISH  
BO'YICHA MUROJAAT  
QILISH TARTIBI  
QANDAY?**

**Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagи 86-son qaroriga muvofiq Katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashish uchun ruxsatnomasi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan beriladi.**

Bunda ariza beruvchilar "Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali arizami yuboradilar. Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish arizada quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

yuridik shaxs uchun - nomi, STIR, pochta manzili, elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa), xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi va hisobvarag'i, telefon raqami;

jismoniy shaxs uchun - F.I.O., JSHSHIR, pochta manzili, elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa), telefon raqami;  
transport vositasini, tirkamasining rusumi, turi, davlat raqami belgilari va yukning o'lchamlari;  
transport vositasining yuk bilan va yuksiz vazni;  
haydovchi va yuk tashishga mas'ul bo'lgan xodimlarning F.I.O.;

harakatlanish yo'nalishi, belgilangan sanasi va vaqt, transport vositasining yuk bilan eng kam burilish radiusi, g'ildirak yo'llarining va g'ildiraklarning soni, o'qlarga tushadigan og'irlilikning taqsimlanishi, umumiy og'irligi; yukli transport vositasining o'lchamlari, transport vositasining rusumi va turi;

kunning yorug' yoki qorong'u vaqtida harakatlanishi;

avtomobilning harakat xavfsizligi to'liq ta'minlanishi uchun himoya qiluvchi kuzatuvchi maxsus avtomobilga ehtiyoj mavjudligi yoki mavjud emasligi;

Arizani ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmaydi.

Arizani ko'rib chiqish 3 ish kunida amalga oshiriladi, bunda ruxsatnomani rasmiylashtirish ikki kunda, kelishish jarayonlari bir kunda amalga oshiriladi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati: 30 kun muddatga belgilangan yo'nalish bo'ylab bir marta yuk tashish uchun beriladi, bunda respublika hududiga kirish va qaytib chiqib ketish ko'zda tutilishi mumkin.

**Bekmurod HOTAMOV,  
Buxoro tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi**

## HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MUHIM QADAM

**Yurtimizda hunarmandchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida yana bir muhim qadam tashlandi. Buning uchun "Onlayn mahalla" electron platformasi yoki Interaktiv davlat xizmatlari portal orqali ariza topshirish kifoya.**

"Hunarmand" uyushmasi a'zosi bo'lgan va tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslar internet saytlarini tashkil etish, o'z mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish yoki reklama xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish bo'yicha ariza berishlari mumkin bo'ladi. Bunda ariza beruvchilar "Onlayn mahalla" elektron platformasi yoki Interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali electron shaklda arizani to'ldirishlari mumkin bo'ladi.

Arizada ustaning familiyasi, ismi va otasining ismi, doimiy yashash manzili, pasport (ID-karta) seriyasi va raqami, so'ralayotgan subsidiya turi, "Hunarmand" uyushmasiga a'zoligi va tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi, bank rekvizitlari ko'rsatiladi, shuningdek, elektron dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi yuridik shaxs (keyingi o'rinnarda - dasturchi) bilan tuzilgan shart-noma nusxasi ilova qilinadi. Ushbu qo'llab quvvatlash dasturi hunarmandlarning ishini kengaytirish, mahsulotlarini xorij bozorlariga olib chiqish va raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy hunarmandchiligidan rivojlantirishga katta turki bo'ladi.

Hokim yordamchisi uch ish kunida "Onlayn mahalla" elektron platformasi orqali quyidagi ma'lumotlarni o'rganadi:

ustani haqiqatda "Hunarmand" uyushmasiga a'zoligini va tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini;

dasturchning soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tganligini; so'ralayotgan subsidiya turidan muqaddam foydalanmaganligini;

Shundan so'ng o'rganish natijalarini mahalliy mehnat organiga yuboradi va o'rganish natijasiga ko'ra (agarda tavsija va hujjalarda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'z tasdig'i topsa) subsidiya ajratish to'g'risida mahalliy mehnat organining tegishli buyrug'i qabul qilinadi hamda bu haqda hokim yordamchisiga va ustaga xabarnoma yuboradi.

Ushbu qo'llab quvvatlash dasturi hunarmandlarning ishini kengaytirish, mahsulotlarini xorij bozorlariga olib chiqish va raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy hunarmandchiligidan rivojlantirishga katta turki bo'ladi

**Jamshid HALIMOV,  
Buxoro tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi  
bos mutaxassisi**

## KICHIK OTELLAR QURISH UCHUN DAVLAT QO'LLAB QUVVATLOVI

**Mehmonxona infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan hududlarda kichik otellar qurish va jihozlash uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmi joriy etilgan. Agar siz mehmonxona mavjud bo'Imagan tuman yoki shaharda kichik otel ochmoqchi bo'lsangiz davlat quyidagi qo'llab quvvatlovi amalga oshiradi.**

Xarajatlarni bir qismini qoplash - bu qurilish, jihozlash va boshqa asosiy xarajatlarni qisman yengillashtirish imkonini beradi.

Soddalashtirilgan tartibda ruxsatnomalar berish - Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal orqali murojat qilib rasmiy tartibda tezroq va qulayroq hal qilish mumkin

Subsidiya investorlarga YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlarda mehmonxonalar va respublikanering mehmonxona mavjud bo'Imagan tuman (shahar)larda kichik otellar qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va ularni jihozlash xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida beriladi.

Respublikanering mehmonxona mavjud bo'Imagan 22 ta tuman (shahar)lаридаги кичик отелларнинг умумий xonalari soni:

10 tadan kam bo'Imagan holda, har bir xona uchun - 10 mln so'm;

15 tadan kam bo'Imagan holda, har bir xona uchun - 15 mln so'm;

20 tadan kam bo'Imagan holda, har bir xona uchun - 20 mln so'm miqdorda subsidiya ajratiladi

Investor yoki uning vakili (ariza beruvchi) davlat xizmatidan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga shaxsan kelib murojaat etadi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni (keyingi o'rinnarda - YIDXP) orqali ro'yxatdan o'tadi.

Arizani ko'rib chiqish muddati 10 ish kuni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi (keyingi o'rinnarda - qo'mita) ariza kelib tushgan kundan boshlab o'n ish kunida uning mazkur Nizomda belgilangan talablarga mosligini joyiga chiqqan holda o'rganadi.

Qo'mita o'rganish natijalari bo'yicha subsidiya berish yoki subsidiya berishni rad etish to'g'risida (rad etish asoslarini ko'rsatgan holda) qaror qabul qiladi hamda qarorning elektron nusxasini tegishli davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelib murojaat etganda) yoki ariza beruvchining (elektron tarzda murojaat etganda) YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

**Eldorjon FAYZULLOEV,  
Buxoro tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi  
katta mutaxassisi**

**Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qiladi yoki elektron tarzda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) tizimidan ro'yxatdan o'tadi.**

## SPORT PASPORTINI OLISH TARTIBI QANDAY BO'LADI?

Davlat xizmatini ko'rsatuvchi vakolatli organ: O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi.

Davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun undiriladigan yig'im miqdori: BHMning 1/6 (oltidan bir) qismi.

Ariza YIDXP orqali taqdim etilganda, ariza beruvchidan davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat etganda to'lanadigan summaning 90 foizi miqdorida yig'im to'lanadi.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga yig'im miqdorining 50 foizi undiriladi.

Davlat xizmatini ko'rsatish muddati: 7 kun.

Sport pasportining amal qilish muddati 5 yil.

Davlat xizmatidan foydalanish uchun 16 yoshga to'Imagan shaxslarning elektron shaklda 3x4 o'chamli oq fondagi fotosuratini elektron nusxasini tayyorlab qo'yish maqsadga muvofiq.

Sport pasportida quyidagilar ko'rsatiladi:

sportchining familiyasi, ismi, otasining ismi;

jinsi;

tug'ilgan sanasi;

sportchining jismoniy tarbiya va sport tashkilotiga mansubligi; tanlangan sport turi yoki sport turlari va sport turining tarmoqlari;

sport unvonlari va sport razryadlari berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

sport unvonlari va sport razryadlarini berish uchun zarur normalar hamda talablar bajarilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sportchi tibbiy tekshiruvdan o'tganligi to'g'risidagi belgi;

sport musobaqalarida erishilgan natijalar;

sportchining sport diskvalifikatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar; davlat mukofotlari va boshqa shakldagi rag'batlantirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

trenerning familiyasi, ismi, otasining ismi;

tanlangan sport turi yoki sport turlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar.

Sport pasporti - yagona namunadagi hujjat bo'lib, sportchining jismoniy tarbiya va sport tashkilotiga mansubligini hamda uning sport malakasini tasdiqlaydi.

**O'ktam SHOKIROV,  
Buxoro tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi  
bo'lim boshlig'i**

## FIRMA NOMINI ZAHIRAGA OЛИSH - BIZNESINGIZNI HIMoya QILISHNING MUHIM QADAMI!

**Yangi biznes boshlashni rejalshtiryapsizmi. U holda birinchi va eng muhim qadamlardan biri kompaniyangiz nomini tanlash va uni huquqiy jihatdan himoya qilishdir. Endilikda firma nomini oldindan band qilish zaxirada saqlash imkoniyati mavjud. Bu esa biznesningizni o'ziga xosligini ta'minlash hamda kelajakda muammolarga duch kelmaslik uchun ajoyib yechimdir.**

Ariza beruvchilar davlat xizmatidan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki Tizimdagisi shaxsiy kabinetni orqali ro'yxatdan o'tadi.

Davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etilganda, so'rov-nomani ERI bilan tasdiqlash imkoniyati bo'Imagan hollarda tegishli imzolar identifikasiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

Davlat xizmati ko'rsatilanligi uchun bazaviy hisoblash miqdo-rining ellik foizi miqdorida yig'im undiriladi. Ariza beruvchi o'n kun muddatda to'lovni amalga oshirishi lozim.

Vakolatli organ ikki ish kuni davomida so'rovnomani ko'rib chiqadi hamda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha buyurtma qilingan firma nomini band qiladi yoki band qilishni rad etadi.

Ariza beruvchi tomonidan to'lov amalga oshirilgach, vakolatli organ tomonidan bir ish soati davomida buyurtma qilingan firma nomi band qilinganligi haqidagi xabarnoma davlat xizmatlari mar-kaziga (o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda) yoki ariza beruvchiga (elektron shaklda murojaat qilgan taqdirda) Tizim orqali elektron shaklda yuboriladi.

Davlat xizmatlari markazi xabarnoma kelib tushgandan so'ng 10 daqiqa mobaynida uni ariza beruvchining elektron manziliga yuboradi va ariza beruvchini bu haqda axborot-kommunikatsiya tizimi orqali xabardor qiladi. Ushbu xizmat tadbirkorlar uchun shaxsiy brendni mustahkamlash va boshalar uni qo'lga kiritishni oldini olishga va ishonch bilan biznes boshlash imkonini beradi.

**Marjona FOZILOVA,  
Buxoro tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi  
bo'lim boshlig'i**

# SAYYOHLAR XAVFSIZLIGI - ASOSIY MAQSADIMIZ

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi 939-soni qarori bilan Buxoro viloyat ichki ishlar organlari tizimida ham Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi tashkil etilib, ularning asosiy faoliyat yo'nalishi etib tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy sayyoohlар xavfsizligini ta'minlash belgilab qo'yildi.**

Buxoro viloyati IIB Xavfsiz turizmni taminlash boshqarmasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - turli davlatlardan va qo'shni viloyatlardan shahrimizga kelgan mehmonlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. Xodimlar chet el fuqarolari, tur operatorlar, tur agentlar, gideksursovodlar, yo'riqchi-yo'l ko'rsatuvchilar, joylashtirish vositalari rahbarlari va ishchi xodimlari, shuningdek, logistik yo'nalishda xizmat ko'rsatuvchi firmalarning ishchi xodimlari, transport vositalari haydovchilari, tarixiy qismda faoliyat yurituvchi hunarmandlar va tadbirkorlar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar, profilaktik suhbatlar o'tkazib kelishmoqda.

Boshqarma xodimlarga chet ellik sayyoohlар bilan suhbat jarayonida ularga shahrimiz tarixi, xalqimiz urf odari va analari, sayyoohlarning huquq va majburiyatlari to'g'risida ularga tushunarli tilda ma'lumot berib kelishmoqda, bunda ularga, rus, ingliz, yapon, koreys, fransuz, Ispan, Arab tillarini bilishlari qo'l kelmoqda.

Xodimlar tomonidan nafaqat delegatsiya balki mustaqil tur qatnashchisi sifatida shahrimizga tashrif buyurgan sayyoohlarning xavfsizligini ta'minlashda, ularga zarur bo'lgan har qanday masalada yordam ko'rsatilmoqda. Masalan, sayyoohning sog'ligi yomonlashsa unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda tez tibbiy yordam chaqirish, zarur bo'lsa shifoxonaga olib borish, unutib qoldirilgan shaxsiy narsa-buyumlarini topishda ko'maklashish yoki adashib qolgan sayyoohlarga yo'l ko'rsatib qo'yish kabilar. Shuning bilan birgalikda Buxoro shahrining tarixiy qismi bo'ylab Buxoro viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari mahalliy va xorijiy sayyoohlар xavfsizligini ta'minlashga tun-u kun jalg qilingan. Uchrashuvlar davomida noxush holatlar sodir bo'lganda zudlik bilan Buxoro viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi navbatchilik qismining (65) 220-41-80 telefon raqamiga tarixiy qismda o'rnatilgan "SOS POLICE" chaqiruv tugmasini bosgan holda murojaat etishlari ta'kidlanib kelinmoqda.

**M.NEMATOV,**  
Buxoro viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi jamoat xavfsizligi bo'limi  
jamoattartibini saqlash guruhi inspektori, kapitan.

## VAQTINCHALIK ISHLARDA BAND BO'LGAN SHAXSLAR MEHNATINI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Amaldagi Mehnat Kodeksining 495-moddasiga asosan, ikki oygacha bo'lgan muddatga ishga qabul qilingan shaxslar vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan shaxslar hisoblanadi va ishning vaqtinchalik xususiyati to'g'risidagi shartlar mehnat shartnomasida qayd etilib, vaqtinchalik xodimlarni ishga qabul qilish chog'ida dastlabki sinov belgilanmaydi.**

Jumladan, Mehnat Kodeksining 497-moddasiga ko'ra, ikki oygacha bo'lgan muddatga mehnat shartnomasi tuzgan xodimlar ushbu muddat doirasida dam olish kunlarida va ishlanmaydigan bayramlar kunlarida o'z yozma roziligiga ko'ra ishga jalg qilinishi mumkin hamda dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayramlar kunlaridagi ish kamida ikki hissa miqdorida pul shaklida kompensatsiya qilinadi. Shuningdek, vaqtinchalik xodimlar ishning har bir oyi uchun kamida ikki kalendar kun hisobidan haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega hisoblanib, vaqtinchalik xodimlarga mehnat ta'tillari beriladi yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda ularning xohishiga ko'ra ishning har bir oyi uchun ikki ish kuni hisobidan kompensatsiya to'lanadi.

Mehnat Kodeksining 499-moddasida vaqtinchalik xodim ish beruvchini uch kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirib, mehnat shartnomasini o'z tashabbusiga ko'ra bekor qilishga haqli ekanligi belgilangan. Bundan tashqari ish beruvchi tashkilotning (uning alohida bo'linmasining) tugatilishi, xodimlar sonining yoki shtatinning o'zgarishi munosabati bilan yoki xodimning malakasi yetarli bo'il-maganligi sababli bajarayotgan ishiga nomuvofiqligi munosabati bilan mehnat shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish to'g'risida vaqtinchalik xodimni kamida uch kalendar kun oldin yozma shaklda, imzo qo'ydirib ogohlantirishi shart.

Vaqtinchalik xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi vaqtinchalik xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq asoslarga ko'ra bekor qilingan taqdirda, vaqtinchalik xodim o'zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishidan kamida bir kun oldin yozma shaklda ogohlantiriladi.

Agar jamoa shartnomasida yoki mehnat shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, vaqtinchalik xodimiga mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanmaydi.

**D.UMAROV,**  
Buxoro shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi

## YAGONA YETKAZIB BERUVCHILAR REYESTRIGA KIRITISH BO'YICHA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH TARTIBI BELGILANDI

**Hukumat qarori bilan yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibi belgilandi. 1-apreldan yuridik va jismoniy shaxslarni reyestriga kiritish uchun arizalar Davlat xizmatlari markazi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi.**

19 fevral 2025, 18:57 Jamiyat Vazirlar Mahkamasining 18-fevral kungi qarori bilan "Davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti" tasdiqlandi. Ma'muriy reglamenti davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibini belgilaydi. 2025-yil 1-apreldan yuridik va jismoniy shaxslarni Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish uchun arizalar Davlat xizmatlari markazi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali qabul qilinadi.

Arizalar YAIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 soat davomida yuborilishi mumkin. Davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun to'lov undirilmaydi.

Vakolatli organ ariza tushgan kundan boshlab 15 ish kunida Reyestriga yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi arizani ko'rib chiqadi.

**I.ROZIQOV,**  
Romitan tuman adliya bo'limi DXM bo'lum boshlig'i



## LITSENZIYA OLISH SODDALASHTIRILDI

**Qishloq xo'jaligi sohasi doimiy rivojlanib borayotgan muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Uning samaradorligini oshirish uchun mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalarida foydalananish muhim. Shu bois, ushu mahsulotlarning ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanishni rejalashtirayotgan tadbirkorlar uchun muhim yangilik e'lon qilindi.**

Endilikda, mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalarini sotish uchun litsenziya olish jarayoni yanada soddalashtirildi.

Tadbirkorlar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal (my.gov.uz) yoki "Litsenziya axborot tizimi" orqali onlayn murojat yuborishlari mumkin.

Ruxsatnomada Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan beriladi.

Talabgor yoki uning nomidan ish yuritish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar elektron raqamli imzosidan (keyingi o'rnlarda — ERI) foydalangan holda (talabgor — jismoniy shaxslar uchun ERI o'rniga Mobil-ID tizimidan ham foydalananish mumkin) ruxsatnomani olish uchun "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi orqali ariza yuboradi.

Arizani ko'rib chiqish uchun talabgordan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Arizaga kiritilgan ma'lumotlar AAT orqali idoralararo hamkorlik tizimlarida mavjud ma'lumotlar asosida dastlab avtomatik ravishda taqqoslanadi va tekshiriladi.

Ariza quyidagi hollarda avtomatik ravishda qabul qilinmaydi:

noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar kiritilganligi AAT orqali aniqlanganda;

yig'im to'lanmaganda;

ruxsatnomada berishga oid talab va shartlarga rioxva etilishi tasdiqlanmaganda;

Mineral o'g'itlarni va o'simliklarni himoya qilish uchun foydalilaniladigan kimyoviy vositalarning ulgurji hamda chakana savdosi uchun litsenziya mavjud bo'lmaganda;

ruxsatnomalar reyestrida talabgorning ayni bir xil faoliyat bo'yicha kiritilgan va amalda bo'lgan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjati mavjud bo'lgan taqdirda;

talabgorning ayni bir xil faoliyatni yoki harakatni amalga oshirishi muayyan muddatga to'xtatilganda;

talabgor tomonidan ruxsatnomada bo'yicha tanlangan faoliyatni amalga oshirish va/yoki harakat sudning qaroriga asosan muayyan muddatga taqiqlanganda.

Mazkur bandda ko'rsatilganlardan tashqari boshqa asoslar bilan arizani qabul qilmaslikka yo'l qo'yilmaydi.

Ruxsatnomada o'n ikki oy muddatga taqdim qilinadi, agar talabgor tomonidan o'n ikki oy muddatda mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar olib kirilmagan taqdirda, ruxsatnomaning amal qilish muddati to'xtatiladi va yangi ruxsatnomada olish uchun qayta ariza beriladi.

**Shaxnoza ABDULLAYEVA,  
Buxoro tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisini**

## Ayrim turdag'i davlat xizmatlarini ko'rsatish soddalashtirildi

O'zbekistonda ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish soddalashtirildi. Xususan, ERI kalitini berishda Face-ID qilinadi va kalit avtomatik tarzda rasmiylashtirib beriladi. Shuningdek, bolalarни bog'chaga qabul qilish uchun rasmiylashtirilgan yo'llanmalarni maxsus axborot tizimi orqali yuborish tartibi joriy etildi.

Vazirlar Mahkamasining "Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimi soddalashtirilganligi, byurokratik to'siqlar qisqartirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 3-iyulagi qaroriga asosan ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish soddalashtirildi.

Xususan, elektron raqamli imzo kalitini berishda jismoniy shaxslar biometrik (Face-ID) identifikatsiya qilinadi va elektron raqamli imzo kaliti avtomatik tarzda rasmiylashtirib beriladi. Qurilishi tugallanmagan obyektga birlamchi kadastr pasportini shakllantirishda vafot etgan shaxsnинг yaqin qarindoshlariga uning nomidan murojaat qilish tartiblari belgilandi.

M.IDIYEV,  
Romitan tuman adliya bo'limi DXM bosh mutaxassisi

*Davlat xizmatini ko'rsatish muddati kechiksa - to'loving 50 foizi qaytariladi 1-noyabrdan Davlat xizmatlari markazlari, "Litsenziya" axborot tizimi hamda YAIDXP orqali ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari belgilangan muddatidan 3 ish kunidan ortiq vaqtga kechiktirilganda, xizmat uchun to'langan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarining 50 foizi 1 ish kunida qaytariladi*

Avvalroq, Davlat xizmatlari ko'rsatish infratužilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish choratdbirlari to'g'risidagi prezident farmoni qabul qilingani haqida yozgan edik.

Ushbu hujjatga muvofiq, 2021 yil 1 noyabrdan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari markazlari va (yoki) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (YAIDXP) orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishda davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlar bo'yicha 50 foiz miqdorida chegirma qo'llaniladi. Tadbirkorlik faoliyati maqsadlarida yoki yuridik shaxslar vakili sifatida murojaat qilingan holatlar bundan mustasno.

Qolaversa, 1 noyabrdan Davlat xizmatlari markazlari, "Litsenziya" axborot tizimi hamda YAIDXP orqali ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari belgilangan muddatidan 3 ish kunidan ortiq vaqtga kechiktirilganda, ariza beruvchilarning murojaatlariga asosan, xizmatdan foydalanish uchun to'langan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarining 50 foizi ularga 1 ish kunida qaytariladi. Bunda ariza beruvchiga tegishli davlat xizmati bepul ko'rsatiladi.

Shuningdek, 1 dekabrdan xorij mamlakatlarida doimiy istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolariga davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ular davlat boji va boshqa to'lovlarini chet el valyutasida xalqaro to'lov tizimlari orqali to'laydi. Bundan tashqari, 2022 yil boshidan aholi va tadbirkorlardan 15 turdag'i hujjat va ma'lumotlarni so'rash tartibi bekor qilinadi. Yana ayrim davlat xizmatlarini (8 ta) ko'rsatishda undiriladigan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa to'lovlar miqdorlari kamaytiriladi.

Z.YANGIYEVA,  
Romitan tuman adliya bo'limi DXM yetakchi mutaxassisi

## Er-xotingga yarashish uchun berilgan muhlat nima?

Oila kodeksining 40-moddasiga ko'ra Oxirgi paytlarda nikohdan ajralish ishlarini ko'rishda sud o'z faoliyatini er-xotinni yarashtirishga va oilaviy nizolarga sabab bo'luchchi vaziyatlarni chugur o'rganib, uni bartaraf etish choralarini ko'rishga qaratmoqda. Bu jarayonda oilani saqlab qolish, uning bardavomligini ta'minlashga barcha - davlat va jamiyat tashkilotlari, ularning mansabdar shaxslari, shuningdek, mahalla-ko'y, mehnat jamoalari ham mas'ul ekani ko'rinishi.

Qonunchilikka ko'ra, sud ishning ko'riliшини keyinga qoldirib, er-xotingga yarashishi uchun olti oyga muhlat tayinlashga, ajrim chiqarishga haqli.

Sud yarashtirish uchun berilgan muddatni, er-xotinni yarashtirish maqsadida, zarur hollarda, ajrim nusxalarini ular yashaydigan joydagi xotin-qizlar qo'mitalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi - mahalla fuqarolar yig'iniga muhokama qilish va yarashtirish uchun yuborishi mumkin.

Bunda ishni ko'rish boshqa vaqtga qoldirilayotgan muhlat er-xotining o'zaro munosabatlarini va ularning yashab ketish imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

Bahriiddin BOLTAYEV,  
Romitan tuman FHDY organi 1-toifali inspektori

*Davlat xizmatlarini joylarga chiqqan holda ko'rsatish tartibi belgilandi*

Hukumat qarori bilan davlat xizmatlarini joylarga chiqqan holda ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi.

Reglamentga ko'ra, davlat xizmatlari Adliya vazirligining Aloqa markaziga (Call-markaz) yoki uning rasmiy veb-saytiga murojaat qilish orqali ko'rsatiladi. Call-markaz orqali so'rovnomalari soat 09:00 dan 18:00 gacha ish vaqt davomida qabul qilinadi. Rasmiy veb-sayt orqali sutkaning istalgan vaqtida murojaat qilinishi mumkin.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish vaqt Davlat xizmatlari markazlari (vakolatli organ)ning ish vaqt doirasida belgilanadi.

Call-markaz mas'ul xodimi ariza beruvchi nomidan so'rovnomani to'ldiradi va so'rovnomadagi ma'lumotlar tasdiqlangandan so'ng ariza beruvchiga to'lov invoysini yuboradi. So'ng mas'ul xodim ariza beruvchi bilan telefon orqali bog'lanib, so'rovnomada ko'rsatilgan joyga chiqadi hamda maxsus texnik qurilmalar yordamida (planshet yoki kompyuterga o'matilgan daktiloskopiyasi, printer va boshqalar) davlat xizmatini ko'rsatadi yoki davlat xizmatlaridan foydalanish uchun ariza yuboradi (so'rovnomada belgilangan mudatlarda).

Davlat xizmatlarini joyiga chiqqan holda ko'rsatish yoki davlat xizmatlaridan foydalanishga ariza yuborish uchun Toshkent shahrida BHMning 50 foizi, viloyat markazlarida BHMning 40 foizi, tuman (shahar)-larda BHMning 30 foizi miqdorida bir marjalik to'lov undiriladi. O'zgalar yordamiga muhtoj qariyalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil harakatlanish imkoniyati cheklangan hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatilganligi uchun to'lov undirilmaydi.

A.NAMOZOV,  
Romitan tuman adliya bo'limi  
DXM direktori

## MEROS ISHI OCHILDI

*Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Sa'diy She'roziy MFY, Fayziobod ko'chasi, 23-uyda yashab, 2002-yil 12-noyabrdan vafot etgan Pulatov Bolta Rustamovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro shahridagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.*



## (YECHISH VA ULAŞ BILAN BIRGA)

**Talabgor YalDXPda ro'yxatdan o'tgan holda, arizani to'ldiradi va yig'imni to'laydi.**

Suv ta'minoti korxonasi 5 ish kun mobaynida talabgor bilan kelishilgan vaqtida, uning ishtirokida tegishli dalolatnomma tuzgan holda hisobga olish uskunasini echib olishi kerak.

"O'zstandart" agentligi 3 ish kun mobaynida hisobga olish uskunasini suv ta'minoti korxonasidan qabul qilib, qiyoslashdan o'tkazadi.

Suv ta'minoti korxonasi 2 ish kun mobaynida sertifikat yoki xabarnoma kelib tushganidan so'ng hisobga olish uskunasini metrologiya xizmatidan olib ketishi kerak.

Suv ta'minoti korxonasi 3 ish kun mobaynida talabgor bilan kelishilgan vaqtida so'rovnomada ko'rsatilgan manzilga borib, hisobga olish uskunasini o'rnatib berish va uch nusxada tegishli dalolatnomma tuzgan holda tamg'alashi, dalolatnomaning bir nusxasini talabgorda qoldirishi kerak.

Ushbu xizmatni ko'rsatish muddati 14 ish kuni mobaynida ko'rsatiladi. Shuningdek, xizmat narxi Jismoniy shaxslar uchun BHMning 20% va yuridik shaxslar uchun BHMning 1,5 baravari deb belgilangan.

**Kamola AHADOVA,  
Romitan tuman adliya bo`limi DXM  
bosh mutaxassisini**

**KADASTR  
PASPORTINI  
SHAKLLANTIRISH  
QANDAY AMALGA  
OSHIRILADI?****Ko'chmas mulk ob'ektini kadastr hisobiga olish va kadastr yig'majildini shakllantirish natijasida ko'chmas mulk ob'ekti bo'yicha elektron shaklda kadastr pasporti rasmiylashtiriladi.**

Xizmat ko'rsatish natijasida kadastr pasportini rasmiylashtirish va berish amalga oshiriladi.

Xizmatni ko'rsatish uchun kerak bo'ladiqan hujjatlar quyidagilar:

Ariza beruvchi kadastr pasportini olish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida, davlat xizmatidan elektron tarzda arizani yuboradi. So'rovnomaga ko'chmas mulkka bo'lgan huqlarni tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Ko'chmas mulk egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ushbu xizmatdan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Quyidagilar kadastr pasporti berishni rad etish uchun asos bo'ladi:

1. So'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilishi;
2. Ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lgan huqlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi;
3. Ariza beruvchi yoki uning vakili kelishilgan manzilda bo'Imagan taqdirda;
4. Vakolatli organ tomonidan kadastr pasportini rasmiylashtirish bo'yicha ko'chmas mulk ob'ektiga taqiq yoki xatlov qo'yilganligi.

**Axrор BAFOYEV,  
Romitan tuman adliya bo`limi DXM  
katta mutaxassisini**

**XAVFSIZ SAYYOHLIK  
MUHITINI TA'MINLASH BORASIDA**

**So'nggi yillardagi turizm sohasi iqtisodiyotimizga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biriga aylangani hech kimga sir emas. Xususan, ko'hna va boqiy Buxoro bu sohada yetakchi qatorlarda e'tirof qilinadi. Bu esa viloyatga tashrif buyurayotgan xorijiy hamda mahalliy sayyoohlolar uchun qulay imkoniyatlar hamda xavfsiz sayyoqlik muhitini ta'minlanganligining yaqqol namunasidir. Bevosita turistik namoyishi ob'ektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ichki ishlarni xizmati muhim ahamiyat kasb etadi.**

Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi Jamoat xavfsizligi bo'limi xodimlari tomonidan joriy yilning 2 oyi davomida ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan ja'mi 930 nafar fuqaroga nisbatan ma'muriy chora ko'rigan, bundan tashqari tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan qidiruvdag'i shaxslar bilan bog'liq 2 ta holat hamda Buxoro viloyati IIB xodimlari bilan hamkorlikda olib borilgan tadbirlar davomida 1 ta jinoyat aniqlangan. Tashrif obyektlarida sayyoohlarga qo'shimcha qulaylik hamda imkoniyatlar yaratish maqsadida xodimlar tomonidan hamkor korxona, tashkilot hamda muassasalarga 9 ta taqdimnomma hamda 14 ta takliflar kiritilgan. Boshqarma xodimlari tomonidan axborot almashinuvini ta'minlash maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalilanilgan holda jami 31 marotaba ommaviy axborot vositalariga chiqishlar qilingan.

Tashrif buyurgan sayyoohlarning mammun kayfiyati, yuzaga kelgan muammolarda boshqarma xodimlarining tezkorlik bilan olib borgan sa'y-harakatlari bevosita viloyatning turizm salohiyatida xavfsizlik imkoniyatlari na qadar mustahkam yo'lga qo'yilganligining isboti bo'lib xizmat qiladi.

**B. AMONOV,  
Buxoro viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlashboshqarmasi jamoat xavfsizligi bo'limi  
jamoat Huquqbazarliklar profilaktikasi guruhi inspektori, kapitan**

**XORIJGA CHIQISH  
PASPORTINI RASMIYLASHTIRISHGA  
ARIZA BERISH****O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4079-soni  
garoriga asosan**

1. Arizachi davlat xizmatini elektron tarzda olish uchun YalDXPda ro'yxatdan o'tiladi.
2. So'rovnomani to'ldirib vakolatli organga yuboriladi
3. Arizachi belgilangan muddatda ma'lumotlar yig'ish punktiga qo'l barmoq izlarini topshirish va su'ratga tushish uchun shaxsan tashrif buyuradi
4. Xorijga chiqish biometrik pasportini olish bo'yicha fuqarolik pasporti yoki unga tenglashtirilgan hujjatni belgilangan kun va vaqtida vakolatli organga shaxsan kelib taqdim etish

**Xizmatni ko'rsatish uchun quyidagi hujjatlar asos bo'ladi:**

- "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti
- "Fuqaroligi bo'Imagan shaxs uchun O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi
- "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining ID kartasi
- "Fuqaroligi bo'Imagan shaxsning O'zbekiston Respublikasida yashash ID kartasi

**Ushbu xizmatni ko'rsatish muddati** 10 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

**Xizmat narxi:** Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi xizmatlar chun "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

**Nodirjon ISTAMOV,  
Romitan tuman adliya bo`limi DXM bo`lim boshlig'i**

**NIKOH TUZILGANDA  
FAMILIYANI TANLASH MASALASI****Nikoh tuzilganligini qayd  
etishda nikohlanuvchi shaxslar o'z  
xohishlariga ko'ra ikkalasidan  
birining familiyasini umumiy  
familiya sifatida tanlashlari yoki  
o'zlarining nikohgacha bo'lgan  
familiyalarida qolishlari mumkin.**

Nikohlanuvchilar familiyalarining qo'shilishi orqali hosil bo'lgan familiya (masalan, kuyov Axmedov kelin Shuxratova, shunda kuyov Axmedov-Shuxratov kelin Axmedova-Shuxratova bo'ladi) umumiy familiya sifatida tanlanishi mumkin.

Nikohlanuvchilardan biri er yoki xotining familiyasini qabul qilsa, u holda pasportini 1 oy ichida almashtirishi zarurligi to'g'risida ogohlantiriladi va pasportga bu haqda belgi qo'yiladi.

Harbiy xizmatga majbur bo'lgan yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchining nikohi qayd etilganligi sababli familiyasi o'zgartirilganda FHDYo organi 7 kun mobaynida bu haqda harbiy xizmatga majbur bo'lgan yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchi ro'yxatda turgan tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qiladi.



**Husniddin BAFOYEV,  
Romitan tuman FHDY organi  
2-toifali inspektori**



**Joriy yilning 13 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1030-sonli Qonuni imzolandi. Ushbu qonun bilan Mehnat kodeksi(bundan keyingi o'rinalarda MK deb yuritiladi)ga 49 ta o'zgartirish va qo'shimcha kiritildi.**

Aksariyat o'zgartirishlar texnik o'zgartirish bo'lib oldingi tahrirda "Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi" so'zları "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi" so'zlariga almashtirildi. Asosiy o'zgartirishlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, MK 11-moddasiga Davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatga oid munosabatlari nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunchilikning amal qilishi «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinmagan qismi bo'yicha tatbiq etiladi, - deb o'zgartirish va qo'shimcha kiritildi. MK 106-moddasiga "Mehnat shartnomasi bir xil kuchga ega bo'lgan kamida ikki nusxada yozma (qog'ozda yoki elektron) shaklda tuzilib, ularning har biri taraflar tomonidan imzolanadi", - deb o'zgartirilib taraflar tomonidan elektron mehnat shartnomasini tuzish ham mumkinligi belgilandi. MK 124-moddasida ishga qabul qilish chog'ida talab qilinadigan hujjatlar soni bittaga kamaytirilib, STIR ma'lumotnomasini so'rash bekor qilindi va bu to'g'risidagi ma'lumotni ish beruvchi tegishli davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda, shu jumladan axborot tizimlaridagi idoralararo integratsiyalashuv platformalari orqali so'rab olishi belgilandi.

Yana shuni ham aytish kerakki, MK 233-moddasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritilib, har yilgi mehnat ta'tili vaqt uchun haq to'lashda yakshanba kuni inobatga olinmasligi belgilandi. Ushbu o'zgartirish kiritish uchun ham oldin qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda asosa bor edi. Masalan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili davomiyligi me'yorlarini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 263-son qarorining izoh qismida "Ushbu me'yorlarda keltirilgan xodimlarga yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili uchun haq to'lashda yakshanba va bayram kunlari inobatga olinmaydi", - deb belgilab qo'yilgan

edi. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qaroriga 5-ilova "Alovida hollar uchun xodimlarning o'rtacha ish haqini hisoblab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida nizom"ning 8-bandiga asosan "Xodimga har yilgi mehnat ta'tili uchun haq to'lash va foydalanmagan ta'til uchun pulli kompensatsiya to'lash uchun (shu jumladan, ish vaqtini jamlab hisobga olinganda) o'rtacha ish haqi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 257-moddasi o'ninchisi qismiga muvofiq hisoblangan o'rtacha kunlik ish haqini ta'til kunlari, shu jumladan, foydalanmagan ta'til kunlari soniga (yakshanba va bayram kunlaridan tashqari) ko'paytirish orqali belgilanadi. Boshqa hollarda o'rtacha ish haqi o'rtacha kunlik ish haqini ish kunlari soniga ko'paytirish orqali belgilanadi," - deb belgilanganligi ham yakshanba kunlari ta'til uchun haq to'lashda hisobga olinmasligini tushunish mumkin edi.


Endi esa bu norma MKda ham o'z aksini topdi. Bu esa fuqarolarning mehnat sohasidagi qonuniy huquqlarning ro'yobga chiqishini anglatadi. Ko'pchilik MKning 233-moddasidagi yuqorida o'zgartirish va qo'shimchani noto'g'ri tushunib ta'til kunlarni hisoblashda yakshanba kuni hisobga olinmaydi deb talqin qilishmoqda. Bu noto'g'ri tushuncha bo'lib, qonunning o'zida aniq qilib "Har yilgi mehnat ta'tili vaqt uchun haq to'lashda yakshanba kuni inobatga olinmaydi," - deb yozib qo'yilgan. Shunga asosan har yilgi mehnat ta'tili kunlarni hisoblashda yakshanba kuni ham qo'shib hisoblanadi. Faqat haq to'lashda inobatga olinmaydi.

Yana asosiy o'zgartirish va qo'shimchalardan biri MK 241-moddasining ikkinchi qismiga kiritilib "Xodimning yozma arizasiga ko'ra unga ish haqi saqlanmaydigan ta'til berilishi mumkin bo'lib, uning davomiyligi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra belgilanadi, lekin u o'n ikki oylik darr mobaynida jami uch oydan ortiq bo'imasligi kerak," - deb to'ldirildi. Bunda nimani tushunish mumkin? Avvalgi tahrirda "Xodimning yozma arizasiga ko'ra unga ish haqi saqlanmaydigan ta'til berilishi mumkin bo'lib, uning davomiyligi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra belgilanadi, lekin u ish haqi saqlanmaydigan oxirgi ta'til berilgan kundan e'tiboran kalender yil davomida uzlusiz yoki jamlangan holda uch oydan oshmasligi kerak," - deb ko'satilgan edi. Ya'ni xodim ish haqi saqlanmagan ta'tilni kalender yili davomida jami uch oygacha olish mumkin degan tushuncha paydo bo'lar edi. Ko'plab xodimlar ish yili davomida olti oygacha ish haqi saqlanmagan ta'til olib mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir qilib kelayotgan edi. Endi esa xodim oxirgi olgan uch oylik ish haqi saqlanmagan ta'tilni navbatdagi ish haqi saqlanmagan ta'til olishi uchun o'n ikki oylik darr o'tgan bo'lishi talab etilmoqda. MKga yana kiritilgan asosiy yangiliklardan biri MK 392-moddasiga yangi tahrirda "Homiladorligi yoki farzandlari borligi sababli ishga qabul qilishni rad etishni, ishdan bo'shatishni yoki ish haqini kamaytirishni taqiqlash to'g'risida" o'zgartirish va qo'shimcha kiritildi. Ya'ni homilador yoki farzandlari bor ayolni ishdan bo'shatishni ta'qilganmoqda.

Oldingi tahrirda esa "Homiladorligi yoki farzandlari borligi sababli ishga qabul qilishni rad etishni yoki ish haqi miqdorini kamaytirishni taqiqlash," - deb belgilangan edi va Mehnat kodeksida bunday norma o'z ifodasini topmagandi. Lekin ushbu ta'qiq MKga kiritilishidan oldin Asosiy Qonunimiz Konstitutsianing 42-moddasiga uchinchi qismida "Homiladorligi yoki bolasiborligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi," - deb belgilangan edi. MKga kiritilishi esa Konstitutsiya normasining ishlashini ta'minlash, ayollar huquqlarini amalda yanada ro'yobga chiqishida imkon yaratadi.

**Ilhomjon SAIDOV,**  
**Buxoro tuman adliya bo'limi**  
**yuridik xizmat ko'rsatish markazi**  
**Bosh yuriskonsulti, 2-darajali yurist**

## NAQSHBANDIYA TARIQATI IZDOSHLARI



**Buxoro o'zining qadimiy va serjilo jozibasi bilan hamisha dunyo xalqlari uchun qiziqish uyg'otib kelgan. Bu esa o'z navbatida sayyohlarning eng gavjum maskaniga aylanishiga turki bo'lmoxda.**

Yaqinda Indoneziya va Malayziya davlatlari bilan birgalikda Singapur, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Turkiya, Hindiston, Eronдан "Naqshbandiya tariqati izdoshlari" ziyorat turizmi yo'nalishida keladigan mehmonlarga ham Buxoro mezbonlik qildi. Tashrif davomida Buxoro viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan delegatsiya a'zolarining viloyatning diqqatga sazovor hududlari bo'yab sayohati davomida xavfsizligi to'liq ta'minlandi. Viloyatda xavfsizlik choralarining to'liq ta'minlanganligi, xavfsiz sayyoqlik muhitini ta'minlashda xodimlarning ko'rsatayotgan ish natijalari o'z o'zidan Buxoroning qolaversa, mamlakatimizning turizm imidiiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

**A.TURSUNPULATOVA,**

**Buxoro viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi jamoat xavfsizligi bolimi jamoat tartibini saqlash guruhi inspektori, katta leytenant**

**"Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalar faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-41-son, 04.03.2025 y.) qabul qilindi.**

## MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGI OSHIRILADI

Farmonga ko'ra, 2025 yilda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

- maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish, eksport hajmini 1 milliard AQSH dollariga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard AQSH dollariga teng miqdorda ta'minlash va 12 mingta yangi doimiy ish o'rinnarini yaratish;

- sanoat zonalarda 800 million AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish, eksport hajmini 512,2 million AQSH dollariga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 1,8 milliard AQSH dollariga teng miqdorda ta'minlash va 17 mingta yangi doimiy ish o'rinnarini yaratish.

Yangi barpo etiladigan ixtisoslashirilgan zonalar faqat maxsus iqtisodiy zona yoki sanoat zonasini shaklida tashkil etiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati bo'yicha faqat eksportga yo'naltirilgan loyihalarga ixtisoslashgan, maydoni o'ralgan maxsus eksport zonasini turida ham tashkil etilishi mumkin.

Maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat ko'rsatish muddatiga oid chekllovlar bekor qilinadi.

**Oliya BAZAROVA,**  
**Kogon shahar Davlat xizmatlari markazi bo'limg' boshlig'i**

## CHET TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

*Ta'lif jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi.*

Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqorida. Ta'lif jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lif jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lif texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innovatsion ta'lif texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lif jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

Agar sizda uzoq vaqtan beri ingliz tilini o'rganishim kerak, degan fikr bo'lsa, telefoningiz allaqachon har xil ilova va lug'atlar bilan to'lgandir.

Soddarooq qilib aytadigan bo'lsak, odamlar "texnik" va "gumanitar"ga bo'lindi. Birinchi toifaga tartibga solingan struktura kerak. Ular ma'lumotni jadval, sxema, diagrammalarga chiroyli qilib joylashtirilganida va vazifa aniq shakllantirilganidagina qabul qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ular hamma narsani ma'lum narsaga ajratadi va buning formulasini izlaydi. Agar ularning arsenalida hali bunday formula mavjud bo'lmasa, tushunmovchilik paydo bo'ladi.

Ikkinchi toifa esa ma'lumotni mavhumroq qabul qiladi va aksincha, turli xil bo'laklarni birlashtirishga intiladi, ularga jadval va formulalar emas, balki tasvirlar, uyushmalar va ranglar bilan ishlash yoqadi. Avvalo, qaysi toifaga kiri-shingizni o'ylab ko'ring? Agar yuqorida tavsiflardan gumanitar ekaningizni bilib olgan bo'lsangiz, formulalar bilan kurashishni va kuniga 100 ta so'zni yodlashga urinishni to'xtating. Sizga jonli tasvir kerak: filmldan o'rganish samarali bo'lib, unda jonli ko'rgazmali qurollar, kartochkalar, stol o'yinlari yordamida o'zingiz tushunadigan diagrammalarni chizishingiz mumkin.

## XORIJY TILNI O'RGANISHDA NIMALARGA E'TIBOR BERISH KERAK?

### Ma'lumotlarni esda saqlash usuli

Bizning eslab qolish qobiliyatimiz vizual, audial, kinestetikaga bo'linadi. Ammo ko'pchilik idrokning aralash turiga ega, shu bilan birga, o'rganish holatlarda ko'pincha bitta tur ustunlik qiladi. Ba'zilar audial kinestetik bo'lishi mumkin, ba'zilar esa vizual.

Siz qanday yo'l bilan eslab qolasiz? Agar vizual qobiliyat ustunlik qilsa, inglizcha podkastlar bilan o'zingizni qiyamang, ulardan tinglash qobiliyattingizni mashq qildirish uchun foydalaning, lekin ma'lumotlarni yodlash uchun emas. Esda qolarli rasmlardan foydalaning, yoqimli va tushunarli tarzda yozilgan qiziqarli iqtiboslarni to'plang. Agar podkast tinglasangiz yoki film tomosha qilsangiz, albatta, subtitrlari bo'lsin. Agar kinestetik bo'lsangiz, uzoq vaqt o'qish yoki tinglashga e'tiboringizni qarata olmasangiz, muhitni tez-tez o'zgartiring va yo'lda, kafeda ingliz tiliga vaqt topishga imkon beradigan mobil ilovalarni yuklab oling. Manzaralarning o'zgarishi va yangi hidlar, tovushlar o'rganishning qiziga yordam beradi, assotsiatsiyalar va hislar darajasida xotirada saqlanadi.

### Sayohat paytida muloqot qilish uchun

Tegishli mavzulardagi podkastlarni tanlang va ko'proq tashrif buyurmoqchi bo'lgan mamlakatingiz haqida tinglang, ovoz chiqarib takrorlang, ohangiga va tilining musiqasiga taqlid qiling. Bunday holatda podkastlarga e'tibor berish lozim, chunki sayohat paytida sizga yozish va o'qish kerak emas, lekin tinglash va gaplashish juda muhim. Bundan tashqari, tushunishingiz uchun to'g'ri eshitishingiz va to'g'ri javob berishingiz kerak. Tushunmovchilikning sababi ko'pincha yomon grammatika bilan gaplashayotganimiz yoki ko'p so'zlarni bilmaslimizda emas, balki ona tilimizning ritmi va intonatsiyasi bilan ingliz tilida gaplashishimizdir. Agar maqsadingiz ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatga borish bo'lsa, intonatsiya ustida ishlang va ingliz tili ritmini his qilishni o'rganing.

### Ingliz tili tashuvchisi bilan darslar

Kunduzgi mashg'ulot yoki onlayn darslar formatini tanlaysizmi, eng muhim, o'qituvchingiz professional bo'lsa bo'lgani. Afsuski, ko'pincha darslar o'qituvchi monologiga aylanib qoladi, darslarda siz passiv tinglovchisiz yoki allaqachon bilgan darajangizda muloqot qilasiz va hech qanday tarzda rivojlanmaysiz. Chet til sifatida ingliz tilini o'rgatish uchun CELTA yoki DELTA sertifikatiga ega bo'lgan mahalliy ma'ruzachilarni, eng muhim, sizga yoqadigan odamni tanlang.

**Gulruk IMAMOVA,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi**



## CHET TILINI TEZ O'RGANISHNING 5 TA ODDIY USULI

*Chet tilini o'rganishda sabrsizlik qilmaydigan odam kamdan-kam topiladi. Kuf-suf desangu tilni o'rganib qo'ya qolsang. Lekin bu u qadar oson ish emas, shu bilan birga, tasavvurdagiday qiyin ish ham emas.*

Istalgan xorijiy tilni o'rganishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim jihat bu qobiliyat va istakdir. Qobiliyat masalasida qo'rqmasangiz bo'ladi, chunki u har bir odamda bor. 2006-yili amerikalik olim Richard Sparks o'z tadqiqotlari bilan til o'rganish uchun allaqanday olamshumul tug`ma iste`dodlar kerak degan fikr asossiz ekanini isbotladi. Endi istakka kelsak. "Istak minglab imko-niyatdir, xohlamaslik esa minglab bahonadir" degan hikmatli gap juda topib aytigan. Bir narsani aniqlab oling: siz tilni o'rganishni istaysizmi yoki yo'q? Agar xohishingiz jiddiy bo'lsa, quydagi maslahat-yo'riqlar sizga albatta yordam beradi:

**1. So'zlashgichlardan foydalaning.** Juda ko'p tilchi olimlar fikricha, tilni so'zlashgichlar yordamida o'rganish alohida so'z va iboralarini, gap qurilishini yodda saqlab qolishga katta turki beradi. Tilni birinchi shaxs tilidan aytildigan tayyor jumlalar orgali o'rganayotgan odam gaplarni shunchaki takrorlamaydi, o'zini ma'lum holat-vaziyatlarda his etadi. Masalan, do'konda savdo qilish uchun kerak bo'ladi gap-iboralarini o'rganish asnosida kishi xuddi oldi-sotdi qilayotganday sezadi o'zini. Rossiyada ingliz tilini chuqurlashtirib o'rgatishga ixtisoslashgan maktabda tadqiqot o'tkazildi. O'quvchilar matnning birinchi shaxs tilidan aytildigan qismini to'qson sakkiz foizga esda saqlab qoldi. Bu tilni so'zlashgichlar yordamida o'rganish katta samara berishini ko'rsatadi.

**2. Qoida bo'yicha ishlang.** Mutaxassislar yangi so'zlarni o'zlash-tirishning juda unumli usulini topdi. Kuniga 30 ta so'z yodlaysiz, ularning 5 tasi fe'l bo'lishi kerak. Har kuni lug'atdagi so'zlardan alifbo bo'yicha saralab olsiz. Masalan, bugun "A" harfidagi dastlabki o'ttiza so'z tanlansa, ertaga "B" harfidagi o'ttiza so'z tanlandi. Alifbo bo'yicha to'liq aylanib chiqilgach, yana "A" harfining keyingi o'ttiza so'zi yodlanadi. Bu odat asta-sekin tizim bo'lib shakllanadi va yodlashingiz borgan sari osonlashadi. Ushbu usul foyda berishi uchun har kuni so'z yodlang, dam olish kuni umuman bo'imasligi kerak!

**3. She'r va qo'shiqlarni o'rganing.** Eng yoqimli va samarali usullardan biri xorijiy she'r, qo'shiqlarni ularning tarjimalari bilan birga o'rganishdir. Bu usuldan foydalanib ingliz tilini uch oy ichida o'rganib olganlar juda ko'p topiladi. Tilshunoslar bu yo'l she'r va qo'shiqlarni o'rganuvchining o'zi o'girganda ayniqsa unumli bo'lishini aytadi.

**4. Mazmunni anglang.** Xorijiy tillarni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqot olib boruvchi ruhshunoslar juda ko'p odamlar yo'l qo'yadigan bitta xatoga e'tibor qaradti: o'rganuvchilar ko'pincha suxandonning gapi yoki diktofonidagi suhbatni to'liq tushunib yetish payida bo'ladi. Aslida har bir tovushni ilg'ashga emas, umumiyo mazmunni fahmlashga intilish kerak. Tilning ohangini, ko'p qaytariladigan so'zlar va gap qurilishini o'rganishga harakat qiling. Mayda tafsilotlarga e'tibor qaratmang.

**5. Vaziyatni his qiling.** Tilni o'rganishga kirishgan ilk kunlaringizdan oq atrof-tevarakdag'i narsalar, hodisalar va holatlarni ifoda etishga intiling. Masalan, o'quvchi va o'qituvchi oshxonadagi suhbatni "uyushtirish"lari mumkin. Albatta, buning uchun ovqatlanishga borish shart emas. Sinfxonaning o'zida ular xuddi ovqatnayotgandek muomala qiladi. Suhbat davomida oshxona anjomlari, oziq-ovqatlar va masalliqlar nomi tilga olinadi. Bir-birlaridan ni-manidir uzatib yuborishni so'rashlari mumkin.

Xorijiy tilni o'zlashtirishning odatiy yo'sini shunday: oldin gapso'zlar va iboralar esda saqlab qolindagi, keyin grammatica o'rganiladi. Masalan, boshqa tilli tengdoshlari orasiga tushib qolgan bolalar chet tilini juda oson o'rganadi. Gaplarini grammatic jihatdan ham to'g'ri tuzadi. Chunki ular til o'rganish jarayonida hamisha vaziyatning ichida bo'ladi. Shu sabab ham tilni his qilishlari oson kechadi. Agar til o'rganish bilan mustaqil shug'ullanayotgan bo'lsangiz, mashg'ulotlarga har kuni yarim soat vaqt ajrating. So'z va iboralarini mayzular bo'yicha tasniflab o'rganing. Tevarakda ko'rayotgan narsalarining ifodalashga harakat qiling. O'zingiz bilan gapla-shishdan uyalmang.

**Madina SUBXONOVA,  
Buxoro davlat pedagogika instituti,  
Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi**

## AXBOROT TAHDIDLARNI YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**J**ahonda yoshlarni axboriy tahdidlarga nisbatan psixologik, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy jihatdan turli xarakterdagi manipulyatsiyalar natijasida ifodalananayotgan destruktiv g'oyalari, tahdidlar tobora chuqurlashib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, 20 dan ziyod davlatlarda yadro qurolini ishlab chiqarish borasidagi sa'y-harakatlar davom etayotgan pallada axborot tahlidi bilan 120 dan ziyod davlatlarning jiddiy shug'ullanishi dunyoniga yadro urushidan ko'ra, axborot xuruji talvasaga solayotganidan dalolat beradi. Internet orqali tarqatiladigan komp'yuter o'yinlarining 49% sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga egaligi, 41% jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17% o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi.

Bu borada g'oyaviy va axborot xurujlarga qarshi, yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalashning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish va takomillashtirish, bartaraf etish, mustahkamlash orqali psixologik immunitetning shakkantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarakqiyot strategiyasi» to'g'risida, 2020-yil 2-fevraldagi 5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 30-iyundagi 6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloq qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 14-avgustdagi 3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish

chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlar va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli vazifa va chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'lidagi ishlar samarali bo'lmoqda.

Farzandining istiqbolini, yorqin kelajagini istaydigan har bir ota-onai tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. Bola tarbiyan turli komp'yuter o'yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo ota-onalaridan, bobo-momolaridan, ezgulikka, poklikka va dinu diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin. Insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, odob axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir O'sib kelayotgan yosh avlodni diniy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni har xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

**F. QO'CHQOROV,  
Qorako'l tuman IIB xodimi, mayor**

**Adliya vazirligi tomonidan davlat xizmatlari bo'yicha "Odil" chat-botini yaratildi. Telegram messenjeriga integratsiyalashgan va sun'iy intellektga asoslangan chat-bot foydarolarga davlat xizmatlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanishni osonlashtirish uchun yaratilgan.**

Uning ishga tushirilishi "1148" ishonch telefon operatorlari yukini sezilarli darajada kamaytirish va foydalanuvchilarning so'rovlari real vaqt rejimida tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Ma'lumot uchun, "1148" ishonch telefonni orqali 2024-yilda fuqarolarning 135 mingga yaqin qo'n-g'iroq'i qabul qilingan. Shundan qariyb 128 mingta murojaat yoki 95% yuzasidan mutaxassislar tomonidan huquqiy tushuntirish berilgan.

Chat-botning qanday imkoniyatlari bor?

Davlat xizmatlaridan foydalanish tartiblari, talablar va jarayonlar haqida batafsil ma'lumotni



taqdim etadi. Kerakli hujjatlar va arizalarni topishga yordamlashadi.

Qaysi masala bo'yicha qayerga murojaat qilishni tushuntiradi. Kelajakda chat-botning funksional imkoniyatlari va faoliyat doirasini kengaytirish ko'zda tutilgan. Chat-botning afzalliklari:

- oson va qulay – hujjatlarni varaqlab chiqish shart emas, barcha zarur ma'lumotlar bir joyda;
- tezkor va samarali – bot sizga kerakli maslahat va javoblarni bir zumda taqdim etadi;
- doimiy takomillashish – sun'iy intellekt foydalanuvchilar taklif va fikrlari asosida rivojlanib boradi.

Ushbu chat-bot (@Odil\_chat\_bot) Adliya vazirligi va "Mohirdev" kompaniyasi o'rtasidagi hamkorlik doirasida yaratildi.

**Avazbek XAFIZOV,  
G'ijduvon tuman DXM xodimi**

**Qadim o'tgan zamonda emas, shu o'zimizning davrda bir Qahramon degan bola bo'lib, u Farg'ona viloyati, Quralay qishlog'ida yashar ekan. Qahramon qiziquvchan va bilimdon bo'lganligi sabab ustozlarini ham savollarga ko'mib tashlarkan. Kunlardan bir kun sehrli tosh haqidagi afsonani eshitib qolibdi, shundan so'ng ustozni aytgan rivoyatga ishonib toshni qidira boshlabdi.**

Rivoyatda aytishchicha, u tosh bilan xohlagan zamon yoki joyga borish mumkin ekan. U yo'l yursa ham, mo'l yursa ham, hech topolmabdi. Bir kuni kech tushgach, ketayotib chuqurlikka tushib ketibdi va bir yumshoq narsaning ustiga tushibdi.

Toshning orqasiga qarasa, nimadir juda ham yorqin nur sochayotgan ekan. U toshni ushlab ko'rishga urinibdi, ushlagan zahoti bir raketaning

## QAHRAMON

ichida paydo bo'lib qolibdi. Qarasa, raketaning ichida o'zimizning odamlarga o'xshagan kosmonavtlar bor ekan. Ularning boshlig'i bashang kiyinib olgan bo'lib, kelib Qahramonni so'roqlay boshlabdi.

- Sen bu yerga qanday kelib qolding,- debdi u Qahramonning qo'lidagi narsaga qarab va - lol bo'lib qolibdi. U duduqlana gapira boshlabdi:

- Bu-bu, axir, biz izlayotgan tosh-ku.

Qahramon qorqib ketibdi va gap boshlabdi.

- Siz kimsiz? Bu tosh sizlarga nima uchun kerak?

- Biz, aslida, 13 kishi edik. Biz sayyoramizdan uzoqlashib ketganimizdan keyin bizga "Vekslar" hujum qilishdi. Biz ulardan osongina qutuldik, lekin

**QANDAY QILIB  
INGLIZ TILINI  
O'RGANISH MUMKIN?**



### 1.TA'LIM BO'YICHA MOBIL ILOVALAR

Hozirda bunday ilovalar son-sanoqsiz, ammo deyarli barchasi so'zlarni tarjima qilish va grammatikani o'rgatishga qaratilgan. O'zingizni chindan ham qiziqirgan narsani tanlang. Sizni maqsadlaringizga yaqinlashitiradigan va shunchaki vaqtingizni behuda sarflaydigan ilovalar ham bor. Agar siz yangi odatlarni o'rganishni va ingliz tilida so'zlashadigan do'stlar topmoqchi bo'lsangiz, "Coach.me" saytidan ro'yxatdan o'ting. Agar xotirangizni rivojlantirmoqchi bo'lsangiz va tez o'qishni, yaxshiroq yozishni, ingliz tilidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashni o'rganishni xohlasangiz, Elevate ni yuklab oling. Agar siz aytiganlarni ikki marta eshitishni va uni darhol nutqda takrorlashni istasangiz - siz uchun eng yaxshi dastur - bu English Central. Agar siz allaqachon yaxshi darajaga ega bo'lsangiz, lekin uni yanada yaxshilashni xohlasangiz, ABA English ni yuklab oling.

### 2.CHET ELDA O'QISH

Ko'pchilik Londonga ikki oyga ingliz tilini o'rganish uchun borish - eng to'g'ri yo'l deb o'laydi. Bunday tajriba, albatta, juda katta afzallik beradi, lekin hatto Londonda ham ingliz tili o'z-o'zidan o'rganilmaydi va siz o'zingiz biror-bir narsa qilishingiz kerak bo'ladi. Agar siz chet elda tahsil olmoqchi bo'lsangiz, 4 soat emas, balki kun bo'y shug'ullaning. Ingliz tilida so'zlashadiganlar bilan birga yashang. Yangi shahar hayotida iloji boricha faolroq ishtiroy eting, joylarni o'rganing, odamlar bilan tanishing va ularni diqqat bilan tinglang.

### 3.KUNDUZGI TRENING VA KURSLAR

Mualliflik texnikasi va kurslarini tanlang. Ko'pincha, ular odatiy o'quv dasturlaridan ko'ra ko'proq hayotga tayyorlaydi va savollaringizga ko'proq javob beradi. Murabbiy bilan tanishing. Uning tashqi ko'rinishi, gaplashishi va muomalasi sizga yoqishi kerak. Murabbiy veb-sayti va portfelini o'rganing. Ko'pgina kompaniyalar asosiysi o'quv dasturi va mazmuni ekanini ta'kidlaydilar va uni kim boshqarayotgani muhim emas deb o'laydi. Ammo bunday emas. Inson omili ko'p narsalarni belgilaydi. Xuddi shu mashg'ulot ikki xil odam tomonidan olib borilsa, butunlay boshqacha ta'sirga ega bo'ladi.

**Furqat DJALOLOV,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

**Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasini  
katta o'qituvchisi**

Vekslar bizni Gorn sayyorasi orqasida katta tuzoq bilan kutib turgan ekan. Biz uch kishigina oxirgi kapsulada qochishga ulgurdik. Bizning sayyoramiz yadroso so'nmoxda, hamma gul-u hasharotlar qirilib ketdi, hattoki, havoni ham sun'iy tarzda ishlab chiqaryapmiz. Agar unga koinot javohirini tashlamasak, u so'niq sayyora portlab ketadi va u yerdagiga barcha aholi nobud bo'ladi.

So'ng hammalari birgalikda harakat boshlab, imkon topishibdi. Ular shunday qilib sehrli tosh yordamida koinot javohirini topishib, sayyorani saqlab qolishibdi. O'sha kunning o'zidayoq Qahramonga katta haykal qo'yishibdi va u bir zumda butun sayyoraga mashhur bo'libdi.

**Rixstilla AZIMOV,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani,  
25-maktabning 5- "B"sinf o'quvchisi**

## Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimi joriy etiladi

**"Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-43-son, 05.03.2025 y.) qabul qilindi.**

Farmonga ko'ra, ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlashning zamonaviy usullari va mexanizmlarini joriy etish va keng qo'llash, aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy aktivlari o'sib borishi uchun qulay shart-sharoit yaratishning asosiy maqsadlari etib quydigilar belgilandi:

- respublikadagi mavjud 8 milliondan ortiq turar va noturar joylar, 7 millionga yaqin yer uchastkalarining iqtisodiy aktiv sifatidagi qiymatini aniqlash;
- ko'chmas mulk ob'ektning soliq solish, oldi-sotdi qilish, garovga qo'yish, jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va boshqa holatlar uchun aniqlanadigan qiymati o'zar o'mutanosib bo'lislini ta'minlash;
- ko'chmas mulk bozoriga oid ishonchli, to'liq va davriy ravishda yangilanib boradigan axborot bazani yaratish;
- soliq solishda adolatlilik tamoyilini yanada keng joriy etish.

2025 yildan bosqichma-bosqich barcha ko'chmas mulk ob'ektlari ularning bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlash maqsadida davriy ravishda ommaviy baholashdan o'tkaziladi.

Ommaviy baholash ishlari quydagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 2025-2026 yillarda – eksperiment tariqasida Toshkent shahrida;
- 2026-2027 yillarda – Nukus shahri va viloyatlar markazlarida;
- 2027 yil va undan keyingi yillarda – qolgan hududlarda.

**Dilorom MUQUMOVA,  
Kogon shahar davlat xizmatlari markazi  
bo'lim boshlig'i**

## Ayrim davlat xizmatlari turlari xususiy sektorga o'tkazilmoqda

**Davlat xizmatlarini soddalashtirish va aholiga qulaylik yaratish maqsadida 11 ta davlat xizmatlari xususiy sektorga o'tkazilmoqda. Bu esa xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi.**

Jamoat birlashmalari yoki uyushmalar ko'rsatadigan xizmatlar:

- rietlorlarning malaka imtihonlarini o'tkazish va ularga malaka sertifikati berish;
- baholovchilarning malaka imtihonlarini o'tkazish va ularga malaka sertifikati berish;
- sud boshqaruvchisi malaka attestatsiyasini berish;
- baholovchilarga toifalar berish;
- Gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchisi va yo'riqchiyo'l boshlovchilarga malaka sertifikatini berish;
- tibbiyot tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish.

Akkreditatsiyadan o'tgan tadbirkorlik subyektlari ko'rsatadigan xizmatlar:

- hisoblagichlarni qiyoslashdan o'tkazish;
- karantin ostidagi mahsulotlarni zararsizlantirish (fumigatsiya);
- kichik hajmdagi noturar bino va inshootlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish jarayonini nazorat qilish;
- yakka tartibdagi uy-joylarning qurilishi hamda rekonstruksiya qilish ishlarini nazoratdan o'tkazish;
- "M" va "N" toifalardagi g'ildirakli yangi transport vositalarining ekologik toifa talablariga muvofiqligini sertifikatlash.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagli 78-son qarori.

Davlat xizmatlari borgan sari qulay va yaqin bo'lishi uchun islohotlar davom etadi!

**Farhod NORBOYEV,  
Jondor tuman DXM bo'lim boshlig'i**

**Qonun (O'RQ-1043-son, 4.03.2025 y.) bilan "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.**

**Qonunga ko'ra, kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestri bu – kredit bitimi tuzishi taqiqlangan jismoniy shaxslar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan va kredit byurolari tomonidan yuritiladigan yagona ma'lumotlar bazasidir.**

## Shaxsning ishtirokisiz yoki xabarlisiz kredit rasmiylashtirishning oldi olinadi

Markaziy bank bunday shaxslarning o'zaro muvofiqlashtirilgan reestrini kredit byurolari tomonidan yuritish tartibini belgilaydi. Shuningdek, kredit byurosiga ustav fondi (ustav kapitali) ning eng kam miqdori 2 milliard so'mni tashkil etishi kerakligi belgilandi.

Kredit byurolariga nisbatan Markaziy bank quyidagi qoidabuzarliklar sodir etilganligi uchun choralar va sanksiyalarini qo'llaydi:

- kredit axboroti almashinuvni to'g'risidagi va kredit byurolari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablariga rivoja etmaganlik;
- kredit byurolari xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini buzganlik;
- litsenziya qalbaki hujjalardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganligi.

Markaziy bank mazkur qoidabuzarliklarni bartaraf etish uchun majburiy ko'rsatmalar yuborish hamda BHMning 5 ming baravarigacha miqdorda jarima qo'llashga haqli.

Bundan tashqari, jismoniy shaxs o'zining ishtirokisiz yoki xabarlisiz kredit bitimi rasmiylashtirishining oldini olish uchun o'zi bilan kredit bitimini tuzishni kredit byurosiga ariza kiritish orqali taqiqlashi mumkin.

Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiqni olib tashlash ixtiyoriy amalga oshiriladi.

**Mehrinoz SAYFIDDINOVA,  
Kogon shahar davlat xizmatlari markazi AKT operatori**

## Firma nomlarini berish va ulardan foydalanish

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-fevraldagagi**

**"Firma nomlarini berish va ulardan foydalanish tartiblarini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 65-son qarorida nimalar aks etganini bilasizmi?**

So'ngi yillarda tadbirkorlik subyektlariga qulay imkoniyatlar yaratish, tadbirkorlik faoliyatini boshlashda byurokratik to'siqlarni bekor qilish orqali tadbirkorlik faoliyatini yuritishni osonlashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-avgustdagli 132-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, firma nomlarini band qilish va ulardan foydalanish tartiblarini takomillashtirish, bu borada qonunchilik hujjalardagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi:

Unda quydigilar nazarda tutilgan:

a) Davlatning rasmiy va qisqartirilgan nomini firma nomiga kiritish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti 1-ilovaga muvofiq:

- davlatning rasmiy va qisqartirilgan nomini firma nomiga kiritish to'g'risida ariza berish;
- davlatning rasmiy va qisqartirilgan nomini firma nomiga kiritish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish;

b) Firma nomlarini band qilish uchun buyurtma berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanadi:

- firma nomlarini band qilish uchun buyurtma berish;
- firma nomlarini band qilish uchun buyurtmalarni ko'rib chiqish.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir oy muddatda mazkur qaror bilan tasdiqlanadigan ma'muriy reglamentlarga muvofiq firma nomlari bo'yicha davlat xizmatlari Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimida joriy etilishini ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Unga ko'ra Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagli 66-son qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 11-bandiga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birqalikda ikki oy muddatda o'zlar qabul qilgan normativ-huquqiy hujjalarni ushbu qarorga muvofiqlashi aytilgan.

**G'olibjon NE'MATOV,  
Gijduvon tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi xodimi**

## Davlat muassasalarini to'g'risida

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagagi**

**"Davlat muassasalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 302-son qarorida nimalar aks etganini bilasizmi?**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat muassasalarini isloq qilishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 8-fevraldagli 123-son qarori ijrosini ta'minlash hamda davlat muassasalarini faoliyatida zamonaviy boshqaruv usullari, ochiqlik va oshkoraliq tamoyillarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilgandi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat muassasalarini to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan:

- davlat muassasasining huquqiy maqomi;
- davlat muassasasining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;
- davlat muassasasini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi;
- davlat muassasasi filiallari va vakolatxonalarini tashkil etish tartibi;
- davlat muassasasi faoliyatining ochiqligi va oshko-raligini ta'minlash tamoyillari;
- davlat muassasasi faoliyatini nazorat qilish tartibi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat mulki obyektlarining hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

**Husniddin MUSOYEV,  
Gijduvon tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi xodimi**



## TADBIRKOR VA FERMERLAR UCHUN SUPER YANGILIK!

**NEWS**

**Davlat xizmatlari markazlari va my.gov.uz orqali bir qator davlat xizmatlari yanada oson bo'ladı!**

**Yer ijara ga olganingizdayoq – dehqon xo'jaligingiz avtomatik ro'yxatdan o'tadi!**

Fermer xo'jaligingizni reyestrga kiritish, o'zgartirish yoki chiqarish – hammasi bir tugma orqali! (DXM va my.gov.uz orqali)

Fermer xo'jaligingiz tugatilsa, uni reyestrda chiqarish uchun alohida murojaat qilish shart emas – bu ham avtomatik bo'ladı.

Tashkilot tugatilganda soliq, statistika va Xalq bankiga siz emas, tizimning o'zi xabar beradi! (ilgari uch ish kuni ichida edi)


Tadbirkorlik subyektlari bo'limgan ayrim yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish jarayoni ham to'liq raqamlashtiriladi – barcha organlar 1 ish kunida xabardor qilinadi.

Tadbirkorlik subyektlari bo'limgan ayrim yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatishda tugatuvchi o'zining tugatuvchi etib belgilanganligini elektron tarzda kelishadi.

"Kredit tarixi" endi yuridik shaxslarga ham beriladi. Narxi esa arzonroq: BHMning 5% o'rniga 4% bo'ldi!

**Asos:** Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdaggi 135-sont qarori.

**Farhod NORBOYEV,**  
Jondor tuman DXM bo'lim boshlig'i



**YANGI XIZMAT!**

@davxizmat

## AVTOMOBILINGIZ HAQIDA MA'LUMOTNOMA – ENDI UYDA O'TIRIB OLİSH MUMKIN

**Endilikda Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali avtotransport vositasi haqida ma'lumotnomani olish mumkin bo'ladı.**

Ushbu hujjat fuqaroning nomida ro'yxatdan o'tgan transport vositasi bo'yicha: ro'yxatdan o'tganligi, texnik ko'sratkichlari, mulkdorligi va boshqa muhim ma'lumotlar to'g'risida rasmiy tasdiqni taqdim etadi.

Ma'lumotnomma faqat transport egasiga taqdim etiladi.

Xizmat avtomatik va bepul.

**Asos:** Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdaggi 135-sont qarori.

**Bobirmirzo EGAMOV,**  
Jondor tuman DXM bosh mutaxassisini



**YANGI XIZMAT!**

@davxizmat

## YANA IKKI YANGI XIZMAT JORIY ETILADI

**Endilikda Davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali quyidagi ma'lumotnomalarini olish mumkin bo'ladı:**

1. Nomoddiy madaniy meros obyekti ro'yxatga kiritilgan yoki kiritilmaganligi haqida ma'lumotnomma;

2. Bo'sh turgan davlat obyekti haqida ma'lumotnomma;

Mazkur xizmatlar bepul taqdim etiladi.

**Asos:** Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdaggi 135-sont qarori.

**Bobirmirzo EGAMOV,**  
Jondor tuman DXM bosh mutaxassisini

## FIRMA NOMLARINI BERISH VA ULARDAN FOYDALANISH

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlari bo'limgan ayrim yuridik shaxslarni tashkil etish va tugatishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 542-sont qarorida yurtimizda yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bu sohada yagona huquqni qo'llash amaliyotini yo'iga qo'yish, barcha yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlarni yagona ma'lumot bazasiga birlashtirish orqali statistik ma'lumotlarning tizimlashtirilishiga erishish hamda tadbirkorlik subyekti bo'limgan yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsad qilingan.**

## TADBIRKORLIK SUBYEKLARI BO'LIMAGAN AYRIM YURIDIK SHAXSLARNI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARI

Unda davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarini, shu jumladan boshqa davlat organlari huzurida tashkil etiladigan tashkilotlarni, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar birlashmalarini, advokatlik tuzilmalarini hamda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish davlat xizmatlari markazlari tomonidan Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish imkoniyatini yaratish vazifasi topshirilgan. Uch oy muddatda davlat ro'yxatidan o'tgan barcha advokatlik tuzilmalarining davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir hujjatlarining raqamlashtirilishini ta'minlash ham shular jumlasidan.

Shuningdek, Adliya vazirligiga Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur qarorning 2-bandida nazarda tutilgan yuridik shaxslarni Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish imkoniyatini yaratish vazifasi topshirilgan. Uch oy muddatda davlat ro'yxatidan o'tgan barcha advokatlik tuzilmalarining davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir hujjatlarining raqamlashtirilishini ta'minlash ham shular jumlasidan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 30-maydaggi 263-sont qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab advokatlik byurosini kompozit shaklda davlat ro'yxatidan o'tkazish yo'iga qo'yilishi ham bejiz emas, albatta.

Bundan tashqari, 2022-yil 1-noyabrga qadar advokatlik byurosini advokatlik faoliyatini boshlashda malaka imtihonini topshirish va advokatlik faoliyat uchun litsenziya olish jarayonida kompozit shaklda davlat ro'yxatidan o'tkazishni yo'iga qo'yish bo'yicha tashkiliy hamda texnik tadbirlarni amalga oshirish oqilonla siyosatning bir ko'rinishidir

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-fevraldagi "Firma nomlarini berish va ulardan foydalanan tartiblarini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 65-sont qarori qabul qilindi.**

Sohni yillarda tadbirkorlik sub'ektlariga qulay imkoniyatlar yaratish, tadbirkorlik faoliyatini boshlashda byurokratik to'siqlarni bekor qilish orqali tadbirkorlik faoliyatini yuritishni osonlashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdaggi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchli ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sont Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, firma nomlarini band qilish va ulardan foydalanan tartiblarini takomillashtirish, bu borada qonunchilik hujjatlaridagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish qarorda o'z aksini topdi.

Qarorda quydagilar nazarda tutilgan:

a) Davlatning rasmiy va qisqartirilgan nomini firma nomiga kiritish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti 1-ilovaga muvofiq:

- davlatning rasmiy va qisqartirilgan nomini firma nomiga kiritish to'g'risida ariza berish;

- davlatning rasmiy va qisqartirilgan nomini firma nomiga kiritish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish;

b) Firma nomlarini band qilish uchun buyurtma berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

- firma nomlarini band qilish uchun buyurtma berish;

- firma nomlarini band qilish uchun buyurtmalarni ko'rib chiqish.

Qarorda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bir oy muddatda mazkur qaror bilan tasdiqlanadigan ma'muriy reglamentlarga muvofiq firma nomlari bo'yicha davlat xizmatlari tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimida joriy etilishini ta'minlashi aytilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-sont qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomning 11-bandiga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi ko'zda tutilgan.

**Akbar XOLOV,**  
G'ijduvon tuman DXM xodimi

**Husn NASIROV,**  
G'ijduvon tuman DXM direktori



## O'zbekistonda 2025-yildan yoshga doir pensiya tayinlashda hujjat talab etilmaydi

Shavkat Mirziyoyev 31-oktabr kuni "Ahолига pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-353-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, 2025-yil 1-martdan fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunda belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etiladi.

Bunda, yoshga doir pensiyalar Pensiya jamg'armasining axborot tizimi orqali tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvni asosida olinadigan fuqaroning ish stoji, ish haqi hamda boshqa ma'lumotlariga asosan hisoblanadi va tayinlanadi.

Fuqarolarga pensiya yoshiga yetib mehnat faoliyatini davom ettirgan holda keyinchalik yoshga doir pensiyaga chiqish istagini bildirganida proaktiv shaklda tayinlangan pensiyani rad qilish huquqi beriladi.

2025-yil 1-martgacha fuqarolarga pensiya tayinlanishi yoki pensiya miqdoriga ta'sir qiluvchi qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish yuzasidan fuqaroning mobil aloqa vositasiga SMS-xabar yuborish tartibi joriy etiladi.

**Muqanna TO'XTAYEV,  
Buxoro shahar adliya bo'limi boshlig'i**

## Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish tartibini bilasizmi?

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishtirok etishi ixtiyoriy va erkindir. Fuqarolarni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida ularga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ularning o'z xohish-irodasini erkin bildirishiga ta'sir ko'rsatishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqoloni) saylash huquqiga saylov kuni 18 yoshga to'lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shahardagi, shaharchadagi, qishloqdagagi, ovuldagi mahalla hududida (bundan buyon matnda tegishli hudud deb yuritiladi) doimiy yashovchi fuqarolar ega bo'ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida ishtirok etishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi tashkil etilayotganda hamda o'tkazilayotganda fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joy to'g'risida fuqarolar voqif etiladi, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqida, ovoz berish yakunlari to'g'risida xabardor qilinadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish, fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joy, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar to'g'risidagi axborot Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlarning rasmiy veb-saytlariga saylov o'tkazilishidan kamida 5 kun oldin joylashtiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish jarayoni ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritib boriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikri inobatga olingan holda ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Tuman yoki shahar hokimi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga taqdim etilgan nomzodlarning hujjatlarni ko'rib chiqadi va o'zining ushbu nomzodlar bo'yicha asoslantirilgan xulosalarini keyinchalik ishchi guruhlarga topshirish uchun tegishli komissiyalarga yuboradi.

- Ovozlarni sanash natijalari bo'yicha sanoq komissiyasi tomonidan bayonnomma tuziladi va bayonnomma sanoq komissiyasining raisi hamda a'zolari tomonidan imzolanadi.

- Ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning yarmidan ko'prog'ining ovozini olgan nomzod fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga saylangan deb hisoblanadi.

- Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) saylov yakunlari bo'yicha qaror qabul qiladi, bu qaror fuqarolar yig'inida (fuqarolar vakillarining yig'ilishida) raislik qiluvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.

**Ulug'bek TO'XTAEV,  
Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i**



Bilasizmi?

Milliy toifali sport hakami toifasini olish uchun ariza berish tartibidan xabardormisiz?

@davxizmat

**Murojaatlar qabul qilinadi:**

- Davlat xizmatlari markazlari orqali;
- YIDXP – my.gov.uz;

Xizmatdan foydalanuvchilar:

- sport turi qoidalariha hamda sport musobaqasi to'g'risidagi nizomga (reglamentga) rioya etilishini ta'minlash uchun jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi tomonidan vakolat berilgan, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va tegishli malaka toifasini oлган jismoniy shaxslar.

To'lanadigan yig'im miqdori:

- Davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat etilganda – 340 000 so'm (BHM ning 1 barobari);
- YIDXP orqali taqdim etilganda – 306 000 so'm (to'lanadigan summaning 90 foizi miqdorida yig'im to'lanadi).

Ma'lumot uchun: Milliy toifali sport hakami" malaka toifasi "Birinchi toifali sport hakami" malaka toifasiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazilgan sport musobaqalarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi championati hamda kubok maqomiga ega bo'lgan sport musobaqalarida hakamlik qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. Bunda "Birinchi toifali sport hakami" malaka toifasi berilganiga kamida 2 yil o'tgan bo'lishi lozim.

**Shaxboz AXTAMOV,  
G'ijduvon tuman DXM xodimi**



Bilasizmi?

Kadastr pasportini tayyorlash muddatlari haqida ma'lumotga egamisiz?

@davxizmat

Hukumat qaroriga ko'ra, ko'chmas mulk ob'ektini kadastr hisobiga olish va kadastr yig'majildini shakllantirish natijasida ko'chmas mulk ob'ekti bo'yicha elektron shaklda kadastr pasporti rasmiylashtiriladi.

Ariza beruvchi kadastr pasportini olish uchun Davlat xizmatlari markaziga yoki YIDXP ro'yxatdan o'tadi.

Ko'chmas mulk ob'ektlarining turar joyga oid qismi bo'yicha quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- ko'p kvartirali uydagи kvartira – 3 ish kunigacha;
- yakka tartibdagи turar joy – 5 ish kunigacha.
- Ko'chmas mulk ob'ektlarining noturar joyga oid qismi bo'yicha:
  - umumiy maydoni 100 kv.m. gacha - 5 ish kunigacha;
  - umumiy maydoni 100 kv.m. dan 1000 kv.m. gacha - 7 ish kunigacha;
  - umumiy maydoni 1000 kv.m. dan 5000 kv.m. gacha - 10 ish kunigacha;
  - umumiy maydoni 5000 kv.m. dan 15000 kv.m. gacha - 15 ish kunigacha;
  - umumiy maydoni 15000 kv.m. dan 50000 kv.m. gacha - 20 ish kunigacha;
  - umumiy maydoni 50000 kv.m. dan ortiq - 25 ish kunigacha.

Kadastr yig'majildi shakllantirilgandan so'ng kadastr pasportini berish uchun to'lov miqdori qiymati ko'rsatilgan xabarnoma (invoys) Davlat xizmatlari markaziga yoki ariza beruvchiga elektron shaklda yuboriladi.

Ariza beruvchi xabarnomani olgandan so'ng 1 oy mobaynida to'lov qiymatini to'laydi.

Kadastr pasportini berish uchun to'lov qiymatlari Hukumatning 186-son qarori bilan belgilanadi.

**Ibragim NASRIYEV,  
G'ijduvon tuman DXM xodimi**

## OILAM MENING – SAODAT QO`RGONIM MENING

**Oila – muqaddas va buyuk ne'mat hisoblangani uchun ham juda ko'p donishmandlar oilani tuzishni mamlakatni tashkil qilish kabi muhim deb biladilar. Oilaning barqaror va baxtli hayoti shu mamlakatning obro'si deb qaraladi. Oila bashariyat tirikligi, uzuksizligini ta'minlar ekan, u umuminsoniyatning katta siyosatidir.**

Oila katta yoki kichikligidan qat'i nazar shu yerdagi kishilarning bir-biri bilan munosabatlardan tarkib topadi. Oilaviy munosabatlar o'zaro munosabatlarning oddiy turi bo'lsa-da, oilaviy hayotning eng muhim talabi, qarangki, salomatlikka ta'sir qiluvchi eng kuchli omil ham ekan. Har bir inson o'ziga xos xarakterga ega bo'lgani uchun o'zaro munosabatda ham turlicha bo'ladi.

Er-xotin bir-biriga Allohnинг muqaddas omonatidir. Omonat yaxshi saqlanmog'i, unga xiyonat qilinmasligi zarur. Ehtimol shundandir oilani, uyni ayol kishining metin qal'asi, erni unga o'q tekkizmaydigan zirh, qalqon deyishadi.

Oila qo'rg'onini mustahkam tutib turuvchi ustunlar ko'p: asosiysi, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va albatta, mehnatsevarlikdir.

Solih farzandlar ota-onalaridan andoza olib kamol topadilar. Bilaks omonat oilalarda ulg'aygan farzand axloqsiz, odobsiz bo'limas, ammo ruhiyati shikasta, atrofdagilardan alamzada, o'ziga nisbatan ishonchhsiz, qarabsizki, hayotda omadi chopmagan shaxslarga aylanadilar. Afsuski, hayotda bundaylarni ko'p uchratayapti. Er-xotinni qo'sh qanot, deydilar. Demak, erkin va baland parvoz qilish uchun har ikki qanot bir xil harakat qilmog'i kerak. Demoqchimizki, oila yuki faqat ayol yoki faqat erkak zimmasida emas. Yumushlar adolatli taqsimlangan va unga mas'uliyat bilan yondashilishi lozim. Agar shu muvozanat buzilgan xonadonda fayz nuray boshlaydi.

Bugun ichkilikbozlik, kashandalik kabi illatlar erkagu ayollar orasida urchib borayotgani tashvish tug'dirmay qo'ymaydi. Albatta, aslida erkaklar orasida urf bo'lgan bunday illatlarni ayollarimiz ham odat qilishgani bundan-da dahshatlisi yoshlarimiz taqlidbozlikka berilashayotgani oqibati yaxshilik emas. Ichkilikka, kashandalikkha yaqinlashgan og'izdan hazarli so'zlar chiqmasligiga kafolat bo'Imaganidek, boshqa yot illatlarga ergashgan insonning zarar keltirmasligiga ishonch yo'qdir.

Biz o'zbeklarda nihoyatda go'zal purma'no va falsafiy bir gap bor. "Qo'shganing bilan qo'sha qarisin". Er va xotinning hayot davomida bir-birini tushunishi, bir-biriga yelkadosh bo'lishi baxt kalitidir. Zotan umr yo'ldoshlik mashaqqatli ish. Bu kemtiklikni to'ldirish, bir butun bo'lish mukammallik yaratish degani. Ma'naviy komillikning go'zal ifodasini baxtli oilalar misolida ko'rish mumkin.

**D. FAXRIDDINOVA,  
Buxoro tuman FHDY bo'limi 1-toifali inspektori**



### "EZGULIK" MUXBIRI "ZULFIYA" MUKOFOTI BILAN TAQDIRLANDI!

**"Ezgulik" Respublika elektron gazetasini jamoasi uchun quvonchli yangilik! Gazetamizning iste'dodli muxbiri Madinabonu Muhammadrizoeva nufuzli, "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu yuksak e'tirof uning matbuot sohasidagi fidokorona mehnati, ijodiy izlanishlari va tengdoshlari uchun o'rnak bo'ladigan tashabbuslari samarasи sifatida munosib baholandi.**

Madinabonu o'zining izlanuvchanligi bilan jamiyatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

"Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti nafaqat shaxsiy yutuq, balki barcha ijodkor qizlarga bo'lgan e'tibor va hurmatning yorqin ifodasidir. Ushbu faxrli daqiqada, Madinabonu Muhammadrizoevi chin dildan tabriklab, unga yangi ijodiy parvozlar, muvaffaqiyat va ilhom tilaymiz!

Nafosat TOTLIEVA,  
"Ezgulik" muxbiri





Ўзбекистон Республикаси  
АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ

"Хотин-қизларга ҳуқуқий кўмак" акцияси

Айрим хотин-қизлар  
"Мўътабар аёл" кўкрак нишони  
 билан тақдирланади

[@huquqlyaxborot](#)

### ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУКИ

**Конунчиликка кўра, "Мўътабар аёл" кўкрак нишони таъсис этилган бўлиб, мазкур кўкрак нишони билан куйидаги хотин-қизлар тақдирланиши белгиланган:**

- жамият ва давлат ҳаётида фаоллик ва ташабbusкорлик кўrsatgan;

- ўзининг самарали меҳнати билан оиланинг шаклланишига ва фаровонлиги мустаҳкамланишига, оналик ва болалик муҳофазасига мунособ ҳисса қўшган;

- соғлом ва баркамол авлодни вояга етказиш, уларни ватанпарварлик ва истиқlol ғояларига садоқат руҳида тарбиялаш, жойларда маънавий-ахлоқий мухитни соғломлаштириш ва миллий қадriяtlarimizni кенг тарғиб этиш борасида ибратли фаолият олиб бораётганлар.

**Хилола НУРОВА,  
Вобкент туман ФХДЁ бўлими мудираси**



Ўзбекистон Республикаси  
АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ

"Хотин-қизларга ҳуқуқий кўмак" акцияси

Хотин-қизлар ва эркаклар учун  
тенг ҳуқуқ ва имкониятлар  
кафолатланади

[@huquqlyaxborot](#)

### ОИЛАДА ТЕНГ ҲУҚУКЛИЛИК

**Давлат хотин-қизлар ва эркакларга шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқларни амалга ошириш чоғида тенг ҳуқуқлиликини кафолатлади.**

Шунингдек, хотин-қизлар ва эркакlарга жамият ҳамда давлат ишларини бошқаришда, сайлов жараёнida тенг иштирок этишни, соғликни сақлаш, таълим, фан, маданият, меҳнат ва ижтимоий ҳимоя соҳаларида, шунингдек, давлат ва жамият ҳаётининг бошқа соҳаларида тенг ҳуқуқ ҳамда имkonияtlar taъminlaniishi kafoлатlanadi.

Хотин-қизлар ва эркакlар ўртасида ҳақиқий тенгликка эришиш, жамият ҳаётининг барча соҳаларида уларнинг иштирокини кенгайтириш, жинс байча бевосита ва билвосита камситишни бартараф этиш ҳамда уларнинг олдини олиш мақсадида давлат томонидан гендер сиёсати амалга оширилишини таъminlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar kўriladi.

**Малика МУҲАММЕДОВА,  
Вобкент туман ФХДЁ бўлими 1-toifali inspektori**



## VOLEYBOL SPORT TURINING BUGUNGI ZAMONDA ROLI VA RIVOJI

**Voleybol, nafaqat fizika va sportning noyob birlashtirilishi, balki ijtimoiy hamkorlik va inson psixologiyasining o'zaro ta'sirini namoyon etuvchi sport turi sifatida ham diqqatga sazovordir. Ushbu sport turi, asosan, ikki jamoa o'rtasida, to'pni raqibning maydoniga o'tkazishga qaratilgan o'yin shaklida rivojlanadi. Ammo, bugungi kunga kelib voleybol faqatgina fizika qobiliyatini sinovdan o'tkazadigan faoliyat emas, balki insonlar o'rtasidagi muloqot, hamjihatlik va jamoa ruhini mustahkamlovchi muhim vositaga aylangan.**

Voleybol 1895-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari, Uilson F. Giley tomonidan yaratilgan bo'lsa ham, bugungi kunda butun dunyoda eng ommabop va keng tarqalgan sport turlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoxda. Avvaliga, faqatgina sport zalida o'ynalgan bu o'yin, hozirgi kunda hali ham o'zining an'anaviy shaklini saqlab qolgan bo'lsa-da, ko'plab yangi formatlarga ham egadir. O'yin zallaridan to'plarni yopiq maydonlardan tashqari, plyajda yoki ko'cha maydonlarida ham o'ynash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, voleybol sohasida texnologiyalar ham katta o'zgarishlarga olib kelgan, masalan, video ko'rik (VAR) yordamida hakamlar qarorlarini qayta ko'rib chiqish va o'yinchilarni yanada yaxshiroq kuzatishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, hozirgi davrda voleybol faqat sportning bir turi sifatida qolibgina qolmay, balki ma'nnavi va madaniy jihatdan ham ko'plab ijobji o'zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, uning asosiy maqsadi bo'lmish "jamoa o'yinini" samarali tashkil etish nafaqat

sportchilarini, balki jamiyatni ham birlashtiradi. Shuningdek, voleybol o'ynash jarayonida barcha jamoa a'zolarining birgalikda ishlashlari, strategik fikrlashlari va o'zaro munosabatlarining mustahkamlanishi ularning hayotdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Voleybol nafaqat sport, balki madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ham o'rganilishi kerak. Uning o'yinchilari va muxlislari orasida o'zaro hurmat, jamoaviy ruh va mehr-oqibatni targ'ib etish, bu sportni shunchaki jismoniy faoliytdan ko'ra ko'proq bir ijtimoiy hodisa sifatida namoyon etadi.

Voleybolning xalqaro maydondag'i muvaffaqiyatlari, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga, madaniy almashinuvga hamda sportda tenglikni ta'minlashga olib keladi. Uning butun dunyo bo'ylab mashhurligi sportning ijtimoiy rolini yanada oshiradi. O'zbekistonning voleybol sohasidagi rivoji ham e'tiborga loyiq. Respublikada voleybolga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. O'zbekistonning erkaklar va ayollar voleyboli jamoalar xalqaro maydonlarda muvaffaqiyatlri ishtirot etib, milliy



sportga yangi hayot baxsh etmoqda. Voleybolni ommalashtirish va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar ham beqiyosdir.

Voleybol – bu nafaqat sport, balki insonlarning bir-biriga ishonchini hosil qilishi, birgalikda ishlashi va do'stlikni rivojlantrishiga yordam beradigan kuchli vositadir. Bugungi zamон voleyboli, texnologiyaning rivojlanishi, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, shuningdek, ijtimoiy aloqalar bilan uzviy bog'liqidir. Voleybolning har bir raqibi va jamoasi bu sportni rivojlantrish, yangi yondashuvlarni kiritish va jahon voleyboli tarixida o'zining o'rnni tutishini istaydi. Shu sababli, voleybol, kelajakda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolib, butun dunyo bo'ylab taraqqiyot va hamjihatlikka yangi imkoniyatlar yaratishda davom etadi.

**Sarvinoz QURBONOVA,  
Navoiy shahar 6- maktabning  
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi**

## URUSHDAN QOLGAN XOTIRALAR

**Odamzod hayotida shunday pallalar bo'ladi-ki, ba'zida ularni hech qachon unutging kelmaydi, ba'zida esa tushingda kechirgandek unutishni xohlaysan. Ammo bunday vaqtlar hayotingda qanday iz qoldirganidan qat'i nazar, baribir qalbingni bir chetida o'sha xotira bilan band bo'lib qolaveradi. Noyob ist'e'dod sohibi O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarini o'qigan kitobxon dilidan ham shunday o'ylar kechadi. Romanda keltirilgan voqealar qamrovi juda keng: qata?on qilish manzaralari, Afg'oniston urushi lavhalari, "o'zbek ishi" ... Insonlar hayotida sodir b?igan bu uch yirik voqealar birbiri bilan bog'langan. Bu manzaralar shu qadar ta'sirli tasvirlangan-ki, go'yo o'sha manzaralarda ishtirot etgandek.**

"O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" roman, nafaqat, adibning, balki o'zbek adabiyotining eng go'zal romanlaridan hisoblanadi. Rustam Shomatov, komissar Soat G'aniyev obrazlari asarning g'oyaviy konsepsiyasini aniqlab olish uchun xizmat qiladi. Karakterlar dialoglar orqali juda chiroyli tarzda oshib berilgan. Asardagi har bir personajga muallif ma'lum bir vazifa yuklaydi. Dialoglar asar voqeligini rivojlantrishga, xarakterlarni ochishga xizmat qiladi".

El ixlosini qozongan adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Xoshimovning ushbu asarida afg'on urushi voqealari, urush qatnashchilarining urushdan keyingi ruhiy kechinmalari asar qahramoni Rustam obrazi orqali yorqin tasvirlab berilgan.

Rustam afg'on urushi xotiralaridan qutula olmadi. ... U O'zi sevgan qiz Shahnozaga uylangan bo'lsa ham, ikkalasi bir- birini qattiq sevsaga ham ular baxtli bo'lisha olmadi. Bu baxtsizliklarning asosiy sababi urushning salbiy ta'siri edi. Uyga qaytgandan keyingi ketma-ket adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo'lishi, ayolning baxtsizligiga o'zini aybdor his etishi uning fojiali o'limiga sabab bo'ldi.

Komissar Soat G'aniyev har bir kitobxonning qalbida nafrat uyg'otadi. U otasining izidan borib, sovet komissari bo'lib yetishadi. Yoshligidan ko'plab insonlarning (Mahalladoshi Husan, To'lagan) nohaq jazolanishiga sabab bo'lgan, bir ayolning nomusiga tekkan bu odam keksayganda ham pushaymon bo'lmaydi. U o'tgan umridan afsuslanmaydi. dunyoqarashini o'zgartirmaydi. Komissar 70 yillik zulm saltanatining timsoli. U oddiy emas, o'ta xavfli manqurt.

"Tushda kechgan umrlar" romani teran bir dard bilan yozilgan asar. Unda muallifning hayotga qarashlari yanada chuqurlashganini ko'ramiz, u o'z kuzatishlaridan g'oyat ibratli va haqqoniy umumlashmalar chiqaradi, insonning ruhiy dunyosiga ham boshqa asarlardagiga qaraganda teranroq yurib boradi.

O'tkir Hoshimov o'zbek xalqining chinakam farzandi sifatida millatimiz boshiga tushgan og'ir fojiani ildizi bilan oshib bergen. O'z qalbini og'ritgan, xalqimizning og'riqli nuqtalari xususida mushohada yuritgan. Eng muhim, buni mahorat bilan uddalay olgan yozuvchidir.

Nodira Jo'rayeva  
Buxoro Davlat Texnika Universiteti 4-bosqich talabasi



## BOLALAR SHOIRI BILAN YUZMA-YUZ

**Vobkent tumanidagi Axborot-kutubxona markazida "Ma'rifikat ulashib" loyihasi doirasida "Shuhrat" medali sovrindori, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, bolalar shoiri Negmurod Gulihev bilan tumandagi umumta'lim maktablaridan kelgan yoshlarning diydorlashuvi ana shu ezgu maqsadni o'zida mujassam etdi.**

Dastlab mehmon-adib, she'riyatga kirib kelishi, matematikaga oid uzoq yillik bilim va tajribalarini adabiyotga uyg'unlashishi tarixi, "Bir qadam", "Senimi, shoshmay tur", "Qiziqarli matematika", "Matematikadan 90 jumboq", "Alifboden boshlanar Vatan" nomli kitoblari to'g'risida so'zladi. "Qiziqarli matematika", "Matematikadan 90 jumboq" she'riy kitoblaridan jumboqli she'rlarini o'qidi. O'quvchilar jumboqlarni topishdi. Mantiqiy fikrlashga undovchi, matematik amallar va usullarni o'quvchiga tez va oson yod olishi uchun shoirning bilimlari, tajribasi, iste'dodining hosilasi bo'lgan she'riy parchalar o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtiriladi. O'quvchi so'z o'yini, undagi jozibadan bahramand bo'lish bilan birga fanni ham o'zlashtirib boradi.

Shundan so'ng tuman Axborot kutubxona markazi tomonidan bolalar shoiri muallifligidagi uyushma tashabbusi bilan "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan "She'riy matematika" kitobi taqdimoti o'tkazildi. Yakunda shoir faol yoshlar hamda axborot-kutubxona markaziga o'z kitoblaridan taqdim qildi.

**N. RUSTAMOV,  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat markazi  
Vobkent tuman bo'linmasi rahbari**

G'afur G'ulom o`zining vatan haqidagi yorqin she'rlari bilan XX asr o`zbek adabiyotida o`chmas iz qoldirdi. Uning asarlari O`zbekistonning madaniy-tarixiy merosini go`zal tarzda aks ettirib, o`quvchilarda chuqur taassurot qoldiradi. Adibning asarlarini tahlil qilish orqali biz she'riyat milliy o`zlikni va madaniy g`ururni qanday ifodalashi mumkinligi haqida tushunchaga ega bo`lamiz. Dastlab G'afur G'ulom jadidlar harakatiga qo'shilib, millat taraqqiyoti va o`zlikni anglash borasida faoliyat yuritgan. Jadidlar - ma'rifatparvarlik va o`zini o`zga madaniyatlardan himoya qilish maqsadida jamiyatni ma'rifatli qilishni targ`ib etgan intellektual guruh edi. G'afur G'ulom ham o`sha davrda xalqning turmush tarzini yaxshilash va milliy uyg'onishni ta'minlashda o`z ijodiy faoliyati orqali ulkan xizmat qilmoqchi bo'lgan. Uning jadidlar safidagi faoliyati shoirning vatanga bo`lgan sevgi va ehtiromi bilan bog`liq bo`lgan. G'afur G'ulom she'riyatida vatan mavzusi markaziy o`rinlardan birini egallaydi. Shoir o`zining ko`plab she'rlarida O`zbekistonni vatan sifatida ulug`laydi, uning tabiat, madaniyati va xalqining go`zalligini yuksak badiiy obrazlar orqali tasvirlaydi. Masalan, uning "Bog'" she'rida quvidagi satrlar keltiriladi:

*Bir vatanning o'g'limenkim,  
har taraf gul-lola bog  
Qalb ko'ziday eng qorong'i  
kechada porlar charog',  
Har yigit mag'rur har qiz ko'kragi  
qush cho'qqi tog'.  
Suv desang sharbat oqar; iqlim  
desang qaymog'u yog',  
O'z-o'zini maqtaganda, maqtamay  
aolga'yymi men?*

Bu misralarda shoir vatan sifatida  
O'zbekistonni tasvirlab, uning go'zalligini  
va ulug'vorligini madh etmoqda.  
Bahorning quvonchli lahzalarini esa  
O'zbekiston tabiatiga bog'laydi, bu orqali  
shoir Vatanning yorqin kelajagiga bo'lgan  
ishonchini ifodalaydi. Ushbu she'r yosh  
avlodlarga vatan haqida ijobiy tushuncha  
shakillantirishda ulkan hissa qo'shamdi.  
Yoki uning boshqa ajoyib san'at asari -  
"Bari seniki" she'rini olaylik:

*Muncha ham chiroyliksan,  
aziz Vatanim,  
Bodomday ming ko'z bilan  
sevar badanim,  
Sensan avval-oxir, sensan sevganim,  
Jonom, yurak qonim, hatto shu tanim  
Bir butun holida bari seniki*

Bir butun holida bari seniki.  
Shoiryuqoridagi parcha bilan vatanga bo'lgan sevgisini juda kuchli jumlalar bilan ifodalagan. Ayniqsa "Jonom, yurak qonim, hatto shu tanim Bir butun holida bari seniki" qismida u vatani uchun hattoki o'zini ham qurban qilishga tayyor ekanligini izhor qilgan. Tarixiy jihatdan olib qaraganda, G'afur G'ulom she'rlari o'zbek xalqining o'zligini anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. G'afur G'ulom Vatan deganda

# G'AFUR G'ULOM SHE'RLARIDA VATAN TASVIRI

G'afur G'ulom O`zbekiston xalq shoiri, iste'dodli yozuvchi va o`z davrining yetakchi adiblari orasida ajralib turuvchi shaxsdir. U 1903-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan.

G'afur G'ulom adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo`shib, o`zbek she'riyatida yangi tendensiyalar va g`oyaviy yo`nalishlarni joriy etdi. Uning ijodi xalqchil ruh bilan mujassamlashgan bo`lib, asarlarida Vatan sevgisi, xalq taqdiri va milliy mustaqillik masalalari muhim o`rin tutadi.

O`zbekistonni ko'zda tutib, uning madaniy merosi, tarixi va milliy qadriyatlarini ulug`lagan. Masalan, shoir "Sen yetim emassan" nomli she'rida xalqning jasorati va qahramonligini madh etib, vatan haqida quyidagicha yozadi:

*Sen yetim emassan,  
Tinchlan, jigarim,  
Quyoshday mehribon  
Vataning - onang,  
Zaminday vazminu  
Mehnatkash, mushfiq,  
Iatagan narsangni tayyorlaguvchi  
Xalq bor - otang bor,  
Cho'chima, jigarim,  
O'z uyingdasan,  
Bu yerda na g'urbat, na ofat, na g'am.  
Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat  
Va mehnat nonini ko'ramiz baham,  
Sen yetim emassan,  
Uxla, jigarim.*

Ushbu she'r xalqning o'z vatani bilan qanday bog`langanini, qanday qilib yurtini sevib va himoya qilish lozimligini tushuntiradi. Shunindek, o`zbek xalqi uchun aziz bo`lgan bolalar Vatanda tinch va omon bo`lishi mumkinligi, vatan ularga g'amxo'rlik qilishini ta'kidlaydi. Bu shoirning vatan haqidagi g`oyalarini yanada teranlashtiradi. Madaniy jihatdan esa, G'afur G'ulomning vatan mavzusidagi she'rlari O`zbekiston xalqi orasida vatanparvarlik tuyg`usini kuchaytirishda katta rol o`ynagan. Bundan tashqari adibning vatanni madh etib yozgan yana ko`p she'rlari bor, jumladan, "Toshkent", "Bog`", "Chaman", "San'atim", "Kuzatish", "Kuz keldi", "Chin arafa" va boshqalar. G'afur G'ulom she'rlarining ahamiyatli jihat shundaki, ulardam ko`pchiligi vatan manzarasi va jafokash xalq mehnatinini go`zal adabiy bo`yoqlar bilan tasvirlaydi. Shunday she'rlardan yana biri bo`lgan "Bari seniki" dan yana bir necha satr esga olaylik. She'rda quyidagi misralar ayniqsa e'tiborga molik:

*Issiq quchog`ingda ungan paxtazor  
Eng baland hosil bilan topdi e'tibor  
Oltin tuprog`ingda jumla olam bor,*

*Dunyolar mazmuni, mazmuniga zor,  
Shu obro`, shu viqor bari seniki.*

G'afur G'ulomning ushbu she'ri o`zbek xalqining paxtachilik madaniyatini va uning Sho`ro jamiyatidagi ahamiyatini yuksak darajada aks ettiradi. She'rda paxta dalalarining mamlakatda katta iqtisodiy va ijtimoiy o`rin egallagani, paxta hosili orqali xalq e'tiborga sazovor bo`lgani ifodalanadi. "Oltin tuprog'ingda jumla olam bor" satri esa paxtaning nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatdagi umumiy qadriyatlar va milliy boylik sifatida tan olinishini ko'rsatadi. Paxtachilik O`zbekiston xalqining kundalik hayotida markaziy o`rin tutgan va bu soha orqali xalq turmushi rivojlangan. Biroq, sho`ro davridagi paxta rejimi ko`pincha haddan tashqari mehnat talab qiluvchi siyosat va rejalgarda asoslangan edi. Paxtachilar ko`pincha katta hajmdagi paxta rejalarini bajarishga majbur bo`lgan, bu esa mehnat ekspluatatsiyasiga olib kelgan holatlar bilan ham bog`liq. Shu bilan birga, "Shu obro", shu viqor bari seniki" satri xalqning mehnati va fidokorligiga bag`ishlanadi, paxtachilik orqali o`zbek xalqi milliy iftixorni his qilgan.

Xulosa qilib aytganda, G'afur G'ulom she'lari vatanga bo`lgan cheksiz sevgi va sadoqatni ifodalagan bo`lib, uning ijodi orqali xalq o`z milliy o`zligini saqlab qolish va rivojlantirish yo`lida ilhom olgan. Shoир o`z she'lari bilan O`zbekistonni vatan sifatida ulug`lagan va xalqni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta hissa qo`shtirish. Vatan deganda shoир har doim O`zbekiston xalqini, tuprog`ini va madaniyatini nazarda tutgan, bu esa uning ijodining eng qadrlanadigan tomonlaridan biridir. Zero O`zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim ham shoirni "Elning o`ktam kuychisi edi" deya tasvirlagandi.

**Munisa TOJIBOYEVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ommaviy huquq fakulteti  
Davlat huquqiy faoliyati  
2-kurs talabasi**

## BUKHARA - THE CROSSROAD OF HISTORY AND MODERNITY

Bukhara is one of the most ancient cities in Central Asia and an ancient city that has a lot of historical monuments, so the heart of Eastern civilization and one of the Uzbekistan's most beautiful tourist destinations. Its madrasas, streets, bazaars breathe the spirit of the past.

Bukhara's architecture is renowned for its elegance and uniqueness. The Ulugh Beg Madrasa, Mir Arab Madrasa, Ark monument and the Lyabi Hauz complex reflect the city's rich history. Bukhara is not just a city, it's a museum where history, culture and also modernity meets. Every year, more tourists visit Bukhara to experience for watching historical statue. Bukhara as a perfect example of how a city can honor its past while moving forward into the future.

Bukhara's cultural vibrancy is evident in its festivals, music, and cuisine. Events like the Silk and Spices Festival celebrate the city's heritage, while local dishes such as plov, shashlik, and samsa offer a taste of authentic Uzbek flavors.

Visiting Bukhara is not just a journey through a city - it's a journey through time where everything stories of empires, traders' life. In every corner, you can feel the harmonious blend of its ancient and modern spirit.

Erkinova Kumush 9a Grade School N 45

**HERE IS THE TEXT FROM YOUR IMAGES:  
PROTECTING NATURE -  
OUR RESPONSIBILITY  
FOR FUTURE  
GENERATIONS**

Nature is a vital resource for human life, providing us with clean air, water, food, and a livable environment. However, industrial development, pollution, deforestation and the loss of wildlife, causing significant harm to the environment.

To protect nature, simple steps such as saving water and electricity, planting trees, and caring for animals are essential. Every one of us can contribute to ensuring a healthy and sustainable environment for future generations.

If we don't take care of nature today, we may face a shortage of fresh air, water, and food in the future. By working together, we can create a world where nature thrives, and future generations can enjoy its beauty and benefits. The responsibility lies in our hands - let's act now before it's too late!

Samatova Shabbona 8b Grade School N 45

Bukhara is one of the oldest cities in Uzbekistan, the largest city after Tashkent and Samarkand. Bukhara region is located in the south of Uzbekistan, and most of it is located in deserts. However, there aren't mountainous areas here. It's population is about 2 million. The climate is hot in summer, and low in winter. The Zarafshan River flows through Bukhara.

## BUKHARA

There are many ancient and cultural monuments here. In history, it was the scientific and religious center of the Islamic world. The culture and science of Bukhara played an important role in the history of Uzbekistan, as well as, in the history of World. The famous Islamic scholar Imam al-Bukhari and the medical scientist Abu Ali ibn Sina were born here. Also, Bukhara became the capital in 864, and first faith school was built here.

Bukhara has many large mosques, faith schools, and cultural places. For example, Ark Castle, Ismail Samaniy mausoleum, Seven Pirs, Sitarai Mahi Khosa, etc. Ark Castle was the residence of Amir Olimkhan, and Sitarai Mahi Khosa was his summer residence. Bukhara is mainly found on trade and handicrafts. Bukhara played crucial role in The Great Silk Road. Medicine, astronomy, mathematics and philosophy are developed here.


Besides, nowadays a national park has been built in Bukhara with the cooperation of Uzbekistan and Turkey. The national park is called Varnet. There are a lot of plants there. Green plants and songs make the national park a wonderful atmosphere. Tourists from different regions and countries visit here.

Also, Bukhara is the cultural and tourist center of the Uzbekistan, which is visited many tourists every year.

Ashurova Zulayho 8a Grade School N 45

Over the world health caring problems are increasing. It might depends on individuals or natural conflicts. Health is one of the most valuable thing a person can have taking care of our health not only helps us live longer but also improve our quality of life.

## Wellness BEGINS WITH YOU



One of well-known our ancestor who is Ibn Sina (Avicenna) said that, "The greatest wealth is health". Every resident should be aware of their body health and it must be checked by doctors. From time to time, check-ups, vaccinations and healthy lifestyles prevent many serious illnesses such as heart diseases, diabetes and infection. Moreover, quality of sleep is crucial for good health. A lack of sleep can cause fatigue, poor concentration and weak immune system. Regular exercise keeps the body strong, improves heart health and boosts energy level. Some benefits of exercise include -strengthening muscles and bones, improving blood circulation, reducing the risk of chronic disease. In addition, limiting processed food such as, junk food, sugary drinks and excess salt. Small daily habits make a big difference so prioritizing health should be always a top goal.

Shukrullayeva Ruxshona 11 b Grade School N45



## Ayol borki, olam munavvar!

**Bemor bo'lib turganiningda, shifo so'rabb, dori ichirib, peshonangni silab, yoningda turadigan – onang. Yig'layotganiningda, ko'z yoshlarinги artib, "Nega yig'layapsan?" deb yoningda turadigan ham onang. Ishing orqaga ketib, sen uchun jonini "fido" qilmoqchi bo'lganlar yo'qolib golganda, yoningda turadigan – onang. Xursand bo'lganingga, shodligingdan sevinib, yuzida tabassum bilan yoningda turadigan ham u. Qo'pollik bilan xafa qilsang ham darrov kechirib, "O'z bolamdan xafa bo'larmidim" deya bag'riga bosadigan ham onang.**

Shu bois Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 11-maktabning 2-“D” sinf o'quvchilari bilan “Ayol borki, olam munavvar!” mavzusida tadbir tashkil qildik. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan tadbirda bolajonlarimiz mavzuga oid she'rlar o'qib, qo'shiqlar ijro qilishdi. Shuningdek, sahna ko'rinishlari va raqslar bilan kechaga o'zgacha fayz kiritdilar.

**Shohigul HAMROEVA,  
Buxoro viloyati, Romitan tumani  
11-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Dilini og'ritib,  
dunyoni ko'ziga  
tor qilib  
yuborganingda  
ham seni  
garg'amaydigan,  
balki "Seni  
tug'may men  
o'lay" deya  
o'zini  
yomonlaydigan kim – onang. Jannatga kirishing uchun birinchi bo'lib  
rozi qilishing kerak bo'lgan inson ham – u.**

Duolaringda o'zingdan avval esga olishing lozim bo'lgan insoning – onang. Qorni och bo'lsa ham, taomini senga uzatadigan, usti yupun bo'lsa ham sening yangi libos kiyishingni istaydigan, o'zi ko'rмаган kunlarni ko'rishingni yuragining tub-tubidan xohlaydigan inson ham u.

Romitan tumanidagi 11-maktabining 1-“D” sinf o'quvchilari bilan “Ona – ulug' zot” mavzusida tadbir o'tkazdik. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan tadbirda bolajonlarimiz mavzuga oid she'rlar o'qib, qo'shiqlar ijro qilishdi. Shuningdek, sahna ko'rinishlari va raqslar bilan kechaga o'zgacha fayz kiritdilar. Bu badiiy chiqishlar barchada yaxshi taassurot qoldirdi.

**Gulmira JAMOLOVA,  
Romitan tumani 11-maktabining 1-“D” sinf rahbari**

# 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

**BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN!**

**"Ayol" so'zi "oila" kalimasi bilan o'zakdoshdir. Biroq 8-mart sanasi haqida gap ketganda "ayol" emas, balki "xotin-qizlar" so'zi keng qo'llaniladi. Ushbu sana tarixiga qaraladigan bo'lsa, xotin-qizlarning o'z huquqlari uchun kurashish kuniga bog'ligligini ko'rish mumkin.**

1857-yil 8-mart kuni N'yu-Yorkning poyafzal hamda tikuv fabrikasi ishchi xotin-qizlari namoyish o'tkazadilar. Ular 10 soatlik ish kuni, yorug' va quruq ish xonalari hamda erkaklar bilan bir xil maosh va saylash huquqini talab qilib chiqadilar. Chunki, o'sha paytlarda juda kam maosh oluvchi ayollar kuniga 16 soat mehnat qilgan bo'lsa, erkaklar 10 soat mehnat qilardi. Shu voqeadan so'ng ayollar tashkiloti tuziladi va birinchi marta xotin-qizlar unga a'zo bo'ladilar.

1910 yil Daniya poytaxti Kopengagenda bo'lib o'tgan xotin-qizlarning II Xalqaro konferentsiyasida 8-mart sanasini Xalqaro xotin-qizlar kuni, deb e'lon qilish va ushbu kunni har yili dunyo miqyosida bayram qilish tashabbusi ilgari surildi. Buning ortidan jahondagi ko'plab mamlakat ayollari qashshoqlikka qarshi kurashish, tenglik, yaxshi sharoitlarda ishslash, o'zlarining sha'ni va huquqlarini himoya qilishga erishish hamda tinchlik yo'lidagi tashabbusni qo'llab-quvvatladilar. 1911-yilga kelib Avstriya, Daniya, Germaniya va Shveysariya singari

Yevropa davlatlarida 8-mart bayram sifatida nishonlandi. Birinchi marta Xalqaro xotin-qizlar kuni 1911-yil 8-mart kuni nishonlandi. Asta-sekin ushbu sanani u yoki bu darajada nishonlanadigan mamlakatlar soni ko'payib bordi. 1957-yilda BMTda 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar ijtimoiy huquqlari uchun kurash kuni, degan yozuv paydo bo'ldi.

1965-yildan boshlab, 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni – dam olish kuni, deb belgilandi. Shu tariqa XIX asr o'rtalarida asos solingan hamda bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida bayram sifatida keng nishonlanayotgan “Xalqaro xotin-qizlar kuni” ayollarga ehtirom, haq-huquqlari himoyasi, ularga bo'lgan g'amxo'rlik va e'tiborning ifodasi bo'lib kelmoqda. Yildan-yilga BMT ayollar manfaatlarini himoya qiluvchi ustuvor mavzularni tanlamoqda. 2013-yilda bu kunda ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi chiqish mavzusi muhokama qilingan bo'lsa, 2014-yilda Ayollar uchun tenglik – hamma uchun taraqqiyot mavzusi kun tartibiga qo'yiladi.

**Muhtarama onaxonlar; qadrli opa-singillar!**

Siz, azizlarni, go'zal bahor bayrami – 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan chin ko'ngildan muborakbod etaman. Sizlarga yuksak hurmat va htironimni bildiraman. Hayotimizning ko'rkni va fayzni, jamiyat va oilanining ustuni bo'lgan xotin-qizlarni hurmat qilish dono xalqimiz uchun azaldan yuksak qadriyat bo'lib kelgan. Zero sizlar bilan hayotimiz mazmunli, xonardonlarimiz esa nurafshondir. Sizlar har bir sohada go'zal ibrat va namuna ko'rsatib kelasizlar.

Maktabgacha ta'lif tizimi faoliyatida ham aziz opa-singillarimiz alohida o'ringa ega. Ular o'z aql-zakovati, tugmas mehri va fidoyiligi bilan doimo barchaga o'rnak bo'lib kelmoqdalar. Ularning bilimu tajribasi va tashabbuskorligiga biz har bir ishimizda tayanamiz. Munis opa-singillarimizning bundan keyingi mehnat faoliyati ham unumli va barakali bo'lsin.

**Muhtarama opa-singillar!**

Yana bir bor bugungi go'zallik va nafosat bayrami bilan sizlarni samimiyl qutlaymiz. Sizlarga uzoq umr, mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va farzandalaringizning kamolini tilab qolaman. Rizqu nasibangiz hamisha ziyoda bo'lsin! Bahor kayfiyati siz, azizlarga, doimo hamroh bo'lsin!

**Bayramingiz muborak bo'lsin!**

**Hurmat va ehtirom ila,**

**Munojot RUSTAMOVA,  
Qorako'l tumanidagi 13-son tayanch DMTT direktori**





**Hayotda qancha kishi bo'lmasin, ularni barchasini ona dunyoga keltirgan. Onalar farzandini oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazishgan. Biz onalarimizning qadriga yetishimiz kerak. Onalar oyog'i ostida jannat, deb bejiza aytishmagan. Onalarimiz – bizning eng katta baxtimiz. Onalarni qadriga yetish – bu barchamizning burchimiz hisoblanadi. Hayotda shunday kishilar ham borki, ular onasini qadrlamaydi, e'zozlaydi. Bunday kishilar hech gachon ulug' martabaga erishmaydi. Ammo shunday kishilar ham borki, ular o'z onasini e'zozlaydi, hurmat qiladi.**


Biz onamizning duosini olishimiz kerak. Ona duosi insonni har qanday balo-qazodan asraydi. Har qanday boylikdan ham ona duosi ustundir. Bizning yurtimizda juda ko'p shoirlar, allomalar, yozuvchilar voyaga yetgan. Ular onalar haqida juda ko'p she'rlar, hikoyalar yozishgan.

Biz ota-onamizga doim ta'zimda bo'lismiz kerak. Onamiz tufayli dunyoga kelganmiz. Ularning borida qadriga yetaylik. Ularni hoziroq hurmatini joyiga qo'yib, e'zozlaylik, bo'lmasa, ertaga kech bo'lishi mumkin. Onani e'zozlagan insonning doim yuzi yorug' bo'ladi.

Romitana tumanidagi 11-maktabining 1-“B” sinf o'quvchilar bilan go'zal bahor bayrami – 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga atab tadbir tashkil qildik. Tadbirda bolajonlar mavzuga oid she'rlar o'qib, qo'shiqlar ijo qilishdi. Shuningdek, sahna ko'rinishlari va raqslar bilan kechaga o'zgacha fayz kirtdilar. Bu badiiy chiqishlar barchada yaxshi taassurot qoldirdi.

Tadbir so'ngida ustozi o'quvchilarimning kelgusidagi o'qishlariga ham omad tilashdi.

**Hilola HOJAYEVA,  
Romitana tumanı 11-maktabining 1-“B” sinf o'qituvchisi**



## USTOZIMGA

*Onamdayin aziz siz,  
Mehribonsiz bunchalar.  
Go'yoki quyosh yanglig',  
Charog'onsiz bunchalar.  
  
Azizsiz doim bizga,  
Ilm berasisiz tinmay.  
Go'yoki ilmingiz,  
Qaynab chiqar chashmadek.  
  
Siz o'qitgan o'quvchilar,  
Biri shoir, biri olim,  
Biri doktor, biri ustozi.  
  
Mehnatingiz ayamasdan,  
Fidoiylik qidingiz.  
Sizga ta'zim, sizga sharaf,  
Sizga bo'lzin shon-shuhrat.  
  
Ko'ksingizni bezab tursin,  
Oltin medal, olqishlar.  
Rahmat dizga, ustozi,  
Yuz yoshga kirib yuring.*

**Zahro DAVRONOVA,  
Vobkent tumanı 8-maktab  
2-“B” sinf o'quvchisi**

## Ayolga ehtirom

**Bizni bu dunyoda borligimiz sababchisi bizni jonidan ortiq ko'ruchchi, bizga tosh otganga jonini otishga tayyor turadigan validayu muhtaramalarimizni qancha e'zozlasak, shuncha oz. Shu bois Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 6-maktabning 2-3-sinf o'quvchilari bilan “Ayolga ehtirom” mavzusida tadbir tashkil qildik.**



8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan tadbirda bolajonlar mavzuga oid she'rlar o'qib, qo'shiq kuylashdi, shuningdek, sahna ko'rinishi namoyish qilishdi.

Tadbirni tashkil qilishda Munisxon Bozorova, Muxlisa Hikmatova, Dildora Ochilova, Gulnora Ergashova singari ustozlarning mehnati singdi.

**Tursunoy CHORIEVA,  
2-“D” sinf o'qituvchisi**



## Yangilanish, yasharish fasli

*Yana bahor keldi, yana olamda,  
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot,  
Men seni qutlayman shu ulug' damda,  
Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot!*

Bahor – fasllar kelinchagi. Bunda gulyaproqlarning muattar hidi, jonasbaxsh yellarning ajib sho'xligi, uyg'ongan hayotning nafisi nafasi qalblarni junbushga keltiradi. Daraxtlar gulga burkanadi, qushlarning orombaxsh sasi olamni tutadi. Ko'r kam ko'klamning huzurbaxsh nafasi ko'ngillarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Butun borliq uyg'onadi. Qir-adirlarda maysalar nish urib chiqa boshlaydi. Qish davomida uyquda bo'lgan dov-daraxt shoxlarida yaproqlar kurtaklarni yorib, quyosh nurlariga talpinadi. Tabiat yashillikka burkanadi. Bog'rog'lar gullarga ko'miladi. Qushlarning sayrashi qalblarga quvonch ulashadi.

Peshku tuman “Barkamol avlod” bolalar maktabida ham bahorning ilk kunidan boshlab atoqli shoira Zulfiyaxonim tavalludining 110 yilligi munosabati bilan adabiyotga, she'riyatga oshno qalbli to'garak a'zolari o'rtaida “Zulfiya ishdoshlari izmida” ko'rik-tanlovi tashkil etildi. Bunda qizlar Zulfiyaxonim ijodidan she'rlar, hayotidan sahna ko'rinishi va shoira she'rlaridan ilhomlanib o'zları yozgan she'rlarini taqdim qilishdi. 8-mart – Xalqararo xotin-qizlar kuni munosabati bilan to'garak a'zolari bilan birgalikda “Ayol borki, olam munavvar!” nomli tadbir o'tkazildi. Tadbir davomida o'quvchilar ayol, ona haqida she'rlar aytdilar hamda onani ardoqlovchi sahna ko'rinishi ijo etdilar. 7-mart kuni to'garak rahbarlarining iqtidorini va ijodiy salohiyatini aniqlash maqsadida “Lobar qizlar” tanlovi tashkil etildi. Tanlov davomida to'garak rahbarlari adabiyotga va pazandachilikga bo'lgan mahoratlarni namoyon qildilar.

Go'zallik, nafosat fasli davom etar ekan, hali tadbirlarimiz yana davom etaveradi.

**Nurali OLIMOV,  
Peshku tuman “Barkamol avlod” bolalar maktabining  
“Tarix” to'garagi rahbari**

**Tumanimiz Farg'ona viloyatining eng mashhur, iqtisodiy jihatdan barqaror, mehnatkash xalqi, ta'mi takrorlanmas uzumlari-yu, bodiring-turplari, hosildor tuprog'i, san'attkor-u shoirlari, sportchilari bilan nafaqat respublikaga, balki butun dunyoga dong taratgan. Shuningdek Oltiariq ziyoratgohlari haqida ham eshitmagan, ma'lumot bilmagan odamlar sanoqli.**

## OLTIARIQ ZIYORATGOHLARI VA ICHKI TURIZM RIVOJI

Biz tarix fani o'qituvchilari o'quvchilarimizga O'zbekiston va jahon tarixini o'rgatish bilan birgalikda qo'shimcha ravishda tumanimiz, qishlog'imiz, yashayotgan mahallamiz, uning nima sababdan bunday nomlanishi, o'zimizdan chiqqan tarixiy va mashhur shaxslar, muqaddas qadamjolarimiz haqida ham ma'lumotlar berib borishimiz zarur.

Shu o'rinda Oltiariqning

mashhur ziyoratgohlari haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman. Povulg'on qishlog'ida joylashgan Umoch ota ziyoratgohi haqida avloddan-avlodga turlicha qarashlar, ma'lumotlar o'tib keladi. O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon: "Umoch otani "Omochchi ota" so'zi bilan bog'lashga urinishadi. Bunday kimsalar yaqin o't mishda "umoch" degan taom bo'lganini, ba'zi bir kampirlar hozirda ham pishirib turishlarini guvohi bo'lganman", -deya fikr bildirganlar.

Abdulaziz Nuriddinovning aytishicha, ushbu ziyoratgoh aslida chiltonlarning qadamjoyi bo'lgan. Keyinchalik Umoch ota ismli solih bir zot obod qilgani uchun ziyoratgoh ham uning ismi bilan nomlangan.

Do'sti Xudo yodgorligi ziyoratgohi ham uzoq tarixga ega maskan. U yerga dafn etilgan shaxsning ismi Atoullobo'lib, uning qo'li tekkan daraxt yoki ko'kat serdaromad bo'lgan. U inson taqdirning taqozosi bilan Bo'rbonliqqa kelib yashagan va shu yerga dafn etilgan.

Oqbo'yra qishlog'ida joylashgan Moy qo'il buva ziyoratgoha xalq tilida Mo'yka buva, Mo'ka buva deb ham ataladi. Qadimda bu yerdagi buloq o'rnida kattagina ko'l bo'lib, suvning usti hamisha moydek yiltirab uni "Moyko'l" buva deyilgan. Hazrat Alining otboqari hazrat Bobo Qambar dafn etilgan ziyoratgoh esa Islom dunyosida Hazrat Alining mashhurligi sabab dovrug' qozonishiga sabab bo'lgan.

Oq ota mozori deb ham

yuritiladigan Bobo Ahtam ziyoratgohi masjid va mozorni o'z ichiga oladi. Bu mozor sahaba Bobo Ahtamning qadamjoyi degan taxminlar ham bor. Rivoyatlarga ko'ra, Ziyarak momo ziyoratgohi bu yerda mavjud bo'lgan qadimiy shahar malikasi ochiqqo'lligi sabab Tangri uning ziragiga nur ato etgan, boshqa rivoyatlarga ko'ra, malika vafot etishidan avval suyukli ziragi bilan dafn etishni vasiyat qilgani sabab shunday nomlangan.

Tumanimizda joylashgan bu kabi ziyoratgohlar talaygina. Bugungi kunda ushbu qutlug' maskanlar aholi tomonidan obod qilinib, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratib kelinmoqda. "Moziya qaytib ish ko'rmoq xayrlidir" deganlaridek, ziyoratgohlarimizni obodonlashtirish orqali ham aziz avliyolarimizning ruhlarini shod etamiz, ham ichki turizm barqarorligiga erishamiz.

**Odinaxon JO'RABOEVA, Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 24-maktab tarix fani o'qituvchisi**

### Oyimning hikoyasi



**Oyimning aytishlaricha, bir oilaning besh nafar azosi ota-on, aka va singil bo'lgan ekan. Ularning hayoti juda qiyinchilik bilan o'tar ekan. Ota va ona kechqurun bilan ishlashar ekan. Farzandlarining kelajagi uchin qayg'urisharkan.**

**Ota va ona ishlaydigan ishxonalariga oddiygina kiyinib borishar ekan. Ularning atrofidagilar mensimas, kiyib borgan kiyimlarini ko'rib, miyg'ida kulib qoyishar, ularni nazar pisand qilishmas ekan. Ular Allohdan faqat farzandlarining buyuk inson bo'lishini va kambag'al oilalarga yordam berishini, ayniqsa, uni mensimagan insonlar farzandlaridan yordam kutub, uning eshididan yordam so'rabb kelishini ko'ngli sezar ekan.**

Kunlar ketidan kunlar o'tib, u ayolning katta qizi eng zo'r, dong'i ketgan jarroh bo'libdi. Ularning o'qishlari uchun ota va ona o'z sog'liklarini o'ylamasdan harakat qilishibdi. Bolalar ham yutuqlaridan havolanmasdan, o'zlarini juda ham kamtarona tutishar ekan. Chunki ularga ota-onalari yaxshi tarbiya berishgan ekanlar-da. Bu orada ona hayot mashaqqatlaridan charchab, og'ir betob bo'lib qolibdi. Bolalar bundan juda qayg'urishibdi. Ona bolalarini chaqirib, bolalarim, sizlar hayotda faqat yaxshilik qilinglar, qilgan yaxshiliklarinig ertaga menga yetib boradi, deya dunyodan ko'z yumdi. Ota va farzandlari bo'zlab qolishdi. Ota-onalarining bergan o'gitlari tufayli farzandlar faqat nochor insonlarga yaxshilik qilishdan to'xtamas ekan. Bolalarning tushida faqat onalari jannatning bog'larida sayru-sayohat qilgani kirardi. Bu oila hayotlarini mazmunli yashab o'tishdi. Va bolalariga eng katta tarbiyalari – insonlarga yaxshilik qilishdek o'rnakni qoldirib ketishdi.

**Asilaxon ISLOMOVA, Kogon tuman 20-maktabning 2-sinf o'quvchisi**

### Ona

**Kunlar o'tib boryapti,  
Umr o'tib ketyapti,  
Men-chi, parvoyim palak,  
Onam qarib boryapti.**

**Ba'zan jaxl qilaman,  
Betiga tik boqaman.  
Men qandayim qizingman,  
Onam qarib boryapti.**

**Qo'lidan olib ishni,  
Chopmaymanmi, tort tomon.  
Yo'q-yo'q, aksincha, men yomon,  
Onam qarib boryapti.**

**Jami dunyo gullarin**



**Senga tortiq qilaman.  
Ishon, menga, onajon,  
Yaxshi qizing bo'laman!**

**Feruza HALIMOVA,  
Romitan tuman "Barkamol avlod"  
bolalar maktabi "Rejissorlik, jurnalistika  
va notiqlik" tarmoq togarak oquvchisi**

### Oila – muqaddas qo'rg'on



**Oila azal-azaldan muqaddas qo'rg'on sanalgan. Inson oilada dunyoga keladi, ulg'ayib kamol topadi. Eng avvalo oila mustahkam, tinch bo'lsa, jamiyat barqaror bo'ladi. Unib o'sayotgan farzandlar har tomonlama barkamol bo'lishiga imkon yaratiladi.**

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq oilaning jamiyatda tutgan o'rnini yanada oshirish, uni huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma-naviy-ahloqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, oilada tibbiy madaniyatni shakllantirish, sog'lom oila vujudga kelishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy sharoitlarini yaratish, oila ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarni tizimli bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi.

Mamlakatimizda oila institutini himoyalaydigan mustahkam huquqiy poydevor yaratilgan. Oila munosabat-larini mustahkamlash, ularning barqaror rivojlanishi uchun ko'plab qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar jamiyatimiz-ning rivojlanishi va oilalarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda eng dolzarb ahamiyat kasb etayotgan masalalardan biri erta nikohlar, yosh yigit-qizlarning oila qurishga tayyor emasligi, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi quda-andachilik muammosidir. Shuningdek, oilaviy kelishmovchiliklari, o'zaro janjallar oqibatida yosh oilalarning buzilib ketishi ham jiddiy tashvish uyg'otadi. Erta nikohlarni oldini olish, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, qaynona-kelinlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik borasida Jondorda oilaning keksalari, qo'ni-qo'shnilar bilan bir qatororda mahalla faollari, oqsoqollari, shuningdek, FXDY organlari xodimlari hamkorligida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Mahallalarda, kasb-hunar kollejlariда hamda korxona va tashkilotlarda yig'ilishlar o'tkazilib, yuqoridaq muammolar haqida davra suhbatlari o'tkazilmoqda.

**Zuxro ERKINOVA,  
Jondor tumani FHDY bo'limi 1-toifali inspektori**

## HAROMDAN HAZAR QILMADI

**O. OQILOVA** (ism-familiyalar o'zgartirilgan) g'arazli va past niyatlarda moddiy manfaatdor bo'lish maqsadida qasddan jinoyat sodir qilish yo'liga o'tib, 2024-yil 7-noyabr' kuni soat 18:30 larda o'zining ijara yashab kelayotgan Jondor tumani, Navgadi mahallasi, Navgadi ko'chasida joylashgan yashash uyi yotoqxonasida fuqaro B.Shoirov va .Qosimovaning jinsiy aloqa qilishlari uchun 100.000 so'm pul evaziga sharoit yaratib berib, fohishaxona saqlaganligi Jondor tumani IIB JQB xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida aniqlandi.


Sudda sudlanuvchi aybiga to'liq iqrorlik va pushaymonlik bildirib, qilmishidan pushaymonligini, unga qonuniy yengillik berishni so'rab ko'rsatma berdi. Shuningdek, guvohlar, ya'ni nafs qullari, shahvoniy istaklariga mute bo'lganlariga iqror bo'lischdi.

Sud, tomonlar fikrini, sudlanuvchi va guvohning ko'rsatmasini eshitib, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqib, O. Oqilovaga bir yil ozodlikni cheklash jazosi tayinladi.

Bu voqealardan haromdan hazar qilmaydigan ba'zi kimsalarga "dars" bo'lsa, ne ajab...

**Yashin NIYOZOV,**

Jinoyat ishlari bo'yicha Kogon shahar sudining raisi



**Конунчиликка кўра, давлат органи, ташкилот ёки уларнинг мансабдор шахсига келиб тушган мурожаат ўша куннинг ўзида, иш вақти тугаганидан кейин келиб тушган тақдирда эса, кейинги иш куни рўйхатдан ўтказилиши керак.**

Бунда, мурожаатни рўйхатдан ўтказишни рад этишга йўл кўйилмайди. Давлат органларида, ташкилотлarda мурожaатlарни рўйхатdan ўtказish daftari yuritiliib, unda murojaatning tartib raqami va keliib tushgan sanasi, murojaat etuvchi jismoniy shaxsnинг fамилияси (ismi, otasining ismi), yuridik shaxsnинг nomi, murojaatning qisqacha mazmuni, ijrrosi tўfriqidagi belgi, shuningdek, boshqa maъlumotlar kўrsatildi.

**Шоҳруҳ ТЎХТАЕВ,**  
Вобкент туман ДҲМ директори

Davlat xizmatlari yagona  
reyestriga o'zgartirish  
va qo'shimchalar  
kiritildi!



## DAVLAT XIZMATLARI SONI 1001 TANI TASHKIL ETMOQDA

**Davlat xizmatlari yagona reyestrining (ro'yxat raqami 3467, 2023-yil 27-oktabr) dolzarbli ta'minlanmoqda.**

Reyestriga kiritilgan so'nggi o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan:

- 29 ta yangi davlat xizmati qo'shildi;
- 12 ta davlat xizmati chiqarildi.

Shunga ko'ra, jami davlat xizmatlari soni 1001 tani tashkil etmoqda. Reyestriga kiritilgan yangi davlat xizmatlari:

- ovchilik guvohnomasi berish;
- mehmonxona mavjud bo'ligan tuman (shahar)larda kichik otellar qurish va ularni jihozlash xarakatlarning bir qismini qoplash;
- xavfli ishlab chiqarish obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning rahbar va muhandis-texnik xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va boshqalar.

Eslatma: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi 5278-soni Farmoniga asosan Reyestga kiritilmagan davlat xizmatlari ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

**Shavkat XASANOV,**  
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i

## MAST HAYDOVCHINING TAQDIRI



**J.NOSIROV** (ism-familiyalar o'zgartirilgan) 2025-yil 24-fevral' kuni taxminan soat 14:50 larda "Matiz" rusumli, 80V236TA davlat raqam belgili transport vositasida alkogolli ichimlik ta'siridan mast holda Kogon shahar, "Do'stlik" ko'chasi bo'ylab "Baraka" savdo do'konini yo'naliishi harakatlanayotganida, amaldagi yo'l harakati qoidalarining 3-, 53- va 77-bandlari talabini qo'pol ravishda buzib, yo'naliishi bo'ylab harakatlanayotgan Ulug'jon Hotamov boshqaruvdagagi "VAZ-21099" rusumli avtomashinani o'ng tomon yon qismidan urib, yo'l-transport hodisasi sodir etganligi natijasida transport vositasiga 2.239.328 so'mlik ancha miqdordagi moddiy zarar yetkazib, hodisa yuz bergan joyidan ketib qolgan.

Sud, huquqbuzarga jazo tayinlashda uning aybiga iqrorligini, sodir etilgan huquqbazarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini, huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olib, e'tiborni uni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, yangi huquqbazarlik sodir etilishining oldini olishga qaratdi.

Sud qaroriga ko'ra J.Nosirov uch yil muddatga transport vositarini boshqarish huquqidan mahrum etilib, unga 15 mln so'mlik jarima jazosi solinishi belgilandi. Huquqbuzardan jabrlanuvchi foydasiga 2.239.328 so'mlik moddiy zarar undirilishi ham shular jumlasidandir.

Mast holda avtomobil' boshqarishning "foyda" si shunday bo'ladi. Bu orqali haydovchi o'zi va boshqalarning hayotini xavf ostiga qo'yishi qanchalar adolatli?..

**Bobir UMAROV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha Kogon shahar sudining  
sud'yasi

**"Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi Prezident Farmoni (43-soni, 05.03.2025 y.) qabul qilindi. Farmonga ko'ra, Kadastr agentligi huzurida Ko'chmas mulkni ommaviy baholash milliy markazi tashkil etiladi.**

## KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASH MILLIY MARKAZI TASHKIL ETILADI

Shuningdek, quydagilar belgilandi:

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi – ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ etib;
- Kadastr agentligi – ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasida maxsus vakolatli organ etib;
- Milliy markaz – ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasida ijro etuvchi organ etib.

Ommaviy baholash tizimini normativ-huquqiy va uslubiy jihatdan ta'minlash uchun "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash uslubiyoti" belgilangan tartibda tasdiqlanadi. 2026 yil oxirigacha Toshkent shahridagi eksperiment natijalari, ilg'or xorijiy tajriba hamda xalqaro ekspertlarning xulosalari va tavsiyalari asosida "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi.

2025-yil 1-noyabrgacha ko'chmas mulkni ommaviy baholash uslubiyotiga asosan quydagilar ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi:

- "Ko'chmas mulk bozori monitoringi" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash" avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

**Faxrod TO'RAYEV,**  
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i

## 2025-yil 15-martdan 15-aprelga qadar respublikada “Favqulodda yaziylardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi”

### QANDAY HOLLARDA IS GAZIDAN ZAHARLANISH MUMKIN?

Shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan, organik moddalar ishlab chiqaradigan korxonalar, avtoturargohlar, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, pechka bilan isitiladigan uylar, hammomlar, dam olish palatkalarida, shuningdek, uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi oqibatida is gazidan zaharlanish mumkin. Is gazining eng kam miqdori ham zaharlanish uchun yetarli bo'ladi. Inson o'zida holsizlanish alomatlarini his qilmagunicha uning borligini sezmaydi.

H. HOJIYEV,  
"LUOK" MCHJ Buxoro viloyatidagi OYXTTEB P va NB katta inspektori, podpolkovnik

### OLDINI OLGAN AFZAL

Yong'inlarning aksariyati kishilarning loqaydligi, beparvoligi, yong'in xavfsizligi qonun-qoidalariiga riosa qilmasliklari va bolalarning olov bilan o'ynashlari natijasida yuzaga kelmoqda. Shu sababli kutilmaganda yong'in sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligini o'rgatish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanishni amalda ko'rsatib tushuntirish muhim.

Binobarin, yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan tez-tez aholi ko'p yig'iladigan joylarda tadbirdar o'tkazib turilishi, yong'inlarning ayanchli oqibatlari aks etgan plakatlar, videoroliklar, ko'rgazmali chiqishlar namoyish qilinib borilishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

"Yong'inni o'chirgandan ko'ra, uning oldini olish maqsadga muvofiq" shioriga amal qilib, nazoratni kuchaytirsak, bir yoqadan bosh chiqarib, yong'in xavfsizligi qoidalariiga amal qilsak, "Tilsiz yov" ni osongina jilovlay olamiz.

O. DJUMAYEV,  
"LUOK" MCHJ Buxoro viloyatidagi OYXTTEB P va NB katta inspektori, mayor

### "OG'ZI POLVON" UKANI JAZOLAGAN AKA

**Hoshim Bobomurodov (ism-familiyalar o'zgartilgan)**  
**2024-yil 24-oktyabr' kuni soat 10:00 larda Buxoro shahar, Navro'z ko'chasi, 95-uy yaqinidagi mebel tuzatish sexi yaqinida ukasi Halim bilan o'zaro janjallahшиб, janjal vaqtida ukasini o'ng qo'l mushti bilan urib, unga og'ir tan jarohati yetkazgan.**

Aslida voqeа bunday bo'lган: Halim o'z otasiga qo'pol munosabatda bo'ladi. Buni ko'rgan aka uni tartibga chaqirgan. Ammo, uka otaga ovozini baland ko'targani to'g'ri ekanini ta'kidlagan.

Shunda aka o'zini tutib turolmagan. Halim musht ta'sirida muvozanatni yo'qotib, yerga yiqilib tushgan va hushidan ketgan.

Uka sudda bu "ish"ga o'zi sababchi ekanligini, akasiga biror da'vo yoki e'tirozi yo'qligini aytib, qondoshiga qonun doirasida yengillik berilishini so'radi. Biroq, birovg'a tan jarohati yetkazishga hech kimning haqqi yo'q. Shu bois Hoshim Bobomurodov qonun oldida aybiga yarasha jazo oldi. Sud hukmi aka va ukaning qilgan ishlardan pustaymon bo'lishini ta'minladi.

Dilshod NAIMOV,  
Jinoyat ishlari bo'yicha Buxoro shahar sudining sud'yasi

### XALQARO SHARTNOMA: MIGRATSIYA VA MOBILLIK



**"Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida"gi President qarori (PQ-91-son, 04.03.2025 y.) qabul qilindi.**

Qarorga ko'ra, O'zbekiston va Germaniya Federativ Respublikasi Hukumatlari o'rtasida migratsiya va mobillik sohasida keng qamrovli sheriklik to'g'risidagi bilot tasdiqlandi.

Bitim 2024 yil 15 sentyabrdan Samarcand shahrida imzolangan.

Shartnomani amalga oshirish uchun, Migratsiya agentligi tashqi mehnat migratsiyasi qismi bo'yicha, Ichki ishlar vazirligi readmissiya qismi bo'yicha mas'ul bo'lган vakolatli organlar etib belgilandi.

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnomani kuchga kirgandan keyin belgilangan tartibda uning qoidalari amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Marhabo AKOBIROVA,  
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi Call-sentr mutaxassis

### ZILZILA, YER QIMIRLASHI

Zilzila, yer qimirlash – yer po'stida yoki mantiyaning yuqori qismida to'satdan siljish, shinsh yoki o'pirilish ro'y berishi oqibatida vujudga keladigan va to'lqinsimon tebranishlar tarzida uzoqlarga tarqaladigan yer osti silkinishlari va tebranishlari. Sabablariga ko'ra, tektonik, vulqoni va o'pirilish zilzilalariga bo'linadi. Yer po'stining har xil chuqurligida tabiiy kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan silkinishlar tektonik zilzilar deviladi. Ular yer qa'ridagi harakat va jarayonlarning mahsuli bo?lib, bu jarayonlarning kinetik qvvat tarzida birdan (1 min.da) sarflanishi oqibatidir.

J. XAKIMOV,  
"LUOK" MCHJ Buxoro viloyatidagi OYXTTEB P va NB inspektori, kapitan

### TURAR JOY QURILISHIDA SHAHARSOZLIK TALABLARI

Shahar, turar-joy hududiga yoki alohida turar-joy uyiga yer sathini tanlash o'ta ma'suliyatli ishdir, chunki bu yerda aholining yashashi uchun hamma shart-sharoitlar mavjud bo'lishi va kelgusi avlodlarning yashashlarini hisobga olish zarur. Shuning uchun, bir qator talablar bilan chegaralangan holda alohida turar uy joyini qurish uchun maydon tanlanadi. Ushbu tanlangan yer maydoni turar uy joy uchun yer sathi balandroq, ya'ni suv to'planmaydigan, ko'kalamzorlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan, undan tashqari, sanoat va ishlab chiqarish korxonalaridan sanitariya-gigienik jihatdan uzoqroq masofada bo'lishi kerak.

SH. ASHUROV,  
"LUOK" MCHJ Buxoro viloyatidagi OYXTTEB P va NB inspektori, leytenant

### IS GAZI ORGANIZMGA QANDAY TA'SIR QILADI?

Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etib, avvalo, qonga kiradi va gemoglobin hujayralarini zararlaydi. Shundan so'ng gemoglobin kislorod tashish qobiliyatini yo'qotadi. Odam bu gazdan qancha ko'p nafas olsa, uning qonida gemoglobin shunchalik kamayadi va tanada kislorod yetishmovchiligi – gi poksiya paydobo'ladi. Is gazidan zaharlanishdan so'ng gemoglobin hujayralarini tiklash uchun ko'p vaqt talab etiladi.

SH. MUSTAQIMOV,  
"LUOK" MCHJ Buxoro viloyatidagi OYXTTEB P va NB katta inspektori, leytenant

### QURILISH MAYDONLARIDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH TALABLARIGA RIOYA ETMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANDI

**Qonun (O'RQ-1042-son, 03.03.2025 y.) bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritildi.**

Qonunga ko'ra, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariiga riosa etmaganlik uchun javobgarlikni belgilovchi qo'shimchalar va o'zgartirish kiritildi.

Bunda:

- o'lchami besh yuz kvadrat metr va undan ortiq bo'lган qurilish maydonida, unga tutash bo'lган hududda hamda undan chiqish yo'llarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablarni buzish yoxud ushbu hududlarda ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlardan ortiq darajada atmosfera havosiga chiqarilishiga yo'l qo'yish:

- mansabdar shaxslarga BHMning 10 baravari (3 mln 750 ming so'm) miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huququzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa:

- mansabdar shaxslarga BHMning 50 baravari (18 mln 750 ming so'm) miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy o'tgach kuchga kiradi.



Hayotjon NASRIYEV,  
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassis

## QONUNLAR NORMALARINING ANIQ VA BIR XIL QO'LLANILISHI TA'MINLANADI

**"Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-1038-son, 25.02.2025 y.) qabul qilindi.**

Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga va "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunga Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining jinoyat ishlari bo'yicha tergovni yuritish borasidagi vakolatlari aniqlashtirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bundan tashqari, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Byudjet kodekslariga Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat moliyaviy nazorati organlarining vakolatlari Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyyasining zimmasiga yuklatilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoxda.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Feruza TURSUNOVA,

Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisini

## O'ZINI O'ZI BAND QILGAN SHAXSLAR SHUG'ULLANISHI MUMKIN BO'LGAN FAOLIYAT TURLARI KENGAYTIRILDI

**"Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident (78-son, 27.02.2025-y.) qaroriga ko'ra, yengil avtotransport vositalarida yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga kiritiladi hamda ular ushbu faoliyat bilan itsenziya varaqasi asosida shug'ullanishi belgilanadi.**

2025 yil 1 apreldan soliq organlari xodimlari tomonidan ularga biriktirilgan korxonalarda yoki mahallalardagi tadbirkorlik sub'ektlarida belgilangan soliqqa oid huquqbazarliklar aniqlanganda quyidagi tartib joriy etiladi:

- birinchi marta ogohlantirish;
- ogohlantirishdan so'ng 3 kun muddatda soliqqa oid huquqbazarlik bartaraf etilmagani yoki takroran aniqlangani sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishga asos bo'lishi;
- sayyor soliq tekshiruvini 24 saat ichida "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatga olish orqali Biznes-ombudsmani xabardor etish tartibida amalga oshirishga ruxsat etish;
- sayyor soliq tekshiruvni natijalari bo'yicha rasmiylashtirilgan dalo-latnomha sayyor soliq tekshiruvni bo'yicha qaror qabul qilish uchun asos bo'lib hisoblanishi.

Mohira JO'RAYERVA,  
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi  
yetakchi mutaxassisi

## TRANSPORT VOSITASINI ISHLAB CHIQARUVCHI YURIDIK SHAXSLARGA TRANSPORT VOSITASINING IDENTIFIKATSİYA RAQAMINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT XIZMATINI KO'RSATISHNING MA'MURIY REGLEMENTI

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagagi "Transport vositasini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarga transport vositasining identifikatsiya raqamini shakllantirish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglementini tasdiqlash to'g'risida" gi 127-son qarori sohani yanada rivojlantirishda ayni muddao bo'ldi.**

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruviniz shakllantirish to'g'risida" 2024-yil 24-maydag'i 80-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, transport vositasini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarga transport vositasining identifikatsiya raqamini shakllantirish ishlarning yagona tartibini belgilash va uning shaffofligini ta'minlash hamda xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish maqsad qilingan.

Shunga ko'ra Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 14-martdag'i 220-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasini huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston

standartlar institutiga transport vositalarini ishlab chiqaruvchilarning xalqaro identifikatsiya kodini berish vazifasi yuklanganligi ma'lumot uchun qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Transport vositasini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarga transport vositasining identifikatsiya raqamini shakllantirish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglementi ilovaga muvofiq tasdiqlansin deyiladi qarorda:

- davlat xizmati ko'rsatishini O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rnlarda – YIDXP) orqali tashkil etish;
- transport vositalarining identifikatsiya raqamining tuzilishi va mazmuni;
- transport vositalarining identifikatsiya raqamini shakllantirish tartibi.

Shuningdek, qarorda Vazirlar Mahkamasini huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga

## XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHI UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATILADI

**"Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-78-son, 27.02.2025-y.) qabul qilindi.**

Qarorga ko'ra, 2025-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

- xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish;
- sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash;
- 52,2 mingta xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish.

Prezidentning 2022-yil 27-yanvardagi 104-son qarorida nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlarga 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha uzaytirildi.

2025 yilda quyidagi miqdorida kredit mablag'lari yo'naltiriladi:

- xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun 67,4 trillion so'm;
- xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik sub'ektlariga noturar joylarni lizingga berishga 4,5 trillion so'm.

Hududlarda 2025-yilda quyidagi 652 ta drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta'minlash uchun 1 trillion so'm yo'naltiriladi:

- 72 ta sohil bo'y dam olish maskanlari;
- 62 ta zamonaviy qiyofadagi istirohat bog'lari;
- 154 ta tunu kun faoliyat yuritadigan turizm va gastronomik yo'nashlarga ixtisoslashgan savdo va ko'ngilochar ko'chalar;
- 364 ta yo'l bo'y va boshqa servis ob'ektlari.

Shoira RAMAZONOVA,  
Vobkent tuman davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisi

## DAVLAT XIZMATLARI MARKAZLARI

**Davlat xizmatlarining asosiy tamoyillaridan biri – ochiqlik va qulaylik. Shu bois Davlat xizmatlari markazlari zamonaviy arxitektura talablariga mos ravishda tashkil etilib, fuqarolar uchun eng qulay sharoitlar yaratilgan.**

Har bir fuqaro o'ziga kerakli davlat xizmatlarini olish uchun ushbu markazlarga bemalol tashrif buyurishi va tezkor hamda sifatli xizmatlardan foydalanishi mumkin.

Davlat xizmatlari markazlarining asosiy vazifalari:

- jismoniy va yuridik shaxslarga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha, shu jumladan olis joylarga chiqqan holda davlat xizmatlari ko'rsatish;
- davlat xizmatlari servisining yuqori sifati, tezkorligi, shaffofligi, qulayligi va foydalanim imkoniyatini ta'minlash, mazkur sohada byurokratiya, sansolorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarga yo'l qo'ymaslik;
- idoralararo hamkorlikni, eng avvalo, davlat xizmatlari ko'rsatish uchun zarur hujjat va axborotlarni tezkorlik bilan olishni ta'minlovchi elektron hamkorlikni amalga oshirish;
- davlat xizmatlari ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali axborot va maslahat yordamlarini taqdim etish;
- vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatishda qonun hujjatlari va ma'muriy reglamentlar talablariga roya etilishini ta'minlash.

Abdulaziz JO'RAEV,  
Jondor tuman DXM bosh mutaxassisi

solish agentligi, Adliya vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda:

- bir oy muddatda ushbu qaror bilan tasdiqlangan Reglamentga muvofiq davlat xizmati ko'rsatishni Davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali joriy etilishini ta'minlasin;

- Davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXPda davlat xizmati ko'rsatishining har bir bosqichida murojaatlar ko'rib chiqilishini kuzatib borish tartibini joriy etsin deyiladi.

Adliya vazirligiga esa davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ular tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatishining belgilangan tartibiga roya etilishi yuzasidan, shu jumladan, YIDXP orqali doimiy nazorat hamda monitoring o'rnatisht, ushbu qaror bilan tasdiqlangan Reglament talablarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy jazolarni qo'llash belgilab berilgan.

Sardor ZARIPOV,  
G'ijduvon tuman DXM xodimiyetakchi  
mutaxassisi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydag'i "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi 80-som farmoni adliya organlari xalqqa yaqinlashtirdi.**

## Adliya organlarini xalq bilan hamnafas qilgan farmon

Farmonda quyidagilar adliya organlarining qo'shimcha faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

- aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahsil qilish va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rib borish;

- joylarda aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish;

- fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirib borish;

- davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish.

Adliya organlari faoliyatini hududlarda samarali tashkil etish hamda huquqiy xizmatlar qamrovini yanada oshirish maqsadida tuman (shahar) adliya bo'limlariga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi:

- joylarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan dolzarb muammolarni ko'rib chiqish va hal etish uchun har oyda mahallalarda "Adliya kuni" tadbirlarini o'tkazish. Bunda olis hududlardagi mahallalarda har oyda kamida ikki marotaba sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatib borish;

- uyma-uy yurish va "Huquqiy ko'mak" aksiyalarini o'tkazish orqali fuqarolar kundalik hayotida aniqlanadigan huquqiy muammolarni bartaraf etish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- "mahalla yettiligi"ga qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini oddiy va xalqchil tilda yetkazish, shuningdek, ular tomonidan "Online-mahalla" platformasiga kiritilgan aholining kundalik hayotidagi huquqiy masalalarga oid muammolarini hal etib borish;

- aholiga, avvalambor "Temir daftari", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" hamda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga kiritilgan fuqarolarga bepul birlamchi yuridik yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

- yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni, shuningdek, tadbirdorlik subyektlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan imtiyozlar, preferensiylar, subsidiyalar, grantlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning boshqa turlari hamda ulardan foydalaniш tartibi haqida xabardor qilish;

- davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) bo'linmalari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirishda ularga metodik yordam ko'rsatib borish.

Farrux FAYZULLOEV,  
G'ijduvon tuman DXM xodimi

## Qaysi o'qituvchilar attestatsiyadan ozod qilinadi, qaysilariga esa to'g'ridan-to'g'ri malaka toifasi beriladi?

Hukumat qaroriga (130-som, 28.02.2025 y.) ko'ra:

1. Navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmagan, shuningdek, attestatsiyadan o'tganlik muddati tugagan va amaldagi malaka toifasi saqlanib qolgan quyidagi pedagoglar majburiy attestatsiyaga jalb etilmaydi hamda ularga amaldagi malaka toifasi (lavozimi) bo'yicha haq to'lanadi:

- oliy malaka toifasiga (bosh o'qituvchi lavozimiga) ega bo'lganidan so'ng ushbu toifani (lavozimni) 15 yil davomida saqlab kelgan va uzlusiz ish stajiga ega bo'lgan;

- pedagogik faoliyat bo'yicha 25 yil va undan ko'p ish stajiga ega bo'lgan;

- yoshga doir pensiyaga chiqishi uchun 5 yildan ko'p bo'lmagan vaqt qolgan;

- pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan pensiya yoshiga to'lgan pedagoglar.

2. Quyidagi talablardan biriga javob beradigan pedagoglarga to'g'ridan-to'g'ri malaka toifasi (lavozimi) beriladi:

- pedagogik faoliyat bo'yicha 25 yil va undan ko'p ish stajiga ega bo'lgan pedagoglarga – ularning amaldagi malaka toifasi (lavozimi);

- yoshga doir pensiyaga chiqishi uchun 5 yildan ko'p bo'lmagan vaqt qolgan pedagoglarga – ularning amaldagi malaka toifasi (lavozimi);

- oliy malaka toifasiga (bosh o'qituvchi lavozimiga) ega bo'lganidan so'ng ushbu toifani (lavozimni) 15 yil davomida saqlab kelgan va uzlusiz ish stajiga ega bo'lgan pedagoglarga – oliy malaka toifasi (bosh o'qituvchi lavozimi).

Otabek HAMROEV,  
Qorako'l tuman Adliya bo'limi  
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti

## Fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar ko'rsatish tartibi haqida nimalarni bilasiz?

## Fuqarolar yig'ini raisining vakolat muddati qancha?

**Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risidagi qonunning 16-moddasiga ko'ra Fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikri inobatga olingen holda ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.**

Ishchi guruh fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni tayyorlaydi va tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga saylovdan kamida o'n kun oldin taqdim etadi. Hujjatlarga fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlarning o'z nomzodi ko'rsatilishiga yozma roziligi ilova qilinadi.

Tuman yoki shahar hokimi fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga taqdim etilgan nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqadi va o'zining ushbu nomzodlar bo'yicha asoslanitirilgan xulosalarini keyinchalik ishchi guruhlarga topshirish uchun tegishli komissiyalarga yuboradi.

Ishchi guruh tuman yoki shahar hokimining xulosasini olganidan keyin fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga kelishilgan nomzodlar haqidagi axborotni saylovdan kamida besh kun oldin fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yadi.

Qonun (O'RQ-1027-som, 11.02.2025 y.) bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi va "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi qonunlariga fuqarolar yig'ini raisi vakolatlari muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilishini, bo'shab qolgan o'rinnarga fuqarolar yig'ini raislarining 5 yil muddatga saylanishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Azamat RAXMONOV,  
Qorako'l tuman Adliya bo'limi  
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

## Mehnat shartnomam xodimni tashabbusiga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 160-moddasi 4-qismiga) bekor bo'lganda xodimga qanday to'lovlar amalga oshiriladi

**O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 172, 254-moddalariga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodim bilan hisob-kitob qilinishi kerak.**

Hisob-kitob xodimga:

- oxirigacha olinmagan ish haqini;

- xodim tomonidan foydalanimagan barcha asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalarni;

- agar mehnat to'g'risidagi qonunchilikda yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida boshqa to'lovlarini to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu to'lovlarini to'lashni o'z ichiga oladi.

Ish beruvchi tomonidan xodimga tegishli bo'lgan barcha summalarini to'lash xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan kunda amalga oshiriladi.

Agar xodim mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni ishlamagan bo'lsa, tegishli summalar hisob-kitob qilish to'g'risida xodim tomonidan talab qo'yilganidan keyin 3 kundan kechiktirmay to'lanishi kerak.

O'zi bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimga mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyingi davrda biror bir to'lovlar (oy, chorak, yil yakunlari bo'yicha mukofotlar) hisoblangan taqdirda, ushbu to'lovlar xodim tomonidan tegishli talab qo'yilganidan keyin uch kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 234-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanimagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya to'lanadi.

Demak, mehnat shartnomasi bekor bo'lganda amaldagi qonunchilikka asosan barcha tegishli to'lovlar to'liq to'lanishi kerak.

Xushnud XAYDAROV,  
Qorako'l tuman Adliya bo'limi  
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti

## Intizomiy qilish deganda nima tushuniladi?

**Xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishi xodimni intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.**

Intizomiy qilmish deganda xodim tomonidan o'z mehnat majburiyatlarini aybli tarzda, g'ayriqonuniy ravishda bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi (mehnat (lavozim) majburiyatlarining buzilishi) tushuniladi.

**Qanday hollarda xodimni intizomiy javobgarlikka tortish mumkin emas?**

Agar xodimning o'z mehnat (lavozim) majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi xodimga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra yuz bergan bo'lsa (xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarish uchun ish beruvchi tomonidan zarur shart-sharoitlar ta'minlanmaganligi, fors-major holatlari va hokazolarda), xodimni intizomiy javobgarlikka tortishga yo'l qo'yilmaydi.

**Asos:** Mehnat kodeksining 301-moddasi

**D.HAKIMOV,  
G'ijduvon tuman yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi boshlig'i**

## Kimlar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma tuzish mumkin?

**Mehnat kodeksi 342-moddasiga ko'ra,  
yetkazilgan zarar uchun to'liq miqdordagi moddiy  
javobgarlik quyidagi hollarda xodimning zimmasiga  
yuklatiladi:**

- 1) to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida o'ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning kamomadida;
- 2) xodim tomonidan bir martalik hujjat (tovar-moddiy qimmatliklarni olish ishonchnomasi, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazolar) bo'yicha olingan boyliklarning but saqlanishi ta'minlanmaganda;
- 3) qasddan zarar yetkazilganda;
- 4) alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazilganda;
- 5) xodimning sud tomonidan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar yetkazilganda;
- 6) ma'muriy huquqbazarlik natijasida zarar yetkazilganda, agar bu tegishli davlat organi yoki sud tomonidan aniqlangan bo'lsa;
- 7) davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni (tijorat, xizmat sirini yoki boshqa sirlarni) tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor qilinganda;
- 8) xodim mehnat majburiyatlarini bajarmagan taqdirda zarar yetkazilganda.

To'liq moddiy javobgarlik Mehnat kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan o'zga hollarda ham xodimning zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Tashkilot rahbari, uning o'rinosarlar, tashkilot bosh buxgalteri, tashkilot alohida tuzilmasi rahbari ushbu Kodeksning 488-moddasiga muvofiq to'liq moddiy javobgar bo'ladi.

Mehnat kodeksi 342-moddasiga ko'ra, pul yoki tovar qimmatliklari bilan bevosita muomala qilayotgan xodim to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida o'ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning but saqlanishini ta'minlamaganlik uchun to'liq moddiy javobgar bo'ladi. Pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilish o'z xizmat vazifasiga kirmaydigan xodim bilan tuzilgan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma tuzish bo'yicha tavsiyalarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 15-maydag'i 11-2023/B-son buyrug'iga (Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 12-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3443 ) ilova xodim bilan to'liq yakka tartibdag'i moddiy javobgarlik yoki jamoaning (brigadaning) to'liq moddiy javobgarligi to'g'risida shartnoma tuzish bo'yicha tavsiyalarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 20-iyuldag'i 61-2023/V-son buyrug'iga ilovada (Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 21-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3452) to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida o'zi bilan yozma shartnomalar tuzilishi mumkin bo'lgan xodimlar egallaydigan lavozimlar va ishlarning namunaviy ro'yxati belgilangan.

**Jamshid QAHRAMONOV,  
Qorako'l tuman Adliya bo'limi  
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuristkonsulti**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdag'i "Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ularish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 256-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik va jismoniy shaxslarni gaz tarmoqlariga ularish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning" ma'muriy reglamentiga asosan iste'molchilar gaz tarmoqlariga ularish uchun Davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etadi yoki YIDXPa davlat xizmatidan elektron tarzda foydalananish uchun ro'yxatdan o'tadi.**

## Gaz tarmog'iga ularish tartibidan xabardormisiz?

- 1) to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida o'ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning kamomadida;
  - 2) xodim tomonidan bir martalik hujjat (tovar-moddiy qimmatliklarni olish ishonchnomasi, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazolar) bo'yicha olingan boyliklarning but saqlanishi ta'minlanmaganda;
  - 3) qasddan zarar yetkazilganda;
  - 4) alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazilganda;
  - 5) xodimning sud tomonidan aniqlangan jinoiy harakatlari natijasida zarar yetkazilganda;
  - 6) ma'muriy huquqbazarlik natijasida zarar yetkazilganda, agar bu tegishli davlat organi yoki sud tomonidan aniqlangan bo'lsa;
  - 7) davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni (tijorat, xizmat sirini yoki boshqa sirlarni) tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor qilinganda;
  - 8) xodim mehnat majburiyatlarini bajarmagan taqdirda zarar yetkazilganda.
- To'liq moddiy javobgarlik Mehnat kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan o'zga hollarda ham xodimning zimmasiga yuklatilishi mumkin.
- Tashkilot rahbari, uning o'rinosarlar, tashkilot bosh buxgalteri, tashkilot alohida tuzilmasi rahbari ushbu Kodeksning 488-moddasiga muvofiq to'liq moddiy javobgar bo'ladi.
- Mehnat kodeksi 342-moddasiga

ko'ra, pul yoki tovar qimmatliklari bilan bevosita muomala qilayotgan xodim to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida o'ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning but saqlanishini ta'minlamaganlik uchun to'liq moddiy javobgar bo'ladi. Pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilish o'z xizmat vazifasiga kirmaydigan xodim bilan tuzilgan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 15-maydag'i 11-2023/B-son buyrug'iga (Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 12-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3443 ) ilova xodim bilan to'liq yakka tartibdag'i moddiy javobgarlik yoki jamoaning (brigadaning) to'liq moddiy javobgarligi to'g'risida shartnoma tuzish bo'yicha tavsiyalarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 20-iyuldag'i 61-2023/V-son buyrug'iga ilovada (Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 21-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3452) to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida o'zi bilan yozma shartnomalar tuzilishi mumkin bo'lgan xodimlar egallaydigan lavozimlar va ishlarning namunaviy ro'yxati belgilangan

**Nodir Toymasov,  
Qorako'l tuman adliya bo'limi  
DXM yetakchi mutaxassisasi i**

## Xizmat tekshiruvi nima va uni o'tkazish tartibi qanday?

**Xizmat tekshiruvi xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida xodimning aynini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararning xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish hisoblanadi.**

**Xizmat tekshiruvi o'tkazish asoslari qanday?**

Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun ommaviy axborot vositalarining xabarlar, xodimning bevosita rahbarining bildirgisi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan boshqa ma'lumotlar asos bo'ladi.

**Xizmat tekshiruvi o'tkazish tartibi qanday?**

Ish beruvchi xizmat tekshiruvi o'tkazish haqida qaror qabul qilishga haqli. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi.


O'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkaziladigan xodim ish beruvchining xizmat tekshiruvi o'tkazish haqidagi buyrug'i hamda xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibi bilan imzo qo'ydirib tanishtirilishi kerak.

**Xizmat tekshiruvi o'tkazish muddati qanday?**

Xizmat tekshiruvi o'tkazish muddati o'n besh ish kunidan oshmasligi kerak. Xizmat tekshiruvi o'n besh ish kunidan oshmagan muddatda, obyektiv sabablarga ko'ra tugallash mumkin bo'limgan alohida hollarda, ish beruvchi komissiyaning asoslantirilgan vajlari asosida xizmat tekshiruvi o'tkazish muddatini yana o'n besh ish kunigacha uzaytirishga haqlidir.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 302-303, 308-moddalari

**N.PO'LATOV,  
G'ijduvon tuman adliya bulimi, yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuristkonsulti**



## XODIMNING MEHNAT SHARTLARINI O'ZGARTIRISH HUQUQI

**O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 136-moddasiga ko'ra, Mehnat to'g'risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, shuningdek mehnat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda xodim mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan mehnat vazifasiga ko'ra isjni davom ettirayotganda ish beruvchidan mehnat shartlarini o'zgartirishni talab qilishga haqlidir.**

Xodimning mehnat shartlarini o'zgartirish haqidagi arizasi u berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ish beruvchi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Xodimning mehnat shartlarini o'zgartirish haqidagi talablarini qanoatlantrish rad etilgan taqdirda, ish beruvchi unga rad etishning sababi to'g'risida yozma shaklda xabar qilishi kerak. Xodimga uning talablarini qanoatlantrishni rad etish sabablarini xabar qilmaslik xodimning mehnat shartlarini o'zgartirish rad etilganligi ustidan shikoyat qilishi uchun monelik qilmaydi.

R.JALOLOV,  
G'ijduvon tuman adliya bulimi, yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi boshyuristkonsulti

## ISH BERUVCHI, XODIM MEHNAT INTIZOMINI BUZGANLIGI UCHUN QANDAY INTIZOMIY JAZO CHORALARINI QO'LLAY OLADI?

**O'zbekiston respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga ko'ra, Mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:**

- 1) hayfsan;
- 2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'limgan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko'p bo'limgan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidani jarimani ushlab qolish ish beruvchi tomonidan ushbu Kodeksning 269 va 270-moddalari talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi;
- 3) mehnat shartnomasini bekor qilish (ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 4 va 5-bandlari).

Ushbu Kodeksda, boshqa qonunlarda, intizom to'g'risidagi ustavlar yoki nizomlarda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llashga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatib o'tilgan.

N.HALIMOV,  
G'ijduvon tumani Adliya bo`limi yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi Bosh yuriskonsult

## IJODIY TA'TILLAR NIMA ?

**O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 387-moddasiga ko'ra Mehnat faoliyatini yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga olib borayotgan shaxslarga asosiy ish joyida o'rtacha ish haqi va lavozimi saqlangan holda quyidagi muddatlarga ijodiy ta'tillar beriladi:**

falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasini olishga doir dissertatsiyani yakunlash uchun hamda darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar qo'lyozmalarining mualliflariga - uch oygacha;

fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasini olishga doir doktorlik dissertatsiyani yakunlash uchun - olti oygacha.

Mualliflar jamoalari tomonidan darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarini yozish chog'ida mualliflar jamoasi a'zolaridan biriga mualliflar guruhining barcha a'zolari imzolagan yozma arizaga muvofiq ijodiy ta'til beriladi. Mualliflar ta'tilni o'zaro taqsimlashga ham haqlidir.

Ilmiy daraja olishga da'vegarlarga, shuningdek darsliklarning yoki o'quv-uslubiy qo'llanmalarining mualliflariga navbatdagi yillik mehnat ta'tillari ular ijodiy ta'tillardan foydalanganligidan qat'i nazar beriladi.

Ijodiy ta'tillar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

I.Asadov  
G'ijduvon tuman yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi boshyuristkonsulti



## "PROAKTIV" SHAKLDA PENSIYA TAYINLASH - AMALDA

**2025 yil 1 martdan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiyalarini belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etildi.**

Joriy yilning 1 mart kunidan boshlab respublikamiz bo'y lab 55 yoshga to'lgan ayollarga va 60 yoshga to'lgan erkaklarga yoshga doir pensiyalar "proaktiv" (avtoma-tik) shaklda tayinlashi jadal boshlandi.

Mazkur jarayon pensiya yoshiga etgan fuqarolar uchun qulayliklar yaratib, ortiq-cha ovoragarchiliklarni oldini olmoqda.

Pensiya tayinlashda "proaktiv" tizim - bu pensiya olish huquqi bilan bog'liq jara-yonlarni avtomatlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan tizimdir.

Adliya vazirligi tomonidan fuqaro umumiy belgilangan pensiya yoshiga to'lgan sanada avtomatik tarzda fuqaroning pasport (identifikatsiyaID-karta) ma'lumotlarini byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining "Pensiya" axborot tizimiga elektron shaklda yuboradi.

Ichki ishlar vazirligining "Manzil" axborot tizimiga pensiya yoshiga to'lgan fuqaro-ning mahalla fuqarolar yig'ini kesimida yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun axborot tizimi orqali electron so'rov yuboradi.

Pensiya jamg'armasi pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamiga pensiya tayinlash masalasi ko'rib chiqilishi to'g'risida CMC-xabar yuboradi.

Pensiya jang'armasining tuman (shahar) bo'limi belgilangan muddatda "Pensiya" axborot tizimidagi mavjud pensiya yoshiga to'lgan fuqaroning ish stoji, ish haqi, usta-ma olish huquqini beradigan electron ma'lumotlar asosida dastlab fuqaroning pensiya-ga bo'lgan huquqini aniqlaydi, pensiya miqdorini hisoblaydi va pensiya tayinlaydi.

Fuqaro tayinlangan yoshga doir pensiya miqdoridan norozi bo'lganida yoki mehnat faoliyatini davom ettirib, yoshga doir pensiyaga keyinchalik chiqish xohishini bildirgan taqdirda, xabarnoma olganidan so'ng 10 kun ichida Pensiya jamg'armasi bo'limiga tashrif buyurgan hoda ariza berish orqali tayinlangan pensiyani rad qilishi mumkin.

G.XALIMOVA,  
Buxoro shahar DXM  
katta mutaxassisi

# Ayol borki, olam munavvar!

Nozik xilqat egasi bo'lmish xotin-qizlar bayrami turli tashkilot-korxonalarda o'zgacha ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Buxoroda ham ana shunday esda qolarli tadbir bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasining tabriknomalari Palataning Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan hududda faoliyat yuritayotgan notarius ayollarga bir piyola choy ustida yetkazildi.

Shuningdek, tadbirda o'zining fidokorona mehnati, erishgan ulkan yutuqlari, davlat va jamoat ishlari dagi ibratli ishlari bilan xalqimiz o'rtasida obro'-e'tibor qozongan faxriy ayol notariuslarni ham hududiy boshqarma boshlig'i Dilobar Bozorova 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan samimiyy tabrikldi.

Bir-biridan go'zal qizlar, lobar va barno ayollar chiroyi oyni uyaltirgan bu kunda nozik xilqat egalari dilbar kuy-ko'shiqlar jo'rligida raqslarga tushib, qutlug' kun bilan bir-birlarini muborakbod qilishdi. Ayniqsa, sohada uzoq yil ishlab, mehnat faoliyati bilan yoshlarga o'rnak bo'lganlar ulug'landi.

*Obid QO'LDOSHOV*



## Go'zallik timsollari

Yurtimizda go'zallik va oqilalik timsoli bo'lgan ayolni e'zozlash azal-azaldan ezgu qadriyat bo'lib kelgan. Sharqning har udumi-yu odatida chuqr ma'nou mujassam ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ayolga nisbatan bunday ehtirom zamirida hikmat borligi oydinlashadi.

Ayol Yaratganning buyuk mo'jizasi, hayot davomiyligi va abadiyligi mujassam bo'lgan zot demakdir.

Ayol – go'zallik va oqilalik timsoli. O'z navbatida oilasi, farzandlari yurt rivojiga munosib hissa qo'shgan ayollar bugun chin ma'noda e'zozda. Yurtimizda ayolga ehtirom, uning jamiyatda faolligini oshirishga yuksak darajada e'tibor qara tilmoqda.

8 mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan notariat sohasida sidqidildan mehnat qilayotgan go'zal xotin-qizlarni chin dildan tabriklayman! Ishlaringizga rivoj tilayman, oilaviy baxt sizlarni tark etmasin!

**Nasiba DJURAEVA,**  
**O'zbekiston Notarial palatasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi**  
**Notariat bo'yicha maslahatchi**

## E'tibordan minnatdorman



Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasining tabriknomalari Palataning Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan hududda faoliyat yuritayotgan notarius ayollarga bir piyola choy ustida yetkazildi.

Rahbariyat 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan yig'ilganlarni samimiyy tabriklab, jamiyatda notariat sohasidagi ayol xodimlarning tutgan o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtalishdi. Xizmat jarayonida ularning erkaklar bilan bir safda tunu kun tinim bilmay mehnat qilib, yurt ravnaqiga qo'shayotgan o'zlarining munosib hissalari uchun ularga minnatdorchilik bildirildi.

Bayram munosabati bilan fidoyi, o'z navbatida nazokatli va mehribon ayollarga esdalik sovg'alari topshirildi. Bu e'tibordan minnatdorman. Ana shunday hurmat, e'zoz bizni yanada mas'uliyatlbo'lishga undaydi.

**Gulshoda SAFOEVA,**  
**G'ijduvon tumanida xususiy amaliyot bilan**  
**shug'ullanuvchi notarius**

## Nazokat va latofat bayrami

"Ayol madhiga ta'rifu doston tugamaydi", deydi shoir. Darhaqiqat, ayol timsoli, uning pokiza ziynati har qanday ta'rifdan baland turadi. Uni hech qanday qiyos yoxud tashbeh bilan ifodalab bo'lmaydi. Ayol buyuk, ayol muqaddas, abadiyat manbai.

Ayol – go'zallik, latofat va nazokat timsoli. Kim uchun ona, kim uchun suyukli yor, yana kim uchundir hamshira yoinki jon qadar farzand bo'lgan ayol hech qachon muqaddasligini yo'qotmaydi. Shu bois ham mazkur bayram o'zgacha intiqlik bilan kutiladi. Ayricha shukuh, ayricha quvонch bilan nishonlanadi. Bugun munis onaxonlar, lobar qizlar, umuman, barcha bayram ishtirokchilari chehrasida ana shu quvонch va shukuhni kuzatish mumkin edi.

"Xotin-qizlar bayrami" bilan barcha ayollarni muborak-bod etib, ularga sihat-salomatlik, baxt-iqbol, oilalariga tinchlik-xotirjamlik, farovonlik, farzandlar kamolini ko'rish saodatini tilayman!

**Mafuza SATTAROVA,**  
**Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi**  
**notarius**



**Mapt**



## Jozibali qizlarga baxt yarashadi

Oila qurayotgan yosh qizlarga bayram munosabati bilan tilaklarimiz bor. Biz ularni baxtli bo'lishini juda-juda istaymiz.

Oila baxtli bo'lishi uchun muhabbatning o'zi yetarli emas. Doimo o'zaro munosabatlarni yaxshilash va donolikni ko'rsata bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Baxtli er-xotinlar bir-birlari bilan har qanday mavzuda suhbatlashadilar, maslahat so'raydilar va mammuniyat bilan yangiliklarni o'rtoqlashadilar. Ijobiy kayfiyat va har narsaning yaxshi tomonlarini ko'ra bilish oilaviy hayotda o'zgartirib bo'lmaydigan fazilatdir.

Bir-biringizga qiziqarli bo'lish uchun bir-biringizga yordam-lashing. Bir-biringizni o'z izmingizga bo'ysundirishga harakat qilmang – munosabatlaringiz orasida havo bo'lsin, bo'lmasa, bir-biringizdan zerikib, siqilib ketasiz.

Uyda shunday sharoit yaratingki, kelishingiz bilan bag'ri-dilingiz ochilsin. Uydagisi har bir buyumdan iliqlik taralib tursin. O'zingizda borini qadrlashga va bir-birlaringizdan, hattoki mayda narsalar uchun ham minnatdor bo'lishga o'rganing.

Uyingiz doim muhabbat va samimiylilha to'lib turishini tilab qolaman!

**Buxoro shahar 1-son FXDY jamoasi**

## Tabiatning mo'jizasi



Chuqur bilim, ma'nnaviy barkamollik bo'lgan joyda taraqqiyot bo'ladi. Shunday ekan, milliy o'zlikni anglash va ma'nnaviy poklanishdan iborat uziyi, tabiiy jarayon avvalo ona – ayoldan boshlanadi. Ayol ma'nnaviyati butun millat ma'nnaviyatining tub ildizidir.

Ma'lumki, avval hammamizning ongimizga singib ketgan bir stereotip bor edi – "Ilm-fan ayolning ishi emas". Lekin tarix haqiqatlariga murojaat qilsak, ayollarning fan, madaniyat, ma'nnaviyat, tibbiyat olamida o'zlarining alohida

yondashuvlariga ega ekanligini ko'ramiz.

Bibixonim, To'maris, Bopay Xonim, Qurbonjon Dodhoh, Nodirabegim, Nazipa Quljanova, Sayra Kiizbaeva, Sofya Hakimova, Baljan Bultrikova, Xadicha Sulaymonova, Dilbar Abdurahmonova,

Asal Sartbaevalar Markaziy Osiyoda O'z iqtidori, aqliy salohiyati ila nom qozonib, tarix sahifalarida qolganlar. Ilm-fan taraqqiyotiga erkaklar bilan bir safda o'z hissalarini qo'shgan ayollar soni oz emas.

"Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha ayollarni tabriklayman! Kasbdoshlar, siz – tabiatning mo'jizasisiz. Sizlarga ehtirom va e'zoz, mehr-muruvvat, go'zallik bayrami muborak bo'lsin!

**Dilnoza FAYZIYEVA,**  
**Romitan tumanidagi 11 maktob oliy toifali boshlang'ich**  
**sinf o'qituvchisi**

## Chin qalbdan tabriklayman!

Ayol borki, hayot go'zal va maftunkor. Aslida oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu baraka kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munawvar qiladigan zotlar, munis onalarimiz, opa-singillarimizdir.

Har yili bahorning ilk haftasida yurtimiz bo'ylab 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tantanalari o'tka-ziladi.

Ayol zotini e'zozlash el-yurtimizda azal-azaldan ezgu qadriyat bo'lib kelgan. Buning tasdig'ini tariximizda, hayotimizda ko'plab misollar orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, mustaqillik yillarda yurtimiz xotin-qizlarining jamiyat hayotida tutgan yuksak o'rni va mavqeyini yanada ortganligi, ularning barcha islohotlarda faol ishtirok etishlari bizni har lahzada quvontiradi! Zero, ayol borliq ko'zgusidir, shu bois bo'lsa kerak, ayolni avaylab-asragan yurting kelajagi porloq bo'ladi.

Bayram munosabati bilan hamkasb ayollarni tabriklayman! Sizlarga tabassum va baxt yarashadi.

Har doim yaxshi kayfiyatda bo'ling ilohim!



**Nurullo IBROGIMOV,  
Romitan tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius**

## Sizlar bilan go'zaldir olam!



Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zatan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlар kafolatlarini ta'minlashning assosiy printsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

Bugun go'zal xilqat vakillarini, ayniqsa, davlat xizmatlari yo'nalishida mehnat qilayotgan go'zal opa-singillarimizni bayramlari bilan tabriklayman! Sizlarga dunyodagi jaiyki ezguliklarni tilayman! Doimo sog'-salomat, baxt-saodatli bo'ling!

**Feruz KENJAEV,  
Romitan tuman adliya bo'limi  
yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i**

# G'ijduvon tuman

## "Barkamol avlod" bolalar maktabi

### ZULFIYA IZDOSHLARI ILHOMIDA

Zulfiya she'riyatida muhabbat, insoniy va Vatanga sadoqat mavzulari asosiy o'rinni egallaydi.

G'ijduvon tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabi "Yosh qalam-kashlar", "Iqtidori bolalar" klubini a'zolari, ishtirokida muhabbat va bahor kuychisi Zulfiyaxonim tavalludining 110 yilligiga bag'ishlab, "Zulfiya izdoshlari ilhomida" ko'rik-tanloving tuman bosqichi o'tkazildi.

Tanlovda Shahina Nasriddinova, Bahora Samjonova va Kumush Hikmatullayevlar g'olib hamda sovrindor bo'lischdi. Ular diplom, esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.



### PLASTILINDAN IJODIY ISHLAR

Bolalar ijodkorligini rivojlantirish pedagogikaning dolzARB muammolisidir.

Chunki voqeligimiz yosh-larda tevarak-atrofdagi narsalarga ijodiy munosabatni, faoliyat va mustaqil fikrleshni shakllantirishni taqozo etadi. Biz bolalarimizda aql-idrokni, o'tkir zehnni, tashabbusni, tadbirkorlik va fantaziyanı tarbiyalamog'imiz kerak.

22-maktab "Tasviriy san'at" to'garagi tarmoq to'garagida a'zolar ishtirokida "Zulfiya" tavalludi munosabati bilan plastilindan ijodiy ishlar tayyorlandi.



### ESTRADA VA VOKAL

Estrada (ispancha – taxtasupa), estrada san'ati – 1) keng ma'noda – ko'ngilochar, ommabop badiy (abadiy, musiqiy, raqs, tomoshaviy va boshqalar) janr va shakllarning umumiy ifodasi; 2) tor ma'noda – sahnnaviy professional san'at turi. Rossiya va boshqalar ba'zi mamlakatlarda Angliyada myuzikkoll, Fransiyada varyete, kafeshantan, kabare, AQShda shou, revyu kabi atamalar bilan yuritiladi.

G'ijduvon tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabi 40-maktab tarmoq to'garagi "Estrada va vokal" to'garak rahbari Gulshoda Rustamova mashg'uloti a'zolar uchun foydalı bo'lmoxda.



### OCHIQ MASHG'ULOT

Karving – turli meva, sabzavot, yog'ochlarni o'yib bezash san'ati. Karving ko'pincha oshpazlik va dizayn sohalarida qo'llaniladi.

Oshxona dekoratsiyasi, bayramona taomlar yaratishda ishlataladi.

G'ijduvon tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabida ochiq mashg'ulotni 14-maktabda tashkil etilgan "Karving" tarmoq to'garak rahbari U.Ummatova o'z to'garak o'quvchilar bilan birgalikda tashkil etdi. Mashg'ulotda o'quvchilar 3 jamoaga bo'linib, interfaol metodlardan foydalangan holda olib borishdi.

Mashg'ulotda maktab direktori A. Jumayeva, uslubchi D.Subhonova, V.Salimova, S.Ibragimov, M.Yandashovalar tahlil jarayonida qatnashishdi. O'quvchilar tomonidan turli mevalardan san'at asarlariga teng bo'lgan darajada mevali dekaratsiyalar tayyorlandi. Dars mashg'uloti barchaga birdek ma'qul bo'ldi.

### SEN BAHORNI SOG'INMADIGMI?

G'ijduvon tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabida "Tasviriy san'at" yo'nalishi bo'yicha 10-18 yosh toifasida o'quvchilar o'rtasida "Sen bahorni sog'inmadigmi?" mavzusida rang-tasvir yo'nalishida ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi.

Ko'rik-tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar diplom bilan taqdirlanildilar.



### "BIOLOGIYA" TO'GARAGI

Biologiya hayot bilan bog'liq masalalar tadqiqotidir. U empirik fanning jonli organizmlarning tuzilishi, funktsiyalari, o'zgarishi, kelib chiqishi, evolyutsiyasi va o'lishini o'rganuvchi sohasidir. U turli organizmlarni saralaydi, ularning ishlashini, turlarning paydo bo'lishini, ularning o'zaro va atrof-muhit bilan munosabatlarini tasvirlaydi. Biologiya botanika, zoologiya, fiziologiya kabi turli ostsohalarga bo'linadi. Biologiya tirik tabiat to'g'risidagi bilimlar tizimini birlashtiruvchi fan sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bu fonda ilgari o'rganilgan dalillar tarixiylik nuqtai nazaridan ma'lum tizimlarga keltiriladi va ularning yig'indisi organik olamning asosiy qonuniyatlarini aniqlashga imkon yaratadi.

Ayni paytda 8-maktab tarmoq to'garagi rahbari Mohigul Do'stova o'zining "Biologiya" to'garagi a'zolari bilan jiddiy shug'ullanib kelmoqda.



3-O'RIN

*Bir bolalar kelar – qadamlari she'r,  
Bir bolalar kelar – hammasi shoir.*



### Mansur portreti

*Do'stim, bu hayotda ko'p birga yurdik,  
Sen bexos ketding-u, bosdik tikanni.  
Ko'zingdagi mungni juda kech ko'rdik,  
Ko'zlaringga qaramagan ekanmiz...*

### Do'stim Mansur xotirasiga

*Bir yomon tush ko'rdirim kuzning so'ngida,  
Umid-la tushimni yolg'onga yo'ydim.  
Seryomg'ir kuzakning ko'zi o'ngida  
Men bitta do'stimni yo'qotib qo'ydim!  
  
Ey, bir ko'zi kulgan, biri hayron do'st,  
Balki dili vayron, tili sayron do'st.  
Parishon qoldirib ketding-ku bizni,  
Parishon dunyoda bir parishon do'st!  
  
Do'stim deyapman-u, dilimda armon,  
Holingdan tuzukroq olmadik xabar.*

*Bizkim o'z holiga do'stipushaymon,  
Bizkim do'st holidan do'stibexabar!  
  
She'rday kelganmiding, do'stim, dunyoga,  
She'r kabi yashading, she'r kabi bitding.  
Ayt, qandoq ko'nayin bunday vidoga,  
Ne uchun holingni sharh etmay ketding?!*

*Ey, bir ko'zi kulgan, biri hayron do'st,  
Balki dili vayron, tili sayron do'st.  
Parishon qoldirib ketding-ku bizni,  
Parishon dunyoda bir parishon do'st!..*

\* \* \*

*Biz yor desak boshimizga dorlar tushgay,  
Bo'g'zimizdan ko'chib-ko'chib ohlar tushgay,  
Zorlar tushgay, ko'zimizdan yoshlar tushgay,  
Ki tog'larning boshiga ham qorlar tushgay.*

*Goh visolu goh hijronda o'tgay umr,  
Goh orzuda, goh armonda o'tgay umr,  
Goh shuhratu goho shonda o'tgay umr,  
O'lmagaymiz, garchi qo'ldan torlar tushgay!*

*Bizlar ketsak ortda qolgay tog'larimiz,  
Yuraklarda o'chmas mangu dog'larimiz,  
Yashnab turgay abad yashil bog'larimiz,  
Bizlar ketgach osmonidan oylar tushgay.*

*To ungacha tilimizdan tushmas Olloh,  
Ko'nglimizdan, dilimizdan tushmas Olloh,  
Haqni aytgan zotni tashlab qo'ymas Olloh,  
Tilimizdan ko'nglimizda borlar tushgay.*

*Inshoolloh, mangu gullab turgay bu yurt,  
Endi mudom ozodlikka ko'ngay bu yurt,  
Tug'sa, faqat shoirlarin tug'gay bu yurt,  
O'zbekiston tuprog'iga tonglar tushgay!*

*Biz yor desak, boshimizga dorlar tushgay,  
Bo'g'zimizdan ko'chib-ko'chib ohlar tushgay,  
Zorlar tushgay, ko'zimizdan yoshlar tushgay,  
Ki tog'larning boshiga ham qorlar tushgay.*



### Ajratilgan odam

*Sen ajrin ber, g'amin ye  
Ajratilgan odamni.  
Tangrim, o'zing bandam de  
Ajratilgan odamni!*

*Tog'lar odam ajratmas,  
Tog'lar o'sgay yonma-yon.  
Odamlarni ajratgan  
Odamlarga hayronman.*

*Sen karaming kengroq qil  
Ajralgan odamlarga!  
Tangrim, o'zing insof ber  
Ajratgan odamlarga!*

*Osmon odam ajratmas,  
Yomg'ir, quyosh – alanga...  
Balki ular shuning-chun  
Odamlardan balandda.*

*Tangrim, kechir, rahm qil,  
Ayirma qadamlarni!  
Sen o'zingga yaqin qil  
Ajralgan odamlarni!*

### Orzu

*Tobora ko'k olis, qattiqroqdir yer,  
Onajon, tobora bu qismat og'ir.  
Bir bolalar kelar – qadamlari she'r,  
Bir bolalar kelar – hammasi shoir.  
Gohida kezaman yuritim oralab,  
Bo'ri polvon kabi keng olib davra.  
Atrofga qarayman, shoir bolalar –  
Bari arslonyurak, bari sherpanja.  
Bir tushlar ko'raman goho tunlari,  
Bir tushlar ko'raman: silkinar davvor,  
Bir tulpor keladi usqni yorib,  
Uni quvlab kelar bir uyur tulpor.  
Istayman, bu tushim bo'lmasa ado,  
Tomirda qon emas, aylansa isyon.  
Sira qoqlmasa bu uchqur tulpor,  
Unga yo'ldosh bo'lsa mudom she'r-ilhom.  
Ammo manzil olis, qattiqroqdir yer,  
Onajon, tobora bu qismat og'ir.  
Bir bolalar kelar – qadamlari she'r,  
Bir bolalar kelar – hammasi shoir.  
Onajon, bir sir bor sirdan ulug'roq,  
Bir go'zal orzu bor baridan suyuk:  
Bir she'r yozsam edi she'r dan ulug'roq,  
Bir odam bo'lsaydim shoirdan buyuk!*



## Apostil qo'yish qanday tartibda amalga oshirilishidan xabardormisiz?

**Apostil qo'yish "E-App" dasturi orqali shtamp generatsiya qilinganidan so'ng rasmiy hujjatga apostil bosma izini bosish yo'li bilan amalga oshiriladi va u generatsiya qilingan shtampda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.**

Mazkur shtampni "E-register" dasturida "E-App" dasturi bilan beriladigan maxsus raqam orqali tekshirib olish imkoniyati mavjud bo'lishi shart.

Apostil Reglamentning 3-ilovasiga muvofiq, 10x10 sm o'lchamli kvadrat klishe shaklida bo'ladi. Apostilning sarlavhasi fransuz tilida bo'lishi kerak.

Apostilni an'anaviy tarzda kseronusxa yoki apostilning bosma izini bosishdan farq qiladigan boshqa usulda qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

Apostilning bosma izi rasmiy hujjatning matndan bo'sh joyiga yoki uning orqa tomoniga yoxud qog'ozning alohida varag'iga qo'yiladi.

Apostilning bosma izi alohida varaqqa qo'yilgan taqdirda, rasmiy hujjatning varaqlari va apostilning bosma izi bositgan varaqqa tartib raqami qo'yiladi va istalgan rangdagi ip yoxud maxsus nozik bog'ich, lenta bilan tikiladi. Rasmiy hujjatning tikilgan joydagi oxirgi varag'i qalin qog'oz "yulduzcha" bilan yelimanadi, unga O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhr bosiladi. Gerbli muhrning izi "yulduzcha"da va varaqda bir tekis joylashadi. Tikilgan varaqlar soni, tikilgan va tartib raqami qo'yilgan varaqlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar bor bo'lgan shtamp bilan tasdiqlanadi.

**I.NIGMATOVA,  
Kogon tuman Adliya bo'limi  
Davlat xizmatlari markazi  
bosh mutaxassis**

## Kichik hajmli kemalarga oid yangilik

**Endi kichik hajmli kemalarini texnik ko'rildan o'tkazish, ro'yxatdan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish va ro'yxatdan chiqarish bo'yicha davlat xizmatlari:**

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) va Davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshiriladi.

Arizalar YIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 saat davomida yuborilishi mumkin.

Bunda arizalar ish vaqtidan keyin yoki dam olish va bayram kunlarida tushganda, kalendar bo'yicha navbatdagi ish kuni arizalarning vakolatlari organga tushgan va vakolatlari organ tomonidan qabul qilingan kun deb hisoblanadi.

Muomalaga layoqatsiz jismoniy shaxs nomiga kemalar faqat muomalaga layoqatsiz shaxsda kemaga bo'lgan mulk huquqi belgilangan tartibda meros yoki hadya natijasida paydo bo'lgan bo'lsa ro'yxatdan o'tkaziladi.

Muhim eslatma:

Kema xarid qilingandan so'ng, ariza beruvchi 30 ish kuni ichida kemani ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza topshirishi shart!

Quyidagi hollarda ro'yxatdan o'tkazish rad etiladi:

1. Kema kichik hajmli kemalar tarkibiga kirmasa;
2. Hujjatlar noto'g'ri yoki to'liq taqdim etilmasa;
3. Texnik ko'rildan o'ta olmasa;
4. Kema konstruktysiysi yoki o'zgartirishlar kema biletiga mos kelmasa;
5. Qutqaruv vositalari to'liq bo'lmasa;
6. Identifikatsiya tamg'asi soxtalashtirilgan yoki o'chirilgan bo'lsa.

**G'ulom MAVLONOV,  
Kogon tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassis**

## Ayrim davlat xizmatlari turlari xususiy sektorga o'tkazilmoqda

**Davlat xizmatlarini soddalashtirish va aholiga qulaylik yaratish maqsadida 11 ta davlat xizmatlari xususiy sektorga o'tkazilmoqda. Bu esa xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi.**

Jamoat birlashmalari yoki uyushmalar ko'rsatadigan xizmatlar:

- Rieltorlarning malaka imtihonlarini o'tkazish va ularga malaka sertifikati berish;
- Baholovchilarning malaka imtihonlarini o'tkazish va ularga malaka sertifikati berish;
- Sud boshqaruvchisi malaka attestatsiyasini berish;
- Baholovchilarga toifalar berish;
- Gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchisi va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarga malaka sertifikatini berish;
- Tibbiyot tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish.

Akkreditatsiyadan o'tgan tadbirdorlik subyektlari ko'rsatadigan xizmatlar:

- Hisoblagichlarni qiyoslashdan o'tkazish;
- Karantin ostidagi mahsulotlarni zararsizlantirish (fumigatsiya);
- Kichik hajmdagi noturar bino va inshootlarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish jarayonini nazorat qilish;
- Yakka tartibdagi uy-joylarning qurilishi hamda rekonstruktsiya qilish ishlari nazoratdan o'tkazish;
- "M" va "N" toifalardagi g'ildirakli yangi transport vositalarining ekologik toifa talablariga muvofiqligini sertifikatlash.

**Aziz JO'RAYEV,**

**Kogon tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi sho'ba bo'lim boshlig'i**

## \*Qonunchilikdagi yangiliklar

### Issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasi tubdan isloh qilinadi

**"Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (100-son, 11.03.20225 y.) qabul qilindi.**

Qarorga ko'ra, uy-joy va bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan barqaror ta'minlash hamda binolarning energiya samaradorligini oshirishning kelgusi 5 yildagi asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi, jumladan:


- sohada yagona davlat siyosatini yuritish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida strategik takliflarni ishlab chiqish, issiqlik ta'minoti korxonalari faoliyatini boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi tashkilot tashkil etish;
- markazlashgan issiqlik ta'minotiga ulanmagan to'rt va undan yuqori qavatlari ko'p quartiriladi uy-joylarning isitish tizimida lokal qozonxonalar qurish va boshqa muqobil texnologiyalarni joriy etish hisobiga bir xonadonning gazga bo'lgan talabini kamida 20 foizga kamaytirish.

Quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi, jumladan:

- markazlashgan issiqlik tizimlaridagi eskirgan 103 ta qozonxona va 1,6 ming kilometr issiqlik tarmog'i yangilanadi;
- davlat-xususiy sheriklik asosida 9 ta, xalqaro moliya instituti ishtirokida 13 ta shahar va tumanda modernizatsiya loyihalari amalga oshiriladi;
- markazlashgan issiqlik ta'minoti qamrovi 37 foizdan 58 foizgacha yetkaziladi, tizimdagи yo'qotishlar 38 foizdan 20 foizgacha qisqartiriladi.

**R.TANGRIEV,**

**Jondor tuman Davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassis**



## Imom Moturidiy tavalludi keng nishonlanadi

**"Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Prezident qarori (102-sun, 14.03.2025 y.) qabul qilindi.**

Qarorga ko'ra, 2025 yilda Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlanadi.

Allomaning islam olamidagi obro'-e'tibori va nufuziga munosib tarzda yuqori saviyada nishonlash bo'yicha quyidagilarni nazarda tutadigan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanadi, jumladan:

- 2025 yil aprel' oyida Samarcand shahrida "Moturidiylik - bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat ta'limoti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazish;

- xorijilik tadqiqotchilar o'rtasida moturidiylik ta'limoti bo'yicha ilmiy tanlov o'tkazish, g'oliblar ishtirokida O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy uchrashuv va seminar-treninglar tashkil etish;

- Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" va "Kitob at-tavhid" asarlari va moturidiylik ta'limotiga oid manbalarning o'zbek va xorijiy tillardagi ilmiy-izohli akademik tarjimalarini nashir etish.

"Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasini hamda ilmiy maqolalar tanlovi o'tkaziladi.

O'zbekiston musulmonlari idorasiga imom-xatiblar hamda diniy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Moturidiylik ta'limoti bilimdoni" tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash tavsija etildi.

**R. TANGRIEV,**

**Jondor tuman Davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassis**

## “ISSIQLIKTA’MINOTI” AJ TASHKIL ETILADI

**Qarorga muvofiq, Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi huzurida “Issiqlikta’moti” AJ tashkil etiladi hamda vazirlikka issiqlik ta’moti sohasida yagona davlat siyosatini yuritishni yuklanadi.**

2025 yil 1 iyundan:

- moliyalashtirish manbalaridan qat’i nazar qurilishda texnik shartlar olinishi talab qilinadigan bino-inshootlarni qurish hamda rekonstruktsiya qilishni loyihalashtirishda ushbu ob’ektlarning loyiha hujjatlarida binolarning o’z ehtiyojlari uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va muqobil issiqlik tizimlari hamda energiya tejovchi uskulalarni majburiy o’rnatishtalabi kiritiladi;


- ko’p kvartirali uy-joylar va binolarning ichki issiqlik va issiqlik suv tarqatuvchi tizimlarining qurilishi, inshootlar va tarmoqlarda hisoblagichlarning to’liq o’rnatalishi majburiy hisoblanadi;

- markazlashgan issiqlik ta’moti mavjud hududlarda yangi qurilayotgan ko’p kvartirali uy-joylar, ma’muriy binolar, ijtimoiy soha muassasalari, sanoat va tadbirkorlik sub’ektlari bino va inshootlarining issiqlik tarmoqlariga ulanishi majburiy hisoblanadi.

Muhammad TOSHEV,

Jondor tuman adliya bo’limi bosh maslahatchisi

### \*Биласизми



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ

Шифокорнинг  
рецепти бўйича  
тарқатиладиган  
дориларни реклама  
қилиш мумкин эмас

[@huquqiyaxborot](#)

#### Конунчиликка кўра, куйидаги дори воситаларини реклама килиш таъкиданади:

- фақат шифокорнинг рецепти бўйича тарқатиладиган дори воситаларини;
- таркибида гиёхвандлик воситалари ёки психотроп ва кучли таъсир қилувчи моддалар мавжуд бўлган дори воситаларини;
- Ўзбекистон тибиётida қўлланиш учун рухсат этилмаган дори воситаларини;
- Соғлиқни саклаш вазirligida давлат рўйхатдан ўтказилмаган дори воситаларини.

Абдулазиз ЖЎРАЕВ,  
Жондор туман ДХМ бosh мутахассиси

OVCHILIK  
GUVOHNOMASINI  
ONLAYN OLING!

@davxizmat

Endilikda murojaatlar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı ([my.gov.uz \(https://my.gov.uz/oz/service/1179\)](https://my.gov.uz/oz/service/1179)) orqali qabul qilinadi.

Xizmat ko’rsatish uchun hech qanday hujjat talab etilmaydi.

Vakolatli organ: Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi huzuridagi Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti.

Guvohnoma rasmiylashtirganlik uchun 675 000 so’m to’lov undiriladi.

Guvohnoma 2 yil davomida amal qiladi.

Eslatma: ovchilik guvohnomasi muomalaga layoqatlari, o’n sakkiz yoshta to’lgan, o’quv kurslarini tugatgan va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o’tgan jismoniy shaxslarga beriladi.

**Asos:** O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagagi 105-sen Farmoni.

Raqamli davlat xizmatlari sizning qulayligingiz uchun!

A’зам HAYOTOV,  
Kogon tuman Adliya bo’limi Davlat xizmatlari markazi  
sho’ba bo’lim boshlig’i



## NIKOH MUNOSABATLARI

**Oilada ma’naviy muhitning shakllanishida ota va onaning alohida o’rini bor. Ayniqsa, farzandlarni oilaga tayyorlash borasida “Qush inida ko’rganini qiladi”, deganlaridek, avvalo, ota-onalarning o’zlarini ahil va totuv bo’lib yashashlari, farzandlarga o’rnak ko’rsatmoqlari zarur.**

Zero, kattalarga hurmat ko’rsatish, ularning oldida odob saqlash, duosini olish ota-bobolarimizdan bizga meros bo’lib kelmoqda. Mana shu an’analalar, qadriyatlarga amal qilib yashashimiz, yosh avlodni sharqona odob-axloqqa o’rgatmog’imiz lozim. Qolaversa, qaynona va qaynotalar ham oilaga kelin bo’lib kelgan yosh kelinchakka o’z farzandlaridek munosabatda bo’lib, mehr ko’rsatishlari, uni o’z farzandidek qabul qilishlari, oilani yuritishga o’rgatishlari kerak emasmi? Axir, kelin ham birovning oq yuvib, oq tarab katta qilgan farzandi-ku!

Nikoh munosabatlari qanchalik sof, ihtiyyoriy, shuningdek, qonun talablariga asoslangan holda bo’lsa, albatta, shu oilaning mavqeい, obro’-e’tibori baland bo’ladi. Ana shunday oila farzandlari esa komil inson bo’lib voyaga yetadilar.

Har bir inson uchun eng katta baxt oilaviy xotirjamlik va farovonlikdir. Oilasidan, farzandlaridan ko’ngli to’q insonning ishida unum va baraka bo’ladi. FHDY bo’limlariga katta orzu va niyatlar bilan kirib kelayotgan yigit-qizlar o’zlarini qurayotgan oila-jamiyatining bir bo’lagi ekanligini unutmashiklari kerak. Zero, oila sog’lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir.

Sevara SALOMOVA,  
Kogon tuman FHDY bo’limi inspektori

## Tibbiy turizm

**О’zbekistonga nafaqat ko’hna  
me’moriy yodgorliklarni va betakror  
tabiat va madaniyatni tomosha qilish,  
balki sog’lig’ingizni tiklash uchun  
ham borishingiz mumkinligini bilasizmi?**

**Mamlakatimiz sizga arzon narxlarda sifatlari tibbiy xizmatni taklif qilishi mumkin. O’zbekistonda tibbiy sug’urta tizimi mavjud emas va respublika fuqarolariga davlat kasalxonalarida xizmat bepul ko’rsatiladi. Shuning uchun ortiqcha xarajatlarning oldini olish uchun o’z mamlakatingizda tibbiy sug’urtani rasmiylashtirishni maslahat beramiz.**

Shunday qilib, agar siz davolanish uchun O’zbekistonga kelishga qaror qilsangiz, bu yerda sizga eng zamonaliv standartlar va arzon narxlarda munosib tibbiy yordam ko’rsatilishini unutmang. O’zbekistonning sanatoriylari Sog’likka foydasi tegadigan sayohat qilmoqchisiz – O’zbekistonga keling! O’zining betakror tabiati va iqlimi tufayli mamlakatimiz azaldan Markaziy Osiyodagi asosiy dam olish maskanlaridan biri bo’lgan. Bu yerda, har bir hududda dam olish uchun sanatoriylar va dispanserlar mavjud.

O’zbekistonning ko’plab sanatoriylari asosan shahardan tashqarida va tog’oldi zonalarida joylashgan bo’lib, bu bemorlarning davolanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

S. ERGASHEV,  
**Buxoro viloyat IIB Xavsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi  
jamoat xavsizligi bolimi jamoat tartibini saqlash guruhi  
katta inspektori, kapitan**

## MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Buxoro shahar, A. H. Ibodov ko’chasi, 13-uyda yashab, 2000-yil 25-iyunda vafot etgan Sharopov Sayfullo Giyasovichning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo’rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro shahridagi xususiy amaliyat bilan shug’ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so’raladi.

## ONA TABIATNI ASRAYLIK



*Tabiatdir onamiz, inson uning farzandi,  
Nojo'ya ishimizdan zirqirar band-u bandi.  
Insoniyatni siylab, baxsh etgan tarovatni,  
Onamizdek e'zozlab, asraylik tabiatni.*

Ona tabiatni asrash hammamizning burchimizdir. Zero, ona tabiat bilan biz uzviy bog'liq holda yashaymiz. Tabiatimiz qancha sof va ko'rakam bo'lsa, insonlar ham sog'lom muhitda yashaydilar. Buning uchun biz harakat qilib, tabiatga yordam berishim kerak. Ko'proq daraxt ekip, yon-atrofimizni ozoda saqlashimiz kerak. Yosh avlodga ham buni keng targ'ib qilib, tushuntirishimiz kerak. Bu bo'yicha ta'lim muassasalarida davra suhbatlar, ko'rak-tanlovlarni ko'proq tashkil etishimiz kerak. Shu jumladan, bizning Yangibozor tuman 2-son politexnikumimizda ham "Siz ekologiyaga oid qonunlarni bilasizmi?" ko'rak-tanlovida faol ishtirok qilmoqdalar. Shu yilning fevral oyida bizning "Yashil voha" jamoamiz bu ko'rak-tanloving tuman, viloyat bosqichlarida faol qatnashib, 1-o'rinni egallashdi. Endi mart oyida o'tkaziladigan respublika bosqichiga tayyorgalik ishlari olib borilyapti. Bizning jamoa respublika bosqichida ham faol qatnashib, 1-o'rinni egallashiga ishonamiz va omad tilaymiz!

Rayxon O'DAYEVA,  
Xorazm viloyati, Yangibozor tuman 2-son  
politexnikumining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Har bir ota - ona farzandining sog'lom  
tug'ilishi va voyaga yetishini istaydi, uning  
salomatligi uchun har soniyada jonini  
berishga tayyor turadi. Qarindosh bilan  
quda tutinayotganda bu tuyg'u qaerga  
chekinadi, degan savol o'z-o'zidan paydo  
bo'ladi.**

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh tug'ma irsii kasalliklar manbai bo'lishi mumkinligini tibbiyot allaqachon isbotlagan, hayot shohidlik bergen. Ammo, odamzot ko'rabila turib o'z aqliga qarshi chiqadi.

Faoliyatimiz davomida qanchadan-qancha fuqarolar bilan muloqotda bo'lamiz, qanchalab taqdirlar, qismatlar haqida eshitamiz, guvohi bo'lamiz. Hayotda adashgan, yanglish qadam bosayotganlarga saboq o'rnida ko'rgan-bilganlarimizdan misollar aytamiz. Quyidagi voqyea ham hyech kimni befarrq qoldirmasa kerak.

Tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma olgani kelgan bir opa bino burchagida yerda boshini changallab o'tirardi, yonidagi yigit ham aftodahol edi. Biz ajrim masalasida kelishgandir, deb o'yadik. O'ziga kelib olishi uchun suv tutqazib, o'tirgani stul berdik.

Ayol raxmat, aylib tomog'imdan suv ham o'tmaydi, sovuq yerga faqat o'tirsam, deyman. Ana shunda uning ko'zidagi chuqur mungni ko'rib ko'nglimz cho'kkandi. Ayolni kuttirmay ichkariga taklif qildik. Yonidagi yigit qizining eri-kuyovi ekan. U tug'ruxonadan berilgan aydi raqam va tug'ilgan chaqaloq onasining fuqarolik pasportini uzatdi. Yangi mehmon muborak bo'lsin dedik!

Bu gapimiz tutab turgan cho'g'ni alanganlatgandek bo'ldi, ayolni ko'zidan shashqator yosh quyildi. Sababini so'radik. Ayol yuzini seldek yuvayotgan alamli ko'zyoshlarini tiyolmasdi, amallab dardini to'kdi:

Ota-onamga yolg'iz farzandman. Bobuvim erta olamdan o'tib ketishgan ekan, hovli-joylar otamga qolgan. Otamning singlisi "qizingizni chiqarsangiz bu uylar begona kuyovga nasib qiladimi", deyaverib, miyasiga quyan ekan, meni bolaligimdan ammavachchamga gavrabaxsh qilishdi. Yillar o'tib, ammavachcham bilan munosabatlarmiz kattalar istagandek tus oldi. Turmush qurdik. To'g'risi, erimning fe'l'i juda yaxshi, bezoz. Ketma-ket farzand ko'rdik, ammo har gal bu

## QARINDOSHLAR O'RTASIDAGI NIKOHNING SALBIY OQIBATLARI

baxtimiz ayanchli bo'ldi, bolalarimiz tug'ma irsiy kasallik bilan tug'ilardi, ko'p yashashmay vafot etishardi. Umida turtinch farzandimiz. Xudoga shukur u sog'lom tug'ildi. To'rt yildan keyin uning ukasi dunyoga keldi, biroq u ham nogiron edi. O'tgan yili o'n yetti yoshida tuproqqa qo'yidik. Undan keyin bola ko'rishga er-xotin qo'rqiб qoldik.

Umidamni yaxshi joyga uzatdik. Baxti qaro onalikning azobini men bilaman, aslo bu dunyoda hyech kimga ravo ko'rmayman. Bolalarimizning bunday bo'lishi sababi erim bilan qarindoshligimiz ekanligini anglab yetgandik, shuning uchun qizimizni yetti yot begonaga berdik.

Peshonam qursin, qizimning bolasi ham nuqsonli tug'ildi. Xatoimiz endi bizni ta'qib qilaveradimi!?

Bu opaning bu savoli oldida mulzam tortgandek o'tirardik...

Mutaxassis-shifokorlarning qayd etishicha, irsiy kasalliklar irsiy axborotni nasdan-nasnga tashuvchi genlarning o'zgarishlari natijasida yuzaga keladi, bu "kasallik" genlarning ko'pchiligi tanada yashirin holda saqlanadi, bu manbalar bir-biriga o'xshash genli ota-onalar orqali farzandlarga o'tib qo'shilishi oqibatida irsiy kasalliklar bolalarda namoyon bo'lishi xususiyatiga ega ekan.

Qarindoshga qiz uzatayotgan, qarindoshidan kelin qilayotgan ota-ona "Ogoh bo'ling, sizni bunday qismat kutmayotganiga hyech qanday kafolat yo'q!"

Rustam NAVRUZOV,  
Qorovulbozor tuman adliya bo'limi,  
FHDY bo'limi I-toifali inspektor

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi  
"2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va  
kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari  
to'g'risida"gi 12-sonli qarori ijrosi  
yuzasidan Respublika Ma'naviyat va  
ma'rifat markazi Qorako'l tuman bo'linmasi  
tomonidan bir qator ishlar amalga  
oshirilmoqda.**

## FAROVONLIK UCHUN MA'NAVIY KO'MAK



Tumanimizdag 5 ta mahallaga obro'-e'tiborga ega, boshqalarga namuna bo'lib kelayotgan ziyoli kishilarni jamoatchilik asosida ma'naviy ko'makchi sifatida biriktirib, aholiga ma'naviy ko'mak berish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda biz ma'naviatchilarning asosiy maqsadimiz kambag'allikdan farovonlikka erishish uchun harakat qiladigan oilalarning intilishlarini ma'naviy-moddiy qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bu borada biz quyidagi ishlarni amalga oshirmog'imiz lozim:

- kambag'allik psixologiyasini yengib, iqtisodiy barqarorlikka va ma'naviy sog'lom muhitga erishgan oilalarning ilg'or tajribasini keng targ'ib qilish;
- mahallalarda mehnatsevarlik va tadbirdorlik madaniyatini shakllantirish orqali boqimandalik kayfiyatiga barham berish;
- oila byudjetini shakllantirish va o'stirishga barcha oila a'zolarini keng jaib etish;
- oilalar farovonligini ta'minlashda mahalla institutining rolini yanada oshirish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash;
- moddiy qiyinchiliklarni yengishda ma'rifatparvarlikning ahamiyatini keng yoritib berish;
- kambag'allikdan qutulishda Xitoy tajribasi asosida yangi O'zbek modelini yaratish mexanizmlarini aniqlash va rivojlantirish;
- mahalla aholisi, ayniqa, yosh avlod ongida "Kambag'allikdan farovonlik sari" g'oyasini jonlantirish orqali ularning o'ziga bo'lgan ishonchi va tashabbuskorligini oshirish.

Qolaversa, mahallalarda kambag'al oila a'zolarining mehnatga moyilligi va tashabbuskorligini oshirishga qaratilgan "Farovon hayotga ilk qadam", "Ishonch" loyihalari va "Ma'rifat orqali kambag'allikni qisqartirish" dasturlarini amalga oshirish orqali ham ancha natjalarga erishish mumkin.

Bugun o'z mehnati bilan kamballikdan farovonlikka erishayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularga tadbirdorlik faoliyatini yo'liga qo'yishda, farzandlarini o'qitishda va ish bilan ta'minlanishida har bir davlat xizmatchisi mas'uldir. Ko'p millatli O'zbekiston diyorida Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kambag'al oila bo'imasligi kerak. Zero, tinchlikning barqarorligi, farovon oilalar tufaylidir.

**O'tkir HAQQIYEV,  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat  
markazi Qorako'l tumani bo'linmasi rahbari.**

## Madaniy boyliklarni realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma yuborish tartibini bilasizmi?

**Xabarnoma yuborish uchun yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagи tadbirkorlar "Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali (my.gov.uz) murojaat qiladilar.**

Xabarnomani qabul qiluvchi organ: O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi.


Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori: bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi. Unutmang, madaniy boyliklarni realizatsiya qilishda:

- madaniy boyliklarni O'zbekiston hududidan olib chiqish yoki vaqtincha olib chiqish uchun maxsus sertifikatga ega bo'lishingiz;
- 50 yil muqaddam va undan oldinroq yaratilgan madaniy boyliklarni O'zbekiston hududidan olib chiqish mumkin emasligi haqida xaridorni ogohlantirishingiz;
- madaniy boyliklarni asrash choralarini ko'rishingiz lozim.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qarori.

Aziz JO'RAYEV,

Kogon tuman Adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi  
sho'ba bo'lim boshlig'i



O'zbekistonda notariat sohasida so'nggi yillarda bir qator muhim yangilanishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar notariuslarning faoliyatini takomillashtirish, ularning majburiyatlarini aniq belgilash va fuqarolarga ko'rsatilayotgan notarial xizmatlarning sifatini oshirishga qaratilgan.

## Notariat sohasidagi xizmatlar sifati oshdi

Jumladan, 2021 yil 27 iyulda Vazirlar Mahkamasining 464-sonli qarori bilan notariuslarning faoliyatini nazorat qilish tartibi takomillashtirildi. Ushbu qarorga muvofiq, notariuslarning qonunchilikka rioya etishini nazorat qilish uchun rejali, qisqa muddatli va kameral tekshirishlar joriy etildi.

Shuningdek, notariuslarning majburiyatlarini kengaytirildi. Endi notariuslar jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishda yordam berish, bitimlar loyihalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish va ularning qonun talablariga muvofiqligini tekshirish kabi vazifalarni bajarishlari kerak.

Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga oid qoidalar ham yangilandi. Bu tizim notariuslar tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini saqlaygan holda, ularni elektron shaklda kiritish va saqlash imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham muhim qadamlar tashlandi. O'zbekiston Notarial palatasi Qozog'iston, Ukraina, Litva va Belarus kabi davlatlarning notarial palatalari bilan hamkorlik memorandumlarini imzoladi. Bu hamkorliklar notariat sohasidagi tajriba almasinvi va standartlarni muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bu yangilanishlar natijasida notariat sohasidagi xizmatlar sifatining oshishi, fuqarolarning huquqiy xavfsizligining ta'minlanishi va notariuslar faoliyatining shaffofligiga erishilmoxda.

S.XAMRAEV,  
Shofirkon tumanida xususiy  
amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarial  
idorasi notariusi

## Достопримечательности БУХАРЫ



**Бухара — древнейший город мира, ему больше 2500 лет. Самому древнему памятнику, ныне сохранившемуся (Мавзолею Самани) — 1000 лет. Однако мало кто из приезжих знает о духовной стороне благословенного города. Бухара — место возникновения существующего с XIV века суфийского братства Накшбандия.**

\*Чем знаменита Бухара во всем мире?  
\*Какие места нужно посетить в Бухаре?

- \*Как называется центр Бухары?
- \*Какой едой славится Бухара?

Бухара — один из древнейших городов Центральной Азии, административный центр Бухарской области Узбекистана; город имеет большую архитектурную и историко-культурную ценность, так как сохранил уникальные памятники зодчества многих исторических эпох начиная с IX века.

Ансамбль Ляби-Хауз,  
Ансамбль Пой-Калян,  
Медресе Чор-Минор,  
Мавзолей Саманидов,  
Крепость Арк,  
Мечеть Боло-Хауз,  
Медресе Абдулазиз-хана.  
Сегодня Ляби-Хауз, как и много веков назад, является центральным местом Бухары.

Рядом с водоемом расположен памятник знаменитому фольклорному персонажу Ходже Насреддину. Медресе Кукельдаш основано в 1569 году. Его возвели около водоема Ляби-Хауз.

В кафе и ресторанах Бухары в основном – блюда национальной кухни: бухарский плов, светлый с не перемешанными слоями риса и моркови, барабач – тушенное с луком мясо молодого ягненка, бухарская большая самса (печеный пирожок из пресного слоеного теста с начинкой) с помидорами и мясом, а также множество овощных салатов.

**З.САМАНДАРОВА,  
старший лейтенант  
инспектор группы обеспечения  
общественной порядки управление  
обеспечение безопасного туризма  
УВД Бухарской области**

## Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sanatoriylarda davolanish uchun Davlat xizmatlari ko'rsatish va yollanmalar berish tartibi

**Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga davolanish uchun yo'llanmalar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.11.2021 yildagi 693-sonli qarori asosida amalga oshiriladi.**

Sanatoriya davolanish uchun yollanma olish uchun ariza beruvchi shaxs quyidagi hujatlarni taqdim etishi lozim:

Tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risidagi hujjat: Bu hujjat shaxsnинг sog'lig'i holatini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi hisoblanadi.

Nogironligi yoki keksalik haqida tasdiqlovchi hujjat: Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun nogironlik guvohnomasi, keksalar uchun esa, tegishli yoshni tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinadi.

Keksalar yoki nogironligi bo'lgan shaxslar Davlat xizmarlari markaziga murojaat etishlari yoki Yagona Interaktiv Davlat Xizmatlari Portali orqali mustaqil ravishda ariza berishlari mumkin.

Yo'llanmalar quyidagi toifadagi shaxslarga beriladi:  
urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan

shaxslar;

halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o'tmagan bevalar;

Chernobil halokati sababli nogiron bo'lgan shaxslar;  
yadro poligonlari ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan shaxslar;

1- va 2-guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'zi ojiz 1-guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxs; o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yo'lg'iz keksalar; yoshga doir pensiya oluvchilar.

O'zbekistonning ko'plab sanatoriylarida nogironlar va keksalar uchun bepul davolanish imkoniyati mavjud bo'lib bu jarayon davlat tomonidan qoplanadi.

D.ISTAMOVA,  
Buxoro shahar Adliya bo'limi Davlat Xizmatlari Markazi yetakchi mutaxassis

## Elektron raqamli imzoning ahamiyati va afzalliklari

**Zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlagani sayin ma'lumotlar almashinuvni va xavfsizlikni ta'minlash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. 21-asr raqamashtirish sharoitida hujatlarni tasdiqlashning novatsion ko'rinishi - elektron raqamli imzo yaratildi. Xo'sh, elektron raqamli imzo nima va uning afzallik tomonlari qanday?**

Elektron raqamli imzo bilan bog'liq huquqiy munosabatlar 2022-yil 26-iyulda qabul qilingan "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunga ko'ra tartibga solinadi. Qonunning 3-moddasiga asosan elektron raqamli imzo bu elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikasiya qilish imkonini beradigan imzo sanaladi.

ERI an'anaviy imzoning muqobil varianti bo'lib, elektron hujatlarni imzolash va haqiqiyligini tekshirishda shaxsnı tasdiqlash uchun ishlataladi. ERI vaqt va pulni sezilarli darajada tejaydi hamda ikki yil muddatga beriladi. ERI davlat xizmatlarining barcha turlariga masofadan kirishni ta'minlaydi va hujatlarning haqiqiyliga kafolat bo'lib xizmat qiladi hamda qalbakilashtirishdan himoya qiladi.

ERIni uchta usulda olish mumkin:

- o'zi kelgan holda;
- 1. davlat xizmatlari markazida; masofadan (onlayn);
- 2. yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida;
- 3. Eri ro'yxatga olish markazining rasmiy veb-saytida - e-imzo.uz orqali.

Elektron imzoning ikki xil ko'rinishi mavjud. Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar uchun raqamli imzolar bir biridan farq qiladi. Jismoniy shaxsning elektron raqamli imzosi individual bo'lib, shaxsning raqamli muhitda o'zini identifikasiya qilish uchun qo'llaniladi. Yuridik shaxsning raqamli imzosi esa tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, shuningdek, tashkilot xodimlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida ishlataladi.

**Sitorabonu ABDULLAYEVA,  
Buxoro shahar davlat xizmatlari markazi  
bosh mutaxassisi**

## Kelding, sen bahor

Bulbul sayraganda, maysa o'sganda,  
Bog'-u gulzorlardan taraldi ifor.  
Buloqlar shovullab, tilga kirganda,  
Yurtimga nur bo'lib, kelding sen bahor.

Osmon-u samoda qushlar ovozi,  
Ular tashrifindan zavq olar go'yo.  
Ortda qoldi endi qishning ayozi,  
Barchaga baxsh etding zavq-u shavq bahor.

Dehqonning zahmati, bog'bon mehnati,  
Bog'u dalalarda aks etar bari.  
Zaminning tabarruk nozu ne'matin,  
Saxovat yo'lida ularshgin bahor.

## Bahor

Shunchalar maftun etding Zulfiyani o'zingga.  
Ash'or bitdi betimsol sening har bir kuningga.  
To'kib dilda borini sening sokin tuningga,  
Yana ko'nгlim eshigin qoqib kelding-ku bahor,  
Shoirlar sevgan fasl, sevikligimsan bahor.

**Elinura ZOKIROVA,  
Qarshi davlat universiteti  
Xorijiy tillar fakulteti talabasi**

## Muammoga asoslangan ta'limda o'qituvchining roli

1

o'quvchilarga muammolarni taqdim etish va ularni hal qilishda yo'l-yo'riq berish.

2

o'quvchilarning tadqiqotlarini nazorat qilish va ularga kerakli resurslarni taqdim etish.

3

o'quvchilarning yechimlarini baholash va ularga muvaffaqiyatlari bo'lisliga yordam berish.

## Muammoga asoslangan ta'limning bosqichlari

1 o'quvchilarga real dunyo muammoi taqdim etiladi.

2 o'quvchilar muammoni tahlil qiladi va hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni aniqlaydi.

3 o'quvchilar tadqiqotlar olib boradi, ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi.

4 o'quvchilar o'zlarining yechimlarini taqdim etadi va ularni muhokama qiladi.

5 o'qituvchi o'quvchilarning yechimlarini bahollaydi va ularga fikr-mulohaza beradi.

**Rustam FOZILOV,**

**Romitan tuman 1-son politexnikumi kimyo fani o'qituvchisi**

## Masofaviy ta'lim platformasining afzalliklari

**Masofaviy ta'lim so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab o'zining tezkor rivojanishi bilan ajralib turmoqda. Ushbu ta'lim shakli, internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, talabalarga o'z uylaridan chiqmasdan ta'lim olish imkonini yaratadi. Masofaviy ta'lim platformalarining bir qancha afzalliklari bor, ularning ba'zilarini quyida keltirib o'tamiz.**

### 1. Qulaylik va Moslashuvchanlik

Masofaviy ta'lim platformalarining eng katta afzalligi bu qiyinchiliklarsiz o'qish imkoniyatidir. Talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtida darslarga qatnashishlari mumkin. Bu, ayniqsa, ish bilan band bo'lgan, uyda farzandlarini tarbiyalayotgan yoki boshqa majburiyatlaribor shaxslar uchun juda muhimdir. Masofaviy ta'lim ta'lim jarayonini talabalar va o'qituvchilar uchun maksimal darajada moslashuvchan qiladi.

### 2. Geografik cheklolarning yo'qolishi

An'anaviy ta'limda talabalar faqat o'zlarining hududidagi o'quv muassasalariga murojaat qilishlari mumkin. Masofaviy ta'lim platformalari esa, butun dunyo bo'ylab ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi. Bu talabalar uchun turli mamlakatlardagi eng yaxshi o'qituvchilardan dars olish va dunyo miqyosidagi o'quv materiallariga kirish imkoniyatini yaratadi.

### 3. Ko'p turdag'i o'qish materiallari

Masofaviy ta'lim platformalarda darslar faqat video yoki matn shaklida bo'lishi bilan cheklanmaydi. Ko'pincha, ular interaktiv darsliklar, onlayn testlar, forumlar va video konferensiylar orqali ta'lim beradi. Bu turli xil o'qish materiallari va metodikalar talabalar uchun yanada samarali va qiziqarli bo'ladi.

### 4. Tejamkorlik

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limga nisbatan arzonroq bo'lishi mumkin. Talabalar transport xarajatlari, turar joy, va oziq-ovqat kabi qo'shimcha xarajatlardan qochadilar. Shuningdek, universitetlar va kollejlar ham onlayn kurslarni taklif qilish orqali o'quv xarajatlarini kamaytirishadi.

### 5. O'qishning shaxsiylashtirilgan yondashuvi

Masofaviy ta'limda talabalar o'zlariga mos o'qish tezligini tanlashlari mumkin. Har bir talaba o'zining o'rganish uslubiga mos tarzda ta'lim olish imkoniyatiga ega. Bu, ayniqsa, o'rganish ritmi turlicha bo'lgan talabalar uchun juda muhimdir. Talabalar darslarni takrorlash, qo'shimcha materiallar o'rganish va o'ziga mos ta'lim jadvali tuzish imkoniyatiga ega bo'ladir.

### 6. Dars davomida samarali interaktivlik

Masofaviy ta'lim platformalari talabalar va o'qituvchilar o'rtasida interaktiv aloqani ta'minlaydi. Forumlar, videokonferensiylar va onlayn suhbatlar orqali o'qituvchi va talabalar o'rtasida muntazam aloqalar o'rnatiladi. Shuningdek, ko'plab platformalar talabalar tomonidan qo'llab-quvvatlashni osonlashtirish uchun onlayn mentorlik yoki yordam guruhi larini tashkil etadi.

### 7. Keng ko'lAMDAGI kurslar va diplomlar

Masofaviy ta'lim platformalari talabalar uchun dunyoning turli xil sohalarida kurslar taklif etadi. Boshqa tomonidan, dunyo bo'ylab turli oliy ta'lim muassasalarini tomonidan taqdim etilgan diplomlar va sertifikatlar ham masofaviy ta'lim orqali olinganligi tufayli qabul qilinadi. Bu, talabalar uchun turli yo'nalishlar bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratadi.

### 8. Global tarmoq va hamkorlik imkoniyatlari

Masofaviy ta'lim platformalarda talabalar dunyoning turli burchaklaridan bo'lgan boshqa talabalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki turli madaniyatlar bilan tanishish va global tarmoq yaratish imkonini ham beradi.

### Xulosa

Masofaviy ta'lim platformalari bugungi kunda o'qish shakllarini yangi, yanada erkin va samarali tarzda tashkil etish imkoniyatini taqdim etadi. Uning afzalliklari qulaylik, iqtisodiy samaradorlik, o'qishning shaxsiylashtirilgan yondashuvi va global imkoniyatlarning kengayishi kabi omillarda namoyon bo'ladi. Bu ta'lim shakli kelajakda yanada rivojlanib, ko'proq talabalar uchun yangi ufqlarni ochadi.

**Gulbahor ZARIPOVA,  
Nazokat SAYDOVA,  
Gulsina ATAYEVA,  
Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalari kafedrasi dotsentlari**





## “QUVNOQ STARTLAR” - USTOZLAR BELLASHUVI

**Ma'lumki, “Besh tashabbus” doirasida yurtimizda turli xil tadbirlar o'tkazilmoqda. 21 mart – Navro'z bayrami munosabati bilan Olot tumanidagi 4-o'rta ta'lim məktəbida jismoniy tarbiya o'qituvchisi Xurshid Rahmonov rahbarligida “Quvnoq startlar” nomli qiziqarli sport musobaqasi tashkil etildi.**

Ushbu musobaqada məktəbning 10 nafar ayol o'qituvchilari “Shodlik” va “Tinchlik” jamoalariga bo'lingan holda, beshta shart bo'yicha bellashdilar. Bellashuv juda qizg'in va shiddatli o'tdi. Har bir shart natijalari hakamlar hay'ati tomonidan xolisona baholanib borildi. Bellashuv davomida ustozlar nafaqat sportga bo'lgan mehrini, balki jamoavii hamjihatlik va do'stona muhitni ham namoyon qildilar.

Tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazishda məktəbning jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Xurshid Rahmonovning hissasi beqiyos bo'ldi. U nafaqat hakamlikni adolatli va shaffof tarzda olib bordi, balki ishtirokchilarni ruhlantirib, tadbirning yanada qizg'in o'tishini ta'minladi. Uning tashabbuskorligi va mahorati bugungi musobaqani haqiqiy bayramga aylantirdi.

Xurshid Rahmonov fidoyi ustozlardan biri sifatida yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga oshno qilishda, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda faol xizmat qilib kelmoqda. Uning mehnatsevarligi, tashabbuskorligi va jamoat ishlardida faoliigi nafaqat o'quchilar, balki ustozlar orasida ham yuksak hurmatga sazovor. U jismoniy tarbiyani shunchaki fan sifatida emas, balki hayat tarzi sifatida o'rgatishga harakat qilmoqda.

Musobaqani o'tkazishdan asosiy maqsad yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning jismoniy chiniqishiga e'tibor qaratish va jamoavii hamjihatlikni oshirishdir. Shuningdek, tadbir orqali o'qituvchilar sport va sog'lom turmush tarziga qanday ahamiyat qaratish kerakligini amaliy tarzda namoyish etishdi.

Bellashuv barcha ishtirokchilarda iliq taassurot qoldirdi va kelgusida bunday musobaqlarni yanada keng miqyosda tashkil etishga ilhom bag'ishladi. Bu kabi tadbirlar nafaqat ustozlar, balki o'quchilar o'rtasida ham sog'lom raqobat va do'stona muhitni shakllantiradi.

**Maktuba SHAYDO,**  
“Ezgulik” muxbiri

«EZGULIK»

**Muassis:**  
«Ma'naviyat  
sarchashmasi»  
MCHJ

**MUHARRIR:**  
Obid QO'LDOSSH

Gazeta  
«EZGULIK»  
tahririysi kompyuter  
markazida sahifalandi.

Navbatchi muharrir:  
**Hamzabek  
TURDIYEV**

**Musahhih:**

Nafosat TOTLIYEVA

Sahifalovchi:  
**Mubina  
TOYIROVA**

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar muallifga  
qaytarilmaydi. Mualliflar  
fikri tahririyat nuqtai  
nazaridan farqlanishi  
mumkin.

Gazetada internet  
materiallaridan foydalаниди.

**Tahririyat manzili:**  
Buxoro shahri, A.Temur ko'chasi, 25-uy.  
Telefon: (99)700-25-04

**Elektron gazeta 2023 yil 23 yanvarda**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №41930465 raqam  
bilan ro'yxatdan o'tgan.